



O'ZBEK XALQ ERTAKLARI

HURSHID

BILAN LAYLO

86

1-11

989/7

В. П. Мухоморов

100.00

10.86

131.000

17/1 6/200

11 119.210

20/1 140.210

4.02-820-240

11/1 119.210

11/11 529.210

13/04-244-24

11/1 03730 240

12/01 1806 240

13/1 130 24

O'ZBEK XALQ ERTAKLARI

HURSHID BILAN LAYLO ERTAKLAR



989/7
Jahongir A. B. 21

Toshkent – 2018

UO‘K: 811.21

KBK: 86.34

O‘zbek xalq ertaklari. Hurshid bilan Laylo. – T.:
«Adabiyot uchqunlari», 2018, 128 bet.

ISBN 978–9943–5257–3–3

UO‘K: 811.21

KBK: 86.34

ISBN 978–9943–5257–3–3

© «Adabiyot uchqunlari» nashriyoti, 2018.



XURSHID BILAN LAYLO

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir zamonlarda Misr mamlakatida bir podsho o‘tgan ekan. Uning otini Abdulaziz shoh der ekanlar. Shohning Abdukarim degan vaziri ham bor ekan. Abdulaziz shoh bilan Abdukarim vazir juda inoq ekanlar. Ular yoshlikda madrasada birga o‘qishgan, ayniqsa, Abdukarim nihoyatda tirishqoq ekan. O‘zi kambag‘al oilasidan bo‘lishiga qaramay, butun kuch-quvvatini ilmga berar, uni chuqurroq o‘zlashtirishga harakat qilar ekan. Abdukarim vazir har vaqt shohga:

– Bu dunyo o‘tar dunyo, yaxshilik qilsang ham o‘tadi, yomonlik qilsang ham o‘tadi, xalq bizning onamiz bo‘ladi. Shuning uchun xalqqa yaxshilik qilmoq kerak. Yomonlik qilish har kishining qo‘lidan keladi, ammo yaxshilik qilish har kimning qo‘lidan kelavermaydi, – der ekan. Ular har bir ishni bamaslahat bajarishar ekan. Mamlakat ham o‘sha davrda tinch va obod ekan. Lekin ular dunyoning bir kamchiligidan nihoyatda xafa ekanlar. Shoh ham, vazir ham befarzand ekan.

Kunlardan bir kun shohning saroyiga bir qalandar kelibdi. Shoh qalandarni o‘z oldiga chaqirib olib, unga:

– Ey qalandar, siz jahongashta odamsiz, ko‘p shahar va qishloqlarni kezgansiz. Ko‘p odamlarni duo qilasiz. Menga farzandsizlikning chorasini aytib berolmaysizmi? – debdi. Qalandar:

– Bilaman, – deb qo‘ynidan ikki olmani chiqarib, birini shohga, birini vazirga berib, duo qilibdi. – Biringizga xudo o‘g‘il, biringizga qiz



beradi, ammo ikkovingiz bir-biringiz bilan quad bo'lasiz, — deb qalandar shoh bilan vazirdan in'om va ehsonlar olib jo'nab ketibdi.

Olmani yeganlaridan so'ng shohning xotini o'g'il tug'ibdi. Otini Xurshid qo'yishibdi. Vazirning xotini qiz tug'ibdi, uning otini Laylo qo'yishibdi. Bolalar birga tarbiya ko'rib, birga o'sishibdi. Xurshid bilan Laylo bir mayiz topsalar bo'lishib yer ekanlar, ittifoqlik, mehr-muhabbat kundan kunga kuchayib boraveribdi. Laylogul qizlar maktabida o'qisa, Xurshid o'g'il bolalar madrasasida o'qibdi. Yildan yil, oydan oy, kundan kun o'tib, Xurshid bilan Laylo ham o'qishni tugatibdi. Ular o'n sakkiz yoshga kiribdilar. Shoh o'g'li Xurshidni uylantirish harakatiga tushibdi. Vazirning qizi Laylogulga sovchi yuboribdi. Vazirning qizi sovchilarga:

— Shahzoda Xurshidning ko'ngli menda bo'lsa, o'zim bilan gaplashsin. Mening bir shartim bor. Agarda qabul etsa, men ham roziman, — debdi. Sovchilar qizning aytgan so'zlarini Xurshidga yetkazibdilar. Xurshid vazirning uyiga boribdi. Mehmonxona o'rtasiga parda tutilgan ekan. Pardaning orqasida o'tirgan Laylogul shahzodaning tovushini eshitib, "Assalomu alaykum, shahzoda!" debdi. Shundan keyin ikkisi hol-ahvol so'rashibdi. Ular maktabga kirganlaridan so'ng, bir-birlari bilan ko'risha olmagan ekanlar. Laylogul Xurshidning taklifiga shunday debdi:

— Men qarshi emasman, biroq bir shartim bor. Agarda qabul etsangiz to'yga roziman. Shartim



shu: har kuni ertalab uyingizga boraman, kech bo'lmazdan o'z uyimga ketaman, — debdi.

Shahzoda qizning bu shartiga hayron qolib, nima javob qaytarishni bilmay qolibdi. So'ng Xurshid aql-hushini bir joyga to'plab, shartini qabul qilay, uyimga borgach, boshqa chorasi topilib qolar, — deb o'ylabdi. Xurshid Laylogulga:

— Shartingizni qabul etdim, — debdi.

O'n besh kun to'y bo'libdi. Shahzoda uchun qator uylar juda yaxshilab bezatilgan ekan. Ammo bu uylarning birontasida ham kelinchak Laylogul ko'rinmas ekan. Laylogul esa, o'z shartiga muvofiq, to'yning ertasigayoq erta bilan nonushtaga kirib kelibdi. Xurshid shoshilganicha Laylani kutib olibdi-da, uyga boshlabdi. Ular qator uylarni bir-bir tomosha qilib, o'n birinchi uyga kiribdilar. Kanizak qizlar dasturxon yozibdilar. Dasturxon noz-ne'matga to'la emish. Ular suhbatlashib o'tirib, kunni kech qilibdilar. Laylogul boshiga paranjisini yopinib, otasining uyiga jo'nab qolibdi. Xurshid og'zini ochib, qizning ketidan qarab qolaveribdi.

Bu ahvol har kuni takrorlanaveribdi. Ko'pincha, Laylogul parishon bo'lar, Xurshidning gaplariga ham e'tibor bermas ekan. Xurshid nima gapligini bilolmay, og'ir ahvolda qolibdi.

Kunlardan bir kun Xurshid o'ylab-o'ylab maktabdosh do'sti Abdumutalning oldiga boribdi. Do'sti madrasa hujrasida turar ekan. Xurshidni xursand bo'lib kutib olibdi. Abdumutal sayohatga ketgani uchun ular anchadan buyon



ko'rishishmagan ekan. Abdumutal Arabistonning ko'p shaharlaridan tashqari, Hindiston, Peshovur kabi uzoq mamlakatlarda bo'lganini gapirib beribdi. Abdumutal o'ttiz ikki yoshlarda bo'lib, ancha ziyrak yigit ekan. Xurshidning xafaligini kelgan zamon sezibdi. Ular ovqatlanib, choy ichib, suhbatlashib o'tiribdilar. Abdumutal sekin gap boshlabdi:

— Do'stim Xurshid, siz shohning o'g'lisiz. Hamma narsa siz uchun tayyor. Husn, aql, idrok, ilmda Arabistonda yakka-yu yagona vazirning qizisizning xizimatingizda bo'lsa-yu, tag'in nega xafa ko'rinasiz?

— Mening xafaligimni qayerdan bildingiz? — deb so'rabdi Xurshid.

— Hech kimdan, lekin betlaringiz sarg'ayganidan, xayolingiz parishonligidan gumon qilaman, — debdi u. Xurshid do'stiga hozirgi ahvolini bir boshdan aytib beribdi. Abdumutal bu so'zlarni eshitib, qo'liga qog'oz-qalam olib, qandaydir duo yozib, Xurshidning qo'liga beribdi.

— Mana shuni xotiningiz uydan chiqib ketayotganda peshanangizga yopishtirib oling. Qizning orqasidan boravering. U sizni ko'rmaydi. Ketidan borsangiz, hamma sir-asrordan xabardor bo'lasiz, — debdi Abdumutal.

Xurshid xursand bo'lib, qog'ozni olib, o'rtog'iga minnatdorchilik bildirib, uyiga qaytibdi. U kechani uxlamay o'tkazibdi. Erta bilan nonushtaga Laylogul yetib kelibdi. Kundagidek ikkisi birgalashib nonushta



qilibdilar. Xurshid har kuni qani endi kech bo'lmasa-yu, Layloning husniga to'ysam, deb niyat qilar ekan. Bugun esa tezroq kech bo'lsin, buning sirlarini tezroq bilib olay, deb o'z-o'zidan hovliqar ekan.

Nihoyat, Layloning ketar vaqti bo'libdi. U paranjisini yopinib jo'nab qolibdi. Xurshid ham vaqtni g'animat bilib, peshanasiga do'sti yozib bergan xatni yopishtirib, xotini ketidan ketaveribdi. Laylogul to'g'ri otasining hovlisiga kiribdi. Onasi uni ko'rib:

— Ha, keldingmi, qizim, — deb quchoqlab ko'rishib, ikki yuzidan o'pibdi. Boshidan paranjisini olib, ayvondagi mixga osib qo'yibdi. Kanizak qiz xitoyi laganda osh olib kelibdi. Dasturxon atrofida vazir, Laylo, uning onasi o'tiribdilar. Xurshid ham bexavotir o'tirib olibdi. Hammalari ovqatga qo'l uzatibdilar. Onasi bir suyakni Layloning oldiga qo'yibdi. Uni Xurshid qo'liga olib go'shtini yegan ekan, ichidan oshiq chiqib qolibdi. U oshiqni olib, tozalab, cho'ntagiga solib qo'yibdi. Oshni yeb bo'lib, ustidan bir piyoladan choy ichibdilar. Laylo o'rnidan turib:

— Oyi, men ketdim, — deb boshiga paranjisini yopinib jo'nabdi. Xurshid ham uning ketidan ketaveribdi. Laylo borib-borib bir darvozani qoqibdi.

— Olmagul, Olmagul! — deb chaqiribdi. Darvoza ochilibdi. Hovlida bir kelishgan chiroyli qiz olma to'ldirilgan kumush laganni ko'tarib



turgan ekan. Laylogul olmadan birini olibdi. Uning ketidan Xurshid ham bitta olma olibdi.

Laylogul Olmagulga:

– Do'stim, tezroq ketaylik! – debdi. U qiz ham boshiga paranjisini yopinib chiqibdi. Hovlidan uchkishni indamasdan jo'nabdilar. Borib-borib Olmagul yana bir darvozaning halqasini qoqibdi. Darvoza ochilibdi. Laylo:

– Anorgul! – deb chaqiribdi. Bir qiz qo'lida bir laganni anorga to'ldirib ko'tarib chiqibdi. Anordan Laylo bir dona, Olmagul ham bir dona, Xurshid ham bir dona olibdi. Anorgul laganni qo'yib, boshiga paranjisini yopinib chiqibdi. Endi bular to'rt kishi bo'libdilar. Ular gapirishib, xaxolab kulishib borar ekanlar. Kulganda Olmagul og'zidan olmagul, Anorgul og'zidan anorgul to'kilar edi. Xurshid ham birga kulishib borayotganidan ular xabarsiz ekanlar. Qizlar shahardan tashqariga chiqibdilar. Nihoyat, tevaragi baland devorlar bilan o'ralgan bog'ga yetibdilar. Bog'ning darvozasi qizil yog'ochdan yasalgan ekan. Anorgul darvozaning halqasini qoqqan ekan, ikki haybatli dev chiqib ochibdi. Devlar qizlarga qarab ta'zim qilishibdi.

Xurshid ham ular orqasidan bog'ga kiribdi. U bog'ga qarab hayron bo'libdi. Bog'da yilning to'rt faslini ko'rish mumkin ekan: bog'ning bir tomoni bahor – daraxtlar gullaganmish, ikkinchi tomoni esa yoz, mevalar pishib, tagiga tushib yotganmish.

Uchinchi tomoni kuz, daraxtlarning bargi sarg'ayib yerga tushayotganmish... To'rtinchi



tomonida esa hovuzdagi suv muzlab, qor pag'a-pag'a bo'lib yog'ib turgan ekan. Bu ajoyib bog'ni ko'rib Xurshid hayron qolibdi. Qizlar bog'ning o'rtasidagi yo'ldan uzoqda ko'rinib turgan qo'rg'on tomonga yuribdilar. Qizlar yasatilgan qirq uydan o'tib, nihoyat, qirq birinchi uyga –saroyning bekasi Guliqahqah parining oldiga kiribdilar. U Ko'hiqofdagi parilar podshosining qizi ekan.

Guliqahqah pari Laylogulni yaxshi ko'rib, unga yaqinroq bo'lish niyatida shu yerga bog' yaratgan ekan. Laylogul parining izmidan chiqqa olmas, Xurshidni qanchalik sevmasin, har kuni uni tashlab ketishga majbur ekan.

Anorgul bilan Olmagulga Guliqahqah pari Laylogulga xizmat qilasizlar, deb tayinlagan ekan. Laylogul bilan dugonalari Guliqahqah pari oldiga kirganlarida u tilla taxt ustida yonboshlab yotgan ekan. Guliqahqah pari qizni ko'rib, o'rnidan turibdi va u bilan quchoqlashib ko'rishibdi. Keyin yoniga o'tqazibdi. Ular bir-birlaridan hol-ahvol so'rashibdi. Dasturxon yozilibdi. Maylar suzilibdi. Xurshid ham qizlar bazmini tomosha qilib o'tiribdi.

Musiqalar chalinibdi, qizlar navbati bilan raqsga tushibdilar. Oradan ancha vaqt o'tgach, Guliqahqah pari o'yinni to'xtatib, qizlarga:

– Charchadinglar, endi borib cho'milinglar! – debdi. Ularning hammasi bog'ga chiqishibdi. U yerda marmar toshdan ishlangan katta hovuz bor ekan. Hovuzning suvi nihoyatda tiniq ekan. Suv tagidagi qimmatbaho toshlar ko'zga ko'rinib



turar ekan. Hamma qizlar yechinib, hovuzga o'zlarini tashlabdilar. Ular bir-birlariga suv sepishib, kulishib cho'milishar ekan. Xurshid shu paytdan foydalanib, xotini Laylogulning kiyimini olib qo'yniga solibdi.

Hamma qizlar cho'milib bo'lib, o'z kiyimini kiyibdi. Biroq Laylogul kiyimini topolmay hayron bo'libdi. Bog'ning ichi va tashqarisini rosa qidiribdilar.

Ko'ylak ham, bironta odam ham topilmabdi. Parilarning hammasi hayron bo'libdi. Bu yerda bunaqa hodisa hech bo'lmagan ekan. Bundan Guliqahqah pari nihoyatda xafa bo'libdi. O'zicha: "Buning tagiga yetmagunimcha, topmagunimcha qo'ymayman", debdi g'azab bilan.

Pari devlarni chaqirib:

— Laylo, Anorgul, Olmagullarni uylariga olib borib qo'yinglar! — deb buyuribdi.

To'rt dev to'rt oyoqlik katta tosh taxtani keltirib ayvonga qo'yibdi. Uch qiz Guliqahqah pari bilan xayrlashib taxtaga chiqib o'tirishibdi. Xurshid hammadan avval chiqib o'tirib olibdi. Devlar tosh taxtani osmonga ko'tarib uchishibdi. Qizlar o'rgangani uchun churq etishmabdi. Xurshid esa ko'zini chirt yumib olibdi. Devlar taxta toshni yerga qo'yishibdi. Qizlar tushib uy-uyiga jo'nabdi. Xurshid ham uyiga kelib, kaniz qizlardan birini chaqirib, "Uyda yotaman, Laylo kelsa, meni uyg'otasan. Lekin seni so'ksam, ursam ham ko'nglingga olmagin", deb tayinlabdi.



Erta bilan nonushta vaqtiga Laylogul yetib kelibdi. Uyga kirib kunda o'tiradigan joyiga borib o'tiribdi. Laylo Xurshidni uyning bir burchagida kiyimlarini yechmasdan mast uyquda yotganini ko'ribdi. Shu vaqt kanizlardan biri shoshilganiclia kirib, Xurshid yoniga borib:

— Shahzodam, turing, kelin oyim keldilar! — deb uyg'otaveribdi. Xurshid o'rnidan tura solib:

— Ey, la'nati, yaxshi tush ko'rayotgan edim, meni uyg'otib, tushimni chala qilding, bor, bir kosa tiniq suv olib kel! — deb do'q uribdi. Kanizak xitoy chinnida buloqning toza, tiniq suvidan keltirib qo'yibdi. Xurshid Laylodan:

— Meni kechiring, uxlab qolibman, — deb uzr so'rabdi. Undan keyin kanizga:

— Hozir suvga qarab turib bu kecha ko'rgan tushimni aytaman, ta'birini to'g'ri aytasan, — debdi.

— Tushimda, — debdi u, — xotinim Laylogul uydan chiqib, to'g'ri o'z uyiga boribdi. Oyisi bir lagan osh keltirib qo'yibdi. Oyisi Laylogulning oldiga qo'ygan suyakni tozalab, ichidan chiqqan oshiqni cho'ntagimga solib qo'yibman. Shu tushim rostmikan? — deb cho'ntagidan bir dona oshiqni chiqarib dasturxon ustiga tashlabdi.

Undan keyin Xurshid Laylogul o'z uyidan chiqib ketgani, Olmagul bilan uchrashgani, uning laganidan bir dona olma olib qo'yniga solganini aytibdi. U qo'ynidan olmani olib dasturxon ustiga qo'yibdi. Keyin Laylogulning Anorgul bilan uchrashgani, undan bir dona anor



olganini aytibdi. Keyin ular bilan Guliqahqah parining to'rt fasllik bog'iga borgani, devlar bilan uchrashgani, Guliqahqah parining uyida qizlar bazmi bo'lgani, undan keyin gulbog'dagi hovuzda qizlarning cho'milgani, u yerda yo'qolgan Laylogulning kiyimini olib qo'yniga solganini aytib, ko'ylakni olib yoniga qo'yibdi.

Xurshid boshini ko'tarib Laylogulga qarabdi. Laylogul goh Xurshidga, goh dasturxon ustidagi olma, anorga tikilib qarar, biror og'iz gapirishga ham madori qolmagan ekan. Xurshid kulib, indamay Laylogulga qarab turaveribdi. To'satdan yuz bergan bu sirlarning ochilishiga Laylogul chiday olmabdi. Shartta o'rnidan turibdi-da, paranjisini yopinib chiqib ketibdi. Xurshid ham peshonasiga xatni yopishtirib, uning ketidan jo'nabdi. Laylogul to'g'ri Guliqahqah parining oldiga boribdi. Bugungi voqeani unga birma-bir aytib beribdi.

Guliqahqah pari qizning so'zlarini diqqat bilan tinglabdi-da, o'ylab turib:

— Sen ko'p diqqat bo'laverma. Men ertaga azon vaqtida tosh taxtaga o'tirib, eringning hovlisiga boraman. Agar u kitob o'qib turgan bo'lsa, yaxshisenga ruxsat beraman. Qaytadan to'y qilamiz. Agar men borgan choqda u g'aflat uyqusida bo'lsa, hovlisiga tosh tashlayman. Shahzoda Xurshid uyjoyi bilan yer ostiga kirib ketadi, — debdi va Laylogulga qarabdi. — Rozimisan?

Qiz hech narsa demabdi. "Borib Xurshidga xabar bersam, pari sezib qolib meni nobud qilishi



mumkin. Unga xabar bermasam, uxlab qolsa, pari uni nobud qilishi mumkin. Unda Xurshiddan ajralaman, endi nima qilish kerak?" deb Laylogul bir qarorga kelmasdan o'rnidan turib, ketmoqchi bo'libdi.

Guliqahqah pari Layloga qarab:

— Bu kecha shu yerda qolasan, — debdi. Xurshid bu yerda bo'lgan so'zlarning hammasini eshitib uyiga jo'nabdi. Xurshid bu kecha uxlamabdi. U sahar vaqtida o'rnidan turib, yuvib, toza va yangi kiyimlar kiyib, kitob o'qib o'tiribdi. Nihoyat, hovli tepasida "g'uv-g'uv, g'uv" degan ovoz eshitilibdi. Xurshid bu ovoz Guliqahqah parining uchar tosh taxtasi ekanligini sezgan bo'lsa ham, o'zini bilmaslikka olib, boshini kitobdan ko'tarib qaramabdi.

Guliqahqah pari hovli ustida aylanib, shahzoda Xurshidni gilam ustida kitob mutolaasida o'tirganini ko'ribdi. Haqiqatan, shahzoda Xurshid go'zal, aqlli yigit ekan. Laylogulga munosib ekan, deb Guliqahqah pari o'z bog'iga uchib ketibdi. U Laylogulni chaqirib:

— Bor, Xurshidga ayt, to'yni boshlasin, to'yga men o'zim ham boraman, — debdi.

Laylogul xursand bo'lganicha yugurib Xurshid qoshiga boribdi. Qiz kelsa, u bechora hali ham kitob o'qib o'tirgan ekan.

— Turing, shahzoda, kitobni yig'ishtiring, avval to'yni boshlaylik, — deb kulibdi Laylogul. Xurshid Laylogulga parining ruxsat berganini, endi ular doim birga bo'lishlarini eshitib, juda sevinibdi.



Shu kuniyoq to'y boshlanibdi. To'yning uchinchi kuni parilar bilan birga Guliqahqah ham kelib, kuyov-kelinga oq fotiha beribdi. Sevishganlar murod-maqсадlariga yetibdilar.

HAR KIMNING BOLASI O'ZIGA SHIRIN

O'tmishda bir dehqonning o'g'li bo'lgan ekan. U nihoyatda mehnatsevar, serg'ayrat bo'lgani uchun ertalabdan kechgacha kun qizig'ida oyoq yalang, bosh yalang bo'lib bir yaktakda ketmon chopar ekan. O'g'lini bu holda ko'rgan otasining unga rahmi kelib:

— Ey, bolam, kun qizig'ida boshingga qalpoq, oyog'ingga etik, egningga chopon kiyib ishlasang bo'lmaydimi? Boshingdan oftob o'tadi, oyog'ingga kesak botadi, odam lohas bo'lib, kasallanadi, — desa, o'g'li otasining bu nasihatiga quloq solmas ekan.

Kunlardan bir kuni otasi o'g'lini uylantiribdi. O'g'li ham farzand ko'ribdi. Ota-bola dalada ketmon chopib, mehnat qilib turganlarida yosh bola ularning yoniga bosh yalang, oyoq yalang, ustida bir ko'ylak kiygan holda kelibdi. Shunda dehqonning o'g'li o'z bolasini koyibdi:

— Hoy Nig'matulla, oyog'ingga kalishingni, boshingga do'ppingni, egningga kamzulingni kiysang bo'lmaydimi? Axir bu yurishingda kasal bo'lib qolasan! — debdi. Shunda bu so'zlarni eshitib turgan dehqon ota o'g'liga qarab:

— Ha, o'g'lim, farzand qanday shirin bo'lar ekan? Senga yoshlik vaqtingda nasihat qilsam, qulog'ingga olmas eding. Endi o'zing ota bo'lib



farzandlaringni ayab, o'sha men aytgan nasihatlarni qaytarmoqdasan, — debdi.

ERKAJON

Uzoq zamonlarda Buxoro elatida bir podsho bo'lgan ekan, uning Erkajon degan o'g'li bor ekan. Podsho o'g'lini juda yaxshi ko'rar ekan. Usiz tomog'idan ovqat o'tmas, ko'ziga uyqu kelmas ekan. Podsho o'g'lini o'z o'rniga taxtga ega qilish uchun jami hunarlarni o'rgatgan ekan. Unga atab shohona kiyimlar tiktirgan va yaxshi bir toy olib bergan ekan. Erkajon toyini shu qadar yaxshi ko'rar ekanki, hatto egar-qashovini ham birovga ishonmas ekan.

Erkajon o'n besh-o'n olti yoshga kirganda onasi o'libdi, podsho boshqa xotin olibdi. Bu xotin o'z o'g'illarini ham ketida ergashtirib kelibdi, o'gay ona Erkajonning boshiga ko'p azob-uqubatlar solibdi. Shohning o'rniga o'z o'g'illaridan birortasini taxt-u baxt egasi qilmoqchi bo'libdi. Lekin o'rtada Erkajon bor. O'gay ona Erkajonni yo'qotmoqchi bo'libdi. Unga ikki-uch marta nonga zahar qo'shib berganida, toyi kelib yedirmabdi. Buni ko'rgan o'gay ona toyni yo'qotmoqchi bo'libdi. Lekin hech ilojini topa olmabdi, podshoning g'azabidan qo'rqibdi.

Kunlarning birida podsho vafot etibdi. O'gay ona buni Erkajonga bildirmasdan har kungiday maktabiga yuboribdi. Erkajon maktabga ketayotganida toycha kishnabdi va Erkajonga qarab: "Bugun meni so'yishmoqchi, mening go'shtim onangning kasaliga davo emish. Sen



maktabdaligingda bir kishnasam, meni so'yishga taraddud qilayotgan bo'ladilar, ikkinchi marta kishnasam qassob mening oyog'imni bog'layotgan bo'ladi, uchinchi marta kishnaganimda yetib kelmasang, bo'g'zimga pichoq qo'yiladi; unda kech bo'ladi. Agar yetib kelsang, onangdan: "Men bir shohona kiyimlarni kiyib, sevimli toyimni oxirgi marta minay", deb so'raysan va u yog'ini mening ixtiyoriga qo'yasan", debdi. Erkajon bu gapdan xafalanib, maktabga boribdi. O'qib o'tirganida toy bir kishnabdi, buni eshitgan Erkajon muallimidan tashqariga chiqib kelishga javob so'rabdi, muallimi javob bermabdi, toy ikkinchi marta kishnaganda yana javob so'rabdi, muallimi yana javob bermabdi. Erkajon chiday olmasdan, tez chopib uyga kelibdi.

U uyga kirishi bilan toy uchinchi marta kishnabdi. Erkajon pichoq qayrayotgan qassoblardan va onasidan so'ymaslikni so'rab, yolvorib yig'labdi. Johil onasi unga quloq solmasdan qassoblarga tezda so'yishni buyuribdi.

Bola qassobning qo'lini ushlab yig'laganda, uning rahmi kelib, toyiga oxirgi marta minishga ijozat beribdi, toyiga ham yaxshi egar urib, anjomlar bilan bezabdi. U minishi bilan toy saroyning baland devorlari ustidan uchib o'tibdi va uzoq bir joyga borib tushibdi. So'ng Erkajonga: "O'gay onang avval meni, keyin seni o'ldirmoqchi edi. Endi sen xatardan qutulding, qachon mening yordamim kerak bo'lsa, mana shu




yolimdan bittasini kuydirsang, tezda yetib kelaman", deb yigitning ko'zidan g'oyib bo'libdi.

Erkajon uzoqda ko'ringan bir chaylaga boribdi, unda bir nuroniy chol gul butoqlarini kesib yurgan ekan. Cholning oldiga borib, odob bilan salom beribdi, chol undan kimligi va qayerdan kelganligini so'rabdi. Erkajon cholga shahzodaligini bildirmay: "Bir kimsasiz bechoraman", debdi. Cholning unga rahmi kelib, o'z yonida qolishini so'rabdi, yigit bunga jon-dili bilan rozi bo'lib, gulbutalarga, qovuntarvuzlarga qarashib yuribdi.

Yigit kelib tushgan elat podshosining uch qizi bor ekan. Ular bir-biridan go'zal ekan-u, lekin hali baxtlari ochilmagan ekan. Har kuni erta bilan chol shu uch qizga bir savat gul eltib berar ekan. Yigit bir kuni bir dasta gulni cholga bildirmay, savatga qo'yib yuboribdi. Podshoning kichik qizi gullar orasida choldan boshqa kishi tomonidan yuborilgan guldastani ko'rib qolibdi. Kunlarning birida qiz ikki opasi bilan cholning bog'iga kelibdi. Shunda u kiyimlari bir holatda bo'lsa hamki, qaddi-qomati kelishgan, chiroyli yigitni ko'rib, choldan kimligini so'rabdi. Chol ham ko'p o'ylamasdan, "Bir yetimcha qul-da, ishlarimga qarashib yuradi", deb javob qaytaribdi. Qiz o'zicha, "O'zi qul bo'lsa ham qo'llari gul, mehnatsevar ekan", deb o'ylabdi.

Qizlar kechgacha o'ynab-kulib, bog'lardan gullar terib bo'lganlaridan keyin qaytmoqchi bo'libdilar va choldan bittadan yaxshi qovun





tanlab berishni so‘rabdilar, shohning kichik qizi yigitdan bir qovun tanlab berishni so‘rabdi.

Shunday qilib uch qiz uch qovunni ko‘tarib uyga qaytishdilar. Shohning katta qizi qovunini otasiga beribdi. Otasi so‘yib ko‘rsa, bemaza ekan, so‘ngra o‘rtancha qizi uzatibdi, bu qovun ham bemaza chiqibdi. Oxiri kichik qizi uzatgan ekan, otasi unga qarab:

– Opalaringning qovunini yeb maza topmadim, seniki nima bo‘lar edi, – deb olgisi ham kelmabdi.

Lekin qizining xafa bo‘lganini ko‘rib qovunni olib so‘yibdi. Qarasa, juda shirin ekan. Shoh qizlari chiqib ketgach, bo‘lgan voqeani vaziriga gapirib beribdi, vazir shohga qarab:

– Ikki katta qizingizni erga berish vaqti o‘tibdi, kichik qizingizning vaqti yetibdi, – debdi. Shoh vazirining gapini to‘g‘ri topibdi va qizlarini erga berish to‘g‘risida maslahat so‘rabdi.

Shoh odil shoh ekan, mol-davlati o‘ziga yetib ortar ekan. Shuning uchun uni davlatmand kuyov emas, baxtli kuyov qiziqtirar ekan.

Tez orada shaharning o‘rtasida bir chortoq qurib, atrofiga qimmatbaho pardalar tutib bezatibdi. Ustiga qizlarini chiqarib o‘zlariga kuyov tanlashni so‘rabdi. Shaharning butun yigitlari bitta-bitta shu chortoq yonidan o‘tibdilar. Shohning katta qizi qo‘lidagi olmasini bir savdogarning o‘g‘liga otibdi, o‘rtancha qizi olmani bir amaldorning o‘g‘liga otibdi, kichik qizi esa hech kimga otmabdi. Buni ko‘rgan shoh



kishilardan yana shaharda kim qolganligini so'raganida, ular qovun boshidagi bir ko'rimsiz uvada kiygan quldan boshqa hech kim qolmaganligini aytibdilar. Shoh tezda olib kelishni buyuribdi. Hech gapdan xabarsiz bo'lgan yigit chortoq yonidan o'tayotganida boshiga bir olma kelib tegibdi, buni ko'rgan shoh, qizim o'ylamay qilayotgandir, deb ikkinchi marta o'tkazishni buyuribdi. Unga qiz yana olma tashlabdi, shoh oxiri ko'nishga majbur bo'libdi.

Podsho qirq kecha-kunduz to'y-tomosha qilib, uch opa-singilni erga beribdi. U ikki kuyovidan rozi, lekin uchinchi kuyovi uchun ikki qizidan ko'p ta'na eshitibdi. Xafa bo'lib, oxiri kichik qizi bilan kuyovini ikki katta qizidan ajratib, uzoq joyga eltib joylashtiribdi. Kunlarning birida podsho ikki kuyoviga shikorga chiqib bittadan qush otib kelishni buyuribdi. Ikki kuyov yaxshi otlarda, shohona kiyimlarda shahar o'rtasidan o'tib ketibdilar. Shohning kichik qizi buni ko'rib, eriga: "Siz ham ularga qo'shilib borsangiz-chi, qush olib kelib otamga ma'qul bo'lardingiz", debdi. Yigit oldin unamabdi, so'ngra chiqishga rozi bo'libdi.

Shahar o'rtasidan qirchang'i otda o'tib ketayotganida uni ko'rgan kishilar kulibdilar. Yigit shahardan chiqib, toyni yetib kelibdi. Yigit podshoning qush ota olmay charchab kelayotgan ikki kuyovi oldiga kelibdi-da, boshlari ustida uchib yurgan qushlardan ikkitasini otibdi, boshini kesib, tanasini ularga tashlab ketibdi.



Ular qushlarni shahardan tantana bilan olib o'tibdilar va shohga beribdilar. Shoh ularga minnatdorchilik bildiribdi.

Endi gapni shohning kichik kuyovidan eshiting. U yana o'sha cho'loq otida, ikki qushning boshini ipga bog'lab, yelkasiga tashlab kelibdi. Buni ko'rgan kishilar yana kulibdilar.

Erkajonning qaynatasi bilan uning ona yurtidagi podsho bir-biriga yov ekan. Oradan ko'p o'tmay bu yurtga dushman podsho o'z lashkarlari bilan bostirib kelibdi. Podsho lashkari bilan ikki kuyovini jangga yuboribdi. Jang boshlanibdi. Erkajon yana bir o'zi cho'loq oti bilan jangga chiqayotganda, boshqalarga kulgi bo'libdi. U Jang maydoniga yetar-etmas otining yolini kuydiribdi. Ko'z ochib-yumguncha toyi yetib kelibdi. Erkajon shohona kiyimlarni kiyib, toyiga minib, jangga kiribdi. Dushman lashkarini bir boshdan qirishga tushibdi, podshoning ikki kuyovini o'limdan qutqaribdi. Bir joyga borsa, podshoning bir o'ziga o'gay onasining ikki o'g'li hamla qilayotgan ekan, tezda yetib borib, ularni o'ldiribdi. Erkajon ular bilan olishayotganida qo'liga shamshir tekkan ekan.

Podsho uning yarasini boshidagi sallasi bilan bog'labdi. Dushman yengilgach, yigit yana ko'zdan g'oyib bo'libdi. Podsho ikki kuyovi bilan yigitni ko'p axtaribdi va topa olmaganiga achinib, eliga qaytibdi. Xalq uni g'alaba bilan qutlabdi. Saroyga bora turib yo'lda kichik qizinikiga kiribdi, uyga kimgach, uning sallasi



bilan qo'li bog'liq yotgan yigitni ko'ribdi va kichik kuyovi ekanligini bilib, uni quchoqlabdi.

Oradan ko'p vaqt o'tmay, Erkajon o'z eliga qaytibdi, o'gay onasi va o'g'illari dastidan azob chekkan xalqlarga ozodlik beribdi va otasining o'rniga podsho bo'lib murod-maqsadiga yetibdi.

DEHQON, QOZI VA TADBIRLI AYOL

O'tgan zamonda bir chol qishloqda tirikchilik o'tkaza olmay, ish axtarib shaharga boribdi, mardikorchilik qilib, bir oz pul yig'ibdi. U pulni saqlash uchun ishonchli odamga topshirmoqchi bo'libdi. Lekin yaqinroq kishisi yo'q ekan. Nihoyat, o'ylab-o'ylab, "Shu jamg'argan besh-o'n tanga pulimni shahar qozisiga saqlash uchun bersam, yana mardikorchilik qilib bir oz pul jamg'arganimdan so'ng qozidagi pulni ham olib, qishloqqa — bola-chaqam yoniga ketsam" degan qarorga kelibdi.

Chol qozining huzuriga kelib:

— Assalomu alaykum, qozi pochcha! — debdi.

Qozi:

— Vaalaykum assalom, keling, ota, xo'sh xizmat? — deb so'rabdi.

— Taqsir, men Oqjar qishlog'idan kelganman, — debdi chol. — Bola-chaqamni boqolmay shaharga ish qidirib kelib, mardikorchilik qilib yuribman. Bir oz pul topib so'ngra uyimga ketmoqchiman. Hozir yigirma tanga pul jamg'ardim, yana biror haftacha ishlarimni qilibman. Siz shu yigirma tangamni ketgunimcha saqlab bersangiz, deb keldim.



— Barakalla aqlingizga, jonu dilim bilan saqlab beraman. Qachon kelsangiz pulingiz mana bu tokchadagi xaltada turadi, — debdi qozi.

Chol xursand bo'lib qozixonadan chiqib ketibdi. Oradan bir hafta o'tibdi. Chol mardikorchilik qilib yana besh-o'n tanga ishlab qozixonaga kelibdi.

— Assalomu alaykum, qozi pochcha, — debdi chol.

— Vaalaykum assalom, — debdi qozi. Chol ikki qo'lini qovushtirib, aytibdi:

— Qozi pochcha, men qishloqqa qaytmoqchiman.

Sizga omonat qoldirgan pullaringa keldim.

— Iye, — debdi qozi, — qanaqa pul, qanaqa omonat, qachon bergansan?

— Taqsir, bundan bir hafta ilgari sizga omonat saqlash uchun yigirma tanga pul berib, "qishloqqa qaytarda olib ketaman", degan edim. Siz olib qolgan edingiz, — debdi chol. Qozi:

— La'nati, ahmoq, qanaqa omonat pul, tuhmat qilma! Guvohing bormi?! Jo'na, jo'na, ko'zimga ko'rinma! — deb, qozi cholni haydab yuboribdi. Chol:

— Taqsir, men bechorani kuydirmang. qiynalib mehnat qilib topganman, jamg'arma pullarimni qaytaring, besh-oltita yosh bolalarim bor. Shularga rahmingiz kelsin, — deb yolvoribdi. Qozi esa quloq solmay, cholni urib, haydab chiqarib yuboribdi.



Bechora chol ko'chaga chiqib, ariq bo'yida xafa bo'lib, yig'lab o'tirgan ekan, uzoqdan bir paranji yopingan ayol kelaveribdi. Ayol cholning yoniga kelib:

— Otajon, sizga nima bo'ldi? Nega yig'lab o'tiribsiz? — deb so'rabdi.

— Ey qizim, — debdi chol, — so'rab nima qilasan, men bir mushkul ishga yo'liqdim, chora topolmay, xafa bo'lib o'tiribman.

Ayol chachvonini ko'tarib:

— Ota, boshingizga tushgan mushkul ishni ayting, balki men chora toparman, — debdi.

— Bolam, so'rab nima qilasan, — debdi chol.
— Sen nima chora ko'ra olar eding.

Ayol qistayvergach, oxiri aytishga majbur bo'libdi. Chol o'tgan voqeani so'zlab bergach, ayol:

— Ota, men bir yo'l axtarib, sizning bu ishingizga chora topishga urinib ko'raman. Agar uddasidan chiqsam, siz o'z mehnatingiz orqasidan jamg'argan pulingizni qaytarib olasiz. Siz shu yerda turing, men uyga tezda borib kelaman, tag'in ketib qolmang, xo'pmi? — debdi. Chol kutmoqchi bo'libdi. Ayol uyiga borib pardo-andoz qilibdi, yangi kiyimlarini kiyibdi, yangi duxoba paranji yopinibdi, qo'liga dur solingan qutichani olib, o'zi bilan bir yigitchani ergashtirib, cholning yoniga kelibdi. U cholga:

— Ota, men hozir qozixonaga kiraman, oradan bir oz vaqt o'tgandan so'ng, siz ham kirib boring, qozidan pulingizni qistang, qozi mendan uyalganidan pulingizni qaytarib beradi. Siz



chiqqaningizdan so'ng, yigitcha kiradi va nima deyishini o'zi biladi, — debdi.

Ayol ichkariga kirib, qoziga salom beribdi. Qozi yolg'iz o'tirgan ekan, ayolni ko'rib:

— Vaalaykum assalom, keling qizim, keling!

Qanday xizmat bilan keldingiz, hech tortinmay aytavering! — debdi. Ayol qoziga:

— Taqsir, men falon savdogarning xotiniman. Erim savdoga ketganda "mana shu dur solingan qutichaga ehtiyot bo'l, agarda o'zing uyda saqlashga qo'rsang, qozi pochchamga olib borsang, u kishi saqlab beradilar", deb tayinlab ketgan edi. Men bu qimmatbaho durni uyda saqlashdan xavotirlanib, sizga olib keldim, shunga nima deysiz? — debdi. Shunda qozining qulog'i dikkayib, sevinganidan ikki qo'lini uzatib qutini olibdi, ichini ochib durlarga ko'zi tushib, o'pkasini bosolmay:

— Barakalla qizim, aqlingga balli, men bu durlarni jonim bilan saqlab beraman, — debdi.

Xuddi shu paytda eshikdan chol kiribdi. Qozi cholga qarab:

— Ma ol, nokas odam ekansan-da, — deb tokchada turgan tangani xalta-paltasi bilan cholga otib yuboribdi. Chol pulni olganiga sevinib jo'nab qolibdi.

Chol qozixonadan chiqishi bilanoq ayol bilan kelgan bola to'ppa-to'g'ri qozixonaga kirib:

— Aya, aya, pochchamlar keldilar. "Tezda borib kelinoyingni aytib kel", deb sizga yubordilar, yurarmishsiz, — debdi.



Shunda ayol o'ng'aysizlangan bo'lib:

– Taqsir, uzr, kuyovingiz savdodan qaytib kelibdilar, – deb sekin qozidan qutichani olib, bekilibdi-da, qozixonadan chiqibdi. Qozi hayron bo'lgancha, o'tirgan o'rnida qotib qolibdi.

Ayol qozixonadan chiqsa, chol uni kutib turgan ekan. Chol quvona-quvona ayolga:

– Rahmat, qizim, murodingga yet, qo'shganing bilan qo'sha qari, – debdi xayrlashib va qishlog'iga ravona bo'libdi.

AYOLSIZ UYNI KO'R, QARO YERNI KO'R

Qadim zamonda bir boy bo'lgan ekan. Uning bir yaxshi, aqlli xotini bo'lgan ekan. Bir kuni boy xotiniga:

– Davlatimda xo'p davr surayapsanda! Mendan bo'lakka tekkaningda ne kunlarni ko'rarding? – debdi.

– Yo'q, – debdi xotin eriga, – erni er qiladigan ham, qaro yer qiladigan ham xotin.

Xotinining bu gapidan boy darg'azab bo'lib, uyidan haydab yuboribdi. Qorong'i tushib qolgan ekan. Xotin yo'lga chiqibdi-yu, charchab bir daraxtning tagida o'tirib, tunni o'tkazmoqchi bo'libdi. Ancha o'tiribdi. Shu vaqt o'tin orqalagan bir yigit kelib, uning yonida to'xtabdi.

– Hoy, singlim, – debdi o'tinchi, – bemahalda yolg'iz nima qilib o'tiribsan? Uyingga borsang bo'lmaydimi?

– Uyim yo'q, – debdi xotin, – ota-onam juda yoshligimda o'lib ketgan.



— Mening ham bir keksa onamdan bo‘lak hech kimim yo‘q. Men o‘tin terib kun ko‘raman. Yur biznikiga, och bo‘lsak och, to‘q bo‘lsak to‘q yasharsan, — debdi yigit.

Yigit xotinni ergashtirib uyiga olib ketibdi. Xotin ko‘rsaki, o‘tinchining hovlisini ko‘rib bo‘lmas emish: hamma yoq o‘t, ko‘pdan beri supurgi tegmagan. Keksa onaning egnidagi ko‘ylagi kir, yog‘ bosib ketgan ekan.

Xotin hovlini supurib-sidiribdi, kampirni yuvib-tarabdi. Xullas, o‘tinchining uy-joyiga fayz kiritibdi. Buni ko‘rgan o‘tinchining bag‘ri—dili ochilib ketibdi.

O‘tinchi har kuni tergan o‘tinini bozorga olib borib, ikki tangaga sotarkan, bir tangasiga yog‘, bir tangasiga un olib kelarkan. Ona-bola atala qilib yeb kun ko‘risharkan. Xotin o‘tinchinikiga kelgan kunining ertasi, o‘tinchi o‘tin tergani ketayotganida undan iltimos qilibdi:

— Agar bugun ham ikki tangaga o‘tin sotsangiz, bir tangasiga ro‘zg‘or qiling, bir tangasiga ipak bilan do‘ppi tagi olib keling.

Kechqurun o‘tinchi xotin tayinlagan narsalarni olib kelibdi. Xotin ertasi kuni o‘tinchi kelgunicha, chiroyli do‘ppi tikib, bitkazib qo‘yibdi. O‘tinchi uni do‘ppi bozoriga olib boribdi—da, bir yaxshi do‘ppi o‘n so‘m bo‘lsa, uni o‘n besh so‘mga sotib, pulini xotinga keltirib beribdi.

Xotin, kunda yigit o‘tin terib, sotib kelgunicha, do‘ppi tikib bozorga chiqarib sotishga



taxt qilib o'tirarkan. Buning ustiga uy-joyga, qozon-tovoqqa qarashga ham ulgurarkan.

— Endi hunar o'rganing! — debdi xotin yigitga. —Erkak kishiga hunar kerak.

Yigit duradgorlikni o'rganibdi. Ko'p o'tmay yaxshi duradgor ham bo'libdi, uy-joy ham qurib olishibdi.

O'tinchining uyiga kundan-kun fayz kiribdi, topgani oziq-ovqat, kiyim-kechakdan ortadigan bo'libdi. Kampir ham, o'g'li ham ayolni juda yaxshi ko'rib qolishibdi.

Oradan ko'p o'tmay, o'tinchi bilan bu dono ayolning to'ylari bo'libdi, ular baxtiyor hayot kechira boshlashibdi. Davlatlariga davlat qo'shilibdi, baxtlariga baxt. Ularning inoqligi, baxtli yashashi haqidagi ovoza uzoq-uzoqlarga tarqalibdi: "Bir o'tinchi shunaqa badavlat bo'lib ketibdiki, asti qo'yaverasiz ekan". Bir kambag'al o'tinchining dang'illama uyli-joyli, davlatmand bo'lib qolgani haqidagi xabar ayolning avvalgi erining qulog'iga ham yetibdi. "Olamda mendan boyi yo'q", deb kerilib yurgan to'ymas boy bu gaplarni eshitib, o'z ko'zi bilan ko'rib kelish maqsadida o'tinchinikiga kelibdi. Ko'rsaki, ichki-tashqi dang'illama hovli-joy, hovuz atrofida gulzor, hovli yog' tushsa, yalagudek top-toza. Lekin na xizmatchi bor emish, na koranda. Buni ko'rib boy juda hayron qolibdi. Uni o'tinchining o'zi kutib olibdi, yaxshilab ziyofat qilibdi. Boy o'tinchinikida xo'p mehmon bo'libdi, keyin



muddaoga ko'chibdi, uning qanday qilib bunday davlatmand bo'lib ketganini so'rabdi.

— E, nimasini aytay, — debdi o'tinchi unga, — ota-buvamizning "Erni er qiladigan ham, qaro yer qiladigan ham xotin" degan gapi bor edi. Xo'p bilib aytishgan ekan. Erkak kishi bo'la turib, o'tin terib sotib, bir qoshiq atalaga zor bo'lib kun ko'rardim.

Uylandim, xotinim uyimga fayz kiritdi, aqlimga aql qo'shdi, — deb xotining xizmatlariga tan beribdi.

Shu payt boyning ko'zi derazaga tushibdi. Ne ko'z bilan ko'rsin-ki, o'sha o'zi haydab yuborgan xotini hovlidagi gulzorda gul terib yurgan emish. Boyning rangi quv o'chib ketibdi:

— Ey, xom kalla, nimalar qilib qo'yding, — deb peshonasiga bir uribdi.

O'tinchi bilan xotini esa ko'p yillar inoq va baxtiyor umr kechirishibdi.

DONO ZULAYHO

O'tgan zamonda Anvarxon degan bir podsho bo'lar ekan, uning Zulayho degan xotini bor ekan. U donolik olamining malikasi, farosat olamining quyoshi ekan.

Bir kuni qo'shni bir podshodan Anvar podsho huzuriga odamlar kelibdi. Ular:

— Sultonimiz sizdan o'ttizta tulki, qirqta qizil yo'lbars, saksonta serka, to'qsonta to'rg'ay, yuzta tuxum topib yuborishingizni iltimos qildilar, — deyishibdi.

Anvar podsho o'ylanib turib:



— Podsho aytgan narsalarning hammasini ham topsa bo'ladi, ammo qirqta qizil yo'lbarsni qayoqdan topsam ekan, — debdi. Nihoyat, buning chorasini topolmay, dardini xotini Zulayhoga aytibdi. Zulayho eridan bu gapni eshitib qah-qah urib kulibdi.

— Ey, sizning og'ayningiz odamlarning qaysi yoshda, qanday holatda bo'lishini topishmoq qilib aytibdi-ku, — debdi va: — O'ttiz yoshda kishi tulkiday yuradi, qirqida qizil yo'lbars bo'ladi.

Saksonida serkadayin bo'shashib, to'qsonida to'rg'ayday tili tutilib qoladi, yuzga kirgan kishi tuxumday chayqalib yotib qoladi. Bu gaplarni o'sha kelgan kishilarga ayting. Ular podsholari huzurida bu so'zlarimni to'tiday takrorlashsin, — debdi.

Zulayho qo'shni podshoning topishmog'iga ana shunday javob bergan ekan.

Bir kuni Anvar podsho aql va farosat olamining sahiblarini yig'ib, ularga savol tashlabdi:

- Dunyoda hamma narsadan nima shirin?
- Asal! — debdi bir donishmand.
- Qand! — debdi yana bir kishi.

Bu javoblar podshoga ma'qul bo'lmabdi. Qolgan donishmandlar nima deb javob qilishlarini bilmay, o'ylanib turgan ekanlar, shunda ichkarida o'tirgan Zulayho:

- Hamma narsadan ro'zg'or shirin, — debdi.

Shundan keyin Anvar podsho:

- Dunyoda hamma narsadan nima achchiq? —



deb so'rabdi.

– Qalampir, – debdi donishmandlardan biri.

– Zahar, – debdi yana bir donishmand.

Shunda Zulayho yana javob qilib:

– Dunyoda hamma narsadan achchiq narsa ham ro'zg'or, – debdi.

Shundan keyin Anvar podsho:

– Dunyoda hamma narsadan nima semiz? – deb so'rabdi.

– Qo'y, – debdi o'tirganlardan biri.

– To'ng'iz, – debdi yana biri.

– Fil, – debdi uchinchisi.

Ularning hech birining javobi Anvar podshoni qanoatlantirmabdi. Shunda Zulayho:

– Olamda hamma narsadan suv semiz, – debdi.

Bu javob ham hammaga ma'qul bo'libdi. Anvar podsho o'ylab turib yana bir savol beribdi:

– Dunyoda eng yugurik narsa nima?

– Quyon, – debdi bir donishmand.

– Kiyik, – debdi biri.

– It, – debdi yana biri.

– Ot, – debdi to'rtinchi donishmand.

Ularning bu javoblari ham Anvar podshoni qanoatlantirmabdi. Shunda Zulayho:

– Dunyoda eng yugurik narsa odamning ko'ngli, – debdi.

Shunday qilib Zulayho hamma donishmandlardan aqlli chiqqan ekan.



Bir kuni Anvar podsho va Zulayho sayr qilib yurib bir soyga kelishibdi. U yerda suvda o'sayotgan qamishni ko'rib qolishibdi. Shunda:

– Qamish suvga qonyapti, – debdi podsho.

– Yo'q, qamish yomg'irdan bahra olib o'syapti! – debdi dono Zulayho.

Ular yo'lda yana davom etishibdi. Yo'l yurishibdi, yo'l yurishsa ham mo'l yurishibdi. Oxiri otlari chanqab, bir ariqqa kelishibdi. Podsho otini sug'ora boshlabdi. Zulayho esa otini suvga tushiribdi-yu, ammo uning boshini osmonga qayirib turaveribdi. Podsho hayron bo'lib:

– Nimaga otni sug'ormayapsan? – deb so'rabdi.

– Mening otim oyog'idan suv ichyapti, – debdi Zulayho.

– Ot ham oyog'idan suv ichadimi? – debdi podsho.

– Qamish oyog'idan suv ichganidan keyin, mening otim ham oyog'idan suv ichadi-da, – debdi Zulayho.

Anvar podsho bu yerda ham Zulayhodan mot bo'libdi. Anvar podsho bilan Zulayho yo'lda quyunga yo'liqishibdi. Shunda Anvar podsho:

– Zulayho, – debdi.

– Labbay, shohim, – debdi Zulayho.

– Borib so'ragin-chi, bu quyun qayerga qo'nar ekan? – debdi podsho.

Zulayho uzoq-uzoqlarni aylanib, qaytib kelibdi. Shunda Anvar podsho:



– Quyun senga nima dedi? – deb so‘rabdi.

– Qayerga qo‘nasan, desam, "mening yelganimni yel biladi, qo‘nganimni soy biladi. So‘ragan sen tentakmi, so‘ratgan xon tentakmi" dedi, – debdi Zulayho.

Anvar podsho Zulayhodan yana mot bo‘lgan ekan.

PUFAKVOY

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir shahar chetidagi chorbog‘da bir chol bilan kampir bor ekan. Ular halol mehnat bilan, dehqonchilik qilib kun kechirar ekanlar. Chol-kampirning farzandi yo‘q ekan. Shu sababdan ular qattiq qayg‘urar ekanlar. Yillar o‘tibdi, chol-kampir yanada qarib, bellari bukchayibdi, ko‘zlari xiralashibdi, og‘ir ishga yaramaydigan bo‘lib qolibdilar.

– E, kampirim, – debdi kunlardan bir kuni chol, – agar farzandimiz bo‘lganda edi, qo‘limizdan ishimizni olar edi. Juda bo‘lmaganda dastyorlik qilar edi. Endi dunyodan ko‘zimiz ochiq ketadigan bo‘ldi-da.

Kampir uni yupatibdi. Kunlardan bir kun ertalab kampir cholni uyg‘otibdi:

– Turing, chol, – debdi kampir, – o‘g‘illik bo‘lib qoldik.

– Nimalar deyapsan, kampir, qanday o‘g‘il, kimning o‘g‘li? – deb so‘rabdi chol hayron bo‘lib.

– Kimniki bo‘lar edi, o‘zimizning o‘g‘limiz.

Turing, qarang, to‘pday chiroyli, dumaloqqina bola! – debdi kampir.



Chol o'rnidan irg'ib turib qarasa, uyning o'rtasida oyoqlari chillakdek, qorni meshdek bir bola chol-kampirga qarab, tirjayib turgan emish.

Xursand bo'lib ketgan chol bolani quchoqlab bag'riga bosib erkalabdi va unga ot qo'yish to'g'risida kampir bilan maslahatlashibdi. Unga ismi-jismiga munosib bo'lsin deb, Pufakvoy deb ot qo'yibdilar. Shu kundan boshlab chol-kampir Pufakvoyga o'zlari yemagan yaxshi taomlarni yedirib, ichmaganlarini ichirib yuraveribdilar.

Ularning niyati Pufakvoyni tezroq katta qilib, dastyor qilish ekan. Pufakvoy kundan-kunga semirib, qorni katta bo'laveribdi. Chol-kampir uni ko'p erkalatar ekanlar, shu sababdan taltaygan Pufakvoy chol-kampirni mensimaydigan bo'lib qolibdi. Keyingi vaqtlarda Pufakvoy juda ochko'z bo'lib ketibdi, chol-kampirning bergan ovqatlariga qanoat qilmay, ko'ziga nima ko'rinsa "Ho'pla, og'zim" deb yutib yuboraveradigan bo'lib qolibdi.

Bir kuni chol o'g'li Pufakvoyni dalaga qo'sh haydashga olib boribdi. Pufakvoy kechgacha cholga yordamlashibdi. Kechqurun qorni ochib qolib uydagi ovqatga yetib kelishga ham sabri chidamay, "Ho'pla, og'zim" deb birdan qo'sh ho'kizni yutib yuboribdi. Chol: "Ho'kizlar qani?" degan ekan, Pufakvoy: "O'tloqqa haydab yubordim", deb javob beribdi.

Ertasi bozor kuni ekan, chol bir bozor qilib kelay deb, ko'chaga chiqib ketibdi. Cholga qorama-qora Pufakvoy ham bozorga jo'nab



qolibdi. U avval ko'chada bir eshakka minib, bir qancha xo'roz va tovuqlarni bozorga olib kelayotgan kishini ko'ribdi. Pufakvoy: "Shu tovuqlarni olsa, maza qilar edim", deb o'ylabdi. U birdan "Ho'pla, og'zim" deyishi bilan haligi eshakdagi kishi eshak-peshagi va xo'roz, tovuqlari bilan uning og'ziga kirib ketibdi. Pufakvoy qatiq va suzma ko'tarib ketayotgan bir kishiga duch kelibdi. "Ho'pla, og'zim" degan ekan, u kishi ham xaltadagi suzmalari, xurmachadagi qatiqlari bilan Pufakvoyning og'ziga kirib ketibdi. Yana Pufakvoy bozor tomon boraveribdi: u yo'lda ko'ringan hamma narsalarni ochko'zlik bilan yutaveribdi. Qo'y haydab ketayotganlarni ham, mol haydab ketayotganlarni ham, arava-arava yuk olib ketayotganlarni ham, yilqilarni ham, tuyalarni ham odam-podami bilan yutib yuboraveribdi. Oxiri Pufakvoy bozorga yetibdi. Bozor darvozasi oldida turib "Ho'pla, og'zim" degan ekan bozorda hech zot qolmay Pufakvoyning og'ziga kirib ketibdi.

Pufakvoy endi sal-pal qorni to'ygandek bo'lib uyga qaytibdi. Endi Pufakvoyning qorni juda katta gumbazdek bo'lib shishib ketibdi. U shaharning ko'chalariga arang sig'ib uyiga yetib kelibdi, kampir ko'chada katta gumbaz dumalab kelayotganini ko'rib hayron bo'lib qolibdi. U qo'rqqanidan eshikni bekitib, uyga kirib ketibdi.

Pufakvoy eshik yoniga kelib kampirni chaqiribdi, kampir o'g'lim keldi, deb eshikka



chiqsa, haligi gumbaz devordan mo'ralab turgan emish. Kampir yana uyga qochayotgan ekan, Pufakvoy:

— Oyi, men keldim, qo'rqmang, sizni yeb qo'ymayman, qornim to'ydi, bozordagilarni yeb keldim, — debdi. Kampir o'g'li yalmog'iz ekanini sezib qolibdi. Pufakvoyni aldab uxlatish fikriga tushibdi. "U uxlaganda o'zim bilib ishimni qilaman", debdi kampir. Kampir Pufakvoyni silab- siypab, bolam-bo'tam qilib:

— Bolam, qorning to'q bo'lsa ham charchagan-dirsan, senga bir yaxshi joy qilib beray, salqinda bir maza qilib uxlab olgin, sen turguningcha men choy qaynatib, istasang shiringina atala ham pishirib qo'yay, — debdi. Pufakvoy uyga sig'magani uchun ko'chadagi daraxtlar tagida yotmoqchi bo'libdi. Kampir ko'chalarni supurib suv sepibdi, katta kigizni yozib, Pufakvoyga yumshoqqina o'rin solib beribdi. Pufakvoy o'lgudek charchagani uchun darrov yotib uyquga ketibdi. Kampir atalaga olov yoqib, choyidishni qozon yoniga ilibdi, otashkurakni o'choqqa tashlab qo'yibdi. Pufakvoyning yoniga yaqinroq kelgan ekan, uning qornidan: xo'rozlarning qichqirig'i, eshaklarning hangrashi, otlarning kishnashi, tuyalarning bo'kirishi, qo'y, sigir va ho'kizlarning ma'rashi va nihoyat odamlarning qiy-chuvi eshitalayotgan emish. Kampir ko'chalarda hech kim ko'rinmaganidan xavotir bo'lib o'tirgan ekan. Endi hamma voqeani



tushunibdi. "Mening yalmog'iz o'g'lim bozordagi va ko'chadagi hamma narsalarni, odamlarni yutib yuborgan bo'lsa kerak. Men bu bechoralarni Pufakvoyning qornidan chiqarib yuborishim kerak, bo'lmasa shaharda odam qolmaydi", deb o'ylabdi kampir. O'choqdagi otashkurak laqqa cho'g' bo'lganda kampir uni sekin olib kelib, uxlab yotgan yalmog'iz o'g'li Pufakvoyning qorniga bosibdi. Katta gumbazdek qorin to'p otgandek "paq" etib yorilib ketibdi. Uning qornidan chiqqan odamlar hech qanday zarar ko'rmay, sevinishib, kulishib o'z narsalarini olib uylariga tarqalishibdi. Ular orasida chol ham bor ekan.

Chol kampirga o'g'li Pufakvoyning qiliqlarini birma-bir gapirib beribdi. Ikkisi qorni yorilib yotgan o'g'illariga juda achinibdi, Pufakvoyning tepasiga kelib, qarashsa, hali joni bor emish. Pufakvoy sekin ko'zini ochib ota-onasiga yalinibdi:

— Mening qornimni tikib qo'yinglar, bo'lmasa men o'laman, endi tuzalsam, hech kimni yemayman, yaxshi bola bo'laman, so'zingizga kiraman, nima ish buyursangiz qilayin, — debdi.

Chol jarrohga boribdi, jarroh kelib Pufakvoyning qornidagi cho'zilib, katta bo'lib ketgan hamma ichak, tomirlarini kesib tashlab, tikib qo'yibdi. Pufakvoyni chol-kampir yana qirq kun tarbiya qilishibdi. Unga har kuni ozgina-ozgina atala va shirchoy qilib berar ekanlar. Oxiri Pufakvoyning qornidagi yaralari tuzalibdi.



Qirq bir kun deganda u hovlida asta-asta yura boshlabdi, keyin butunlay tuzalib ketibdi. Chol Pufakvoyni dalaga olib borib, unga dehqonchilikni o'rgatibdi. Pufakvoy yaxshi dehqon bo'lib yetishibdi.

Chol-kampir dam olib yotar ekan. Pufakvoy hamma ishni bir o'zi bajarib kelar ekan. U qarib qolgan ota-onasiga qanday mehribon bo'lsa, boshqa odamlarni ham shunday yaxshi ko'rar ekan.

Shunday qilib chol bilan kampir murod-maqсадlariga yetishibdi.

O'TINCHI YIGIT BILAN SHER

Bir yigit dalaga o'tin tergani chiqibdi. Bir daraxt yoniga kelib shu daraxtni yiqitmoqchi bo'libdi. Bir sher kelib qolib:

– E odamzod, nimaga kelding, bu yerda nima ish qilasan? – debdi. U yigit:

– Mana shu terakni qulataman, – debdi.

Sher:

– Men shunday kuchim bilan bu terakni qulata olmayman-ku, sen qanday qilib qulatasan? – debdi.

Yigit:

– Ey, jo'ra, men juda zo'rman, – debdi.

Sher:

– Sen zo'r bo'lsang, kel ikkovimiz kurashib kuchimizni sinaymiz, – debdi. Yigit:

– Mayli, kurashamiz, – debdi. Ikkovi kurashmoqchi bo'lib turganda yigit:



– Kuchimning yarmi uyda qolibdi, borib olib kelay, – debdi. Sher:

– Ha, borib kel, bo'lmasa yiqilsang kuchim uyda qolgan edi, deb tan bermay yurarsan, – debdi.

Yigit kuchini olib kelmoqchi bo'lib ketib, bir joyda ko'rinmay bekinib turib, yana qaytib kelibdi. Sher:

– Olib keldingmi? – debdi.

– Olib keldim, – debdi yigit.

– Unday bo'lsa qani kurashaylik, – debdi sher.

Yana ikkovi kurashmoqchi bo'lib turganda yigit:

– Ey, sher jo'ra, kuchimning tag'in pichasi uyda qolibdi. Olib kelay, – deb ketib, yo'ldan qaytib kelib:

– Sen qochib ketma, – debdi. Sher:

– Yo'q, men qochmayman, sherning gapi bir, – debdi. Yigit:

– Yo'q, senga ko'nglim ishonmaydi. Seni bog'lab ketaman, – debdi. Sher:

– Bog'lay qol, – deb o'zini bog'latibdi. Yigit sherni mahkam bog'labdi. Toldan yaxshi bir tayoq qilib olib kelib gursillatib sherni ura boshlabdi. Sherning: "Jon odamzod, meni urmang, endi odamzodga yo'liqmayman", deb yalinganiga ham qaramay, ura beribdi. Shu payt bir yo'lbars kelib qolibdi. Yigit yo'lbarsdan qo'rqib terak boshiga chiqib ketibdi. Yo'lbars sherning bog'lanib yotganini ko'rib:



— Ey, sher, shuncha kuching bilan nimaga o'zingni odamzodga urdirasan? — debdi. Sher:

— Esing bo'lsa odamzodga yo'liqma. Qoch bu yerdan. Seni ham ushlab, bog'lab uradi, — debdi.

Yo'lbars sherdan bu gapni eshitishi bilan orqasiga qaramay qochib ketibdi. Yigit terak ustidan tushib, sherni bo'shatib yuboribdi. Terakni qulatib, arralab uyiga olib borib, murod-maqsadiga yetibdi.

JOHIL PODSHO VA ABU ALI

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir podsho bor ekan. Uning bir suyukli xotini va bir qizi bor ekan. Podshoning xotini bedavo dardga chalinib, qattiq kasal bo'lib, yotib qolibdi.

Podsho mamlakatning barcha qishloq va shaharlaridan tabiblar chaqirtirib, xotini dardiga davo topishni buyuribdi.

Ularning davolashlari ham, dori-darmonlari ham zoye ketibdi. Bemor hech tuzalmabdi. Uning ahvoli kundan kunga og'irlashib, oxiri dunyodan ko'z yumadigan bo'libdi.

O'lim haq ekanligini tushungan xotin erini chaqirib, unga oxirgi istagini bildiribdi.

— Taqdir ekan, mening hayotim quyoshi botmoqda, men olamdan o'taman, — debdi xotin.
— Siz boshqaga uylanasiz, faqat bir istagim bor: xushaxloq, rahmdil, bolajon va mehribon bir ayolga uylaning, toki u qizimning ko'z yoshini oqizmasin. Podsho va'da beribdi. Xotin dunyodan o'tibdi. Oradan bir necha yillar o'tib ketibdi. Bir kuni qizi podshoga:



– Otajon, nega uylanmaysiz? – debdi.

– Qoʻrqaman, qizim, – debdi podsho. – Uyimizga begona xotin kelib, seni xafa qilib qoʻymasini, deb qoʻrqaman. Agar kelgan ayol sen bilan chiqisha olmasa, men onang ruhi oldida gunohkor boʻlaman. Agarda sen mening uylanishimni juda-juda istasang, unda oʻzing bir xotin top, u sening didingga mos boʻlsin va senga oʻz onangdek mehribon boʻlsin.

– Xoʻp boʻladi, – debdi qiz va otasiga yoqadigan xotin izlab ketibdi. Soʻroqlay-soʻroqlay bir juvonnini topibdi-da, otasini uylantiribdi.

Darhaqiqat, juvon xuddi otasi aytgandek, bagʻrikeng, koʻngli saxiy, barchaga mehribon ayol ekan. Qizni oʻz farzandidek koʻribdi. Ular ona-boladek totuv yashab ketishibdi.

Ammo taqdirni qarangki, bu baxtli va osuda hayot ham uzoqqa choʻzilmabdi. Oradan bir yil oʻtar-oʻtmas bu xotin ham kasalga chalinibdi. Uning oʻng tomoni falaj boʻlib qolibdi. Uning oʻng qoʻl, oʻng oyogʻi ishlamay qolibdi, oʻng koʻzi koʻrmas, oʻng qulogʻi eshitmas ekan.

Podsho bosh tabibni chaqirtiribdi. U barcha tabiblar va shogirdlari bilan maslahatlashib, dori-darmon qilibdi. Lekin hech nafi boʻlmabdi.

Podshoga xabar berishibdi. Podshoning gʻazabi qoʻzib ketibdi.

– Bu qalloblar xalqdan pul undirishni bilar ekanlar, xolos, – deb shovqin solibdi u, – xalqni shilib yeydilar-u, ularning muolajasidan hech kimga naf yoʻq. Ular faqat yarmi kasal boʻlgan



xotini ham tuzata olmabdilar. Bunday bilimsiz tabiblar kimga kerak?! Qirq kun muhlat beraman: yo xotini tuzatishadi, yo mamlakatdan hammasini quvib chiqaraman!

Buni eshitgan tabiblar oyog'i kuygan tovuqday pitirlab qolishibdi. Tabibboshi ularni yig'ib maslahat boshlabdi:

— Bu podshoh bekor gapirmaydi, — deyishibdi ular. — U aytganini qiladi. Bir chora topmasak, bizlarni sarson-u sargardon, xalq oldida sharmandayi sharmisor qiladi. Keyin hech kim bizga kelmay qo'yadi.

Maslahat janjalga aylanib, uzoq davom etibdi. Har biri o'zining gapini ma'qullab, o'zganikini rad etar ekan. Shunday qilib ular uzoq vaqt bir qarorga kelisha olmabdi. Oxiri ulardan biri:

— Falon joyda bir shahar bor. O'sha yerda Abu Ali ibn Sino ismli yosh tabib yashaydi. U tibbiyot ilmini juda yaxshi bilar emish, biz bilmaydigan narsalarning ko'pidan xabardor bo'lsa kerak.

O'shanga odam yuborib, maktub bilan murojaat etsak, ajabmaski, holimizga achinib yordamga kelsa. U, albatta, bu dardning davosini topsa kerak.

— Juda yaxshi, — deyishibdi hammalari.

Shu zahotiyoq xat yozishibdi-da, oralaridan ikki kishini vakil saylab Abu Ali shahriga chopar qilib yuborishibdi.

Maktub borib yetishi bilan Ibn Sino ertasigayoq yo'lga chiqib, shaharga yetib kelibdi.



Tabiblar uni kutib olib, podsho saroyiga olib borishibdi. Ular podsho taxti oldida yer o'pib salom berishibdi va:

– Biz olampanoh zavjiyalarini muolaja etgali keldik, – debdi tabibboshi. – Bergan muhlatingiz qirq kun to'lmasdan burun ayolingizni sog'-salomat ko'rgaysiz, degan umid bilan keldik.

– Inshoolloh, – deyishibdi qolgan tabiblar.

– Anavi navqiron yigit kim? – debdi podsho bir chekkada indamay turgan Abu Aliga ishora qilib.

Men uni birinchi ko'rishim.

– Bu Buxorolik olim Husayn, – deyishibdi ular.

– Xotiningiz dardining davosini shu yigit biladi.

– Xo'p, unday bo'lsa, sizlar nima qilib yuribsiz, barchangiz yo'qoling bundan. Abu Alining o'zi qolsin.

Hammalari chiqib ketishibdi. Podsho avval ham Abu Ali haqida eshitgan ekan. Endilikda esa, shunday donishmand olimning kelganiga o'zida yo'q sevinib ketibdi. Ibn Sinoga alohida uy, ikki xizmatkor va ikki joriya ajratish haqida buyruq beribdi. Ular Abu Alining aytganini darhol bajo keltirishar ekan.

Ikki kundan keyin podsho Abu Alini haramga olib kelibdi. Ibn Sino bemor xotin bilan parda orqasidan suhbatlashib, uning kasali nimada ekanini bilib olibdi va podshoga yuzlanib:



Ne ko'z bilan ko'rsinki, bir erkak kishi xotinini og'ushiga tortayotgan emish. Xotini esa unga qarshi olishayotgan emish.

— Yo Alloh, — deb tomdan sakrab tushibdi podsho. — Men nima qilib qo'ydim?! Sharmanda bo'ldim-ku! Endi bu isnodga qanday chidayman?!

Ammo xotining begona erkakka qarshi olishyotganini o'ylab biroz tinchlanibdi. Birozdan keyin yana o'zini o'zi koyiy boshlabdi: "Sharmandalik evaziga tuzalishining nima keragi bor?! Yo'q, bo'lmaydi, endi u menga harom! Boshqa erkak uni yalang'och ko'rsa-yu, men uni xotin qilsam? Yo'q, endi unday xotin menga kerak emas! Men uni ham, Abu Alini ham o'ldiraman. Har ikkisining ham boshini uzaman!.."

Podsho shunday o'ylar bilan o'z xonasiga kirib ketibdi. Devorda osig'liq qilichini olib, hammomga yuguribdi. Jahl bilan hammom eshigini ochib ichkariga qadam tashlabdi.

Qilich ko'tarib kirgan podshoning vajohatini ko'rgan cho'ri xotin ishning tagiga yetibdi va tezda mo'ylovini yulib tashlab, boshidagi sallasini olib yerga uribdi. Soch o'rimlari yelkasiga tushibdi. Podsho hayron qolib qo'lidagi qilichi tushib ketibdi. Bemor xotin ham hayratidan lol qolibdi. Uchalasi biror so'z deyolmay bir-birlariga qarab turishibdi.

Podsho o'ziga kelgach, tez-tez qadam tashlab hammomdan chiqib ketibdi. To'ppa-to'g'ri



taxtiga borib o'ltiribdi-da, Ibn Sinoni chaqirtiribdi.

— Abu Ali, — debdi podsho, huzuriga tabib yetib kelgach. — Bu nima qilganing? Bu nayrangbozlikning siri nimada? O'takamizni yording-ku!

— Shunday qilmasam bo'lmasdi, shohim, — debdi Abu Ali. — Xotiningiz dardining davosi shul edi. U qattiq hayajon yo qo'rquvga tushmasa, tuzalmas edi. Jufti halolingizni nomahram erkak yalang'och ko'rmasin, deb shunday hiyla ishlatdim. Cho'ri xotinni erkakcha kiyintirib hammomga kiritdim. Mana, bemor xotiningiz shifo topdi.

Podsho o'zida yo'q suyunganidan Abu Aliga behad sovg'alar beribdi, ular orasida ikki g'ulom va ikki kanizak ham bor ekan.

— Yana nima istaysan? — debdi Abu Aliga. — Tila. Barcha istagingni bajo keltiraman.

— Olampanoh, — debdi Abu Ali. — Menga hech narsa kerak emas. Eshitishimga qaraganda, saroyingizda katta kutubxona bor emish. Unda "kimyo", "limyo", "simyo" fanlariga oid kitoblar bor emish. Bu kitoblarda sir ko'p. Arablar bu ilmlarni "Kulluhu sirrun", ya'ni dunyoning "hamma sirlari" deganlar. Menga ruxsat etsangiz, men kutubxonangizga kirib, shu kitoblarni o'rgansam.

Podsho kutubxona kalitini Abu Aliga tutib, debdi:



— Mana ol, borib hammasini o‘qi, xohlaganlaringni yozib ol.

Abu Ali juda sevinib ketibdi. U uzoq vaqt kutubxonadan chiqmay, kitob mutolaa qilibdi, kerak joylarini ko‘chirib, yozib olibdi. Oxiri u har biri ming sahifalik beshta kitobni ajratib olib, rosa yodlabdi va qo‘shimchalar qilib, to‘ldirib, qayta yozib chiqibdi. So‘ngra u podsho huzuriga kelib:

— Shohim, men o‘z shahrimga ketmoqchiman, onam menga intizor bo‘lib kutib o‘tirgandir, ijozat bersangiz u bilan diydor ko‘rishsam, — debdi.

— Yo‘q, — debdi podsho, — sen shu yerda qolib, doim mening yonimda, menga shifokor bo‘lishing kerak.

Abu Ali indamay g‘amgin uyiga yo‘l olibdi. Podshoning qizi bu gapdan xabar topib, otasi yoniga yetib kelibdi.

— Otajon, — debdi qiz, — agar siz Abu Alining bu yerda qolib ketishini istasangiz, uni o‘zingizga kuyov qilib oling.

— Yo‘q, — debdi podsho, — men unday qilolmayman. U sening tenging emas. Unday qilsam a‘yonlar va boyonlar mendan kuladilar.

Podshoning bu gapi Abu Ali qulog‘iga yetibdi va unga qattiq botibdi. U podsho huzuriga bir xizmatkorini yo‘llab debdi:

— Bor, podshoga borib ayt, men bunda turolmayman. Ilm—u fanning qadriga yetmaydigan, nodon, johil amaldorlarni olimlardan yuqori



qo'yadigan podsho qo'l ostida bir kun ham yashay olmayman!

Shu so'zlar bilan xizmatkorini jo'natib, o'zi kechasi shahardan chiqib ketibdi.

Abu Ali qochib ketaversin, endi so'zni podshodan eshiting.

Xizmatkor borib Abu Ali so'zlarini podshoga yetkazibdi. Uning g'azabi qo'zib:

— Boring, o'sha tiliga kuchi yetmagan yaramasni mening huzurimga olib keling! — deb buyuribdi.

Navkarlar yugurib borishibdi. Ammo "Karvon o'tib, manzil huvillab qoldi," deganlaridek, Abu Alidan nom-u nishon topisholmabdi.

— Abu Ali boshqa shaharga qochib ketibdi, — deyishibdi podshoga kelib.

— Nega endi uni qochirdinglar, kim qochirdi! — baqiribdi podsho. — Usiz endi men nima qilaman!

— Biz uning siz bilan achchiqlashib qolganidan bexabar qolibmiz, — deyishibdi mulozimlar. — Uning qochib ketishini xayolimizga ham keltirmabmiz. Agar bilganimizda ushlab qolardik.

Podsho Abu Alini tutish rejalarini o'ylab o'yiga yetolmabdi va qiziga:

— Endi nima qilamiz? — debdi.

— Hoziroq odam yuborib shahrimizdagi hamma naqqosh-musavvirlarni yig'ing, — debdi qiz. — Ularga Abu Alining suratini qirq nusxa chizdiring.



Keyin suratlarni sizning farmoningiz bilan qo'shib barcha shahar hokimlariga jo'natamiz. Ular rasmlarni shahar darvozalariga osib qo'yishadi.

Abu Ali paydo bo'lsa, soqchilar uni tutib, shahar hokimiga topshirishadi. Hokim esa uning qo'l-oyog'ini bog'lab sizga jo'natadi.

— Barakala, qizim! — debdi podsho. — Juda yaxshi tadbir topding.

Podsho qizining aytganini bajo keltiribdi. Ammo do'stlari bu gaplarni Abu Aliga yetkazishibdi. U zudlik bilan podsho qo'l ostidagi shaharlardan o'tib ketibdi.

U qirq kecha-yu qirq kunduz yo'l yurib, Alvand tog'i etaklariga yetibdi. U yerga chodir tikibdi va barcha do'stlari, shogirdlarini taklif qilibdi.

SOHIBJON BILAN AHMADJON

Bor ekan-u yo'q ekan, och ekan-u to'q ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, qarg'a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan, toshbaqa tarozibon ekan, to'ng'iz qassob ekan, qurbaqa undan qarzdor ekan.

Qadim zamonda bir chol bilan kampir bor ekan. Ular juda kambag'al ekan. Bir hovli, unda bittagina chordevordan boshqa hech narsasi yo'q ekan. Choi daryoga borib baliq ovlar, kampir esa birovlarining kirini yuvib, yirtiq-yamog'ini qilar, shu bilan tirikchilik o'tkazar ekan.



— Xo'p, ota! Aytganingizni jonim bilan qilaman, — dedi.

Ota-bola to'rni ko'tarib, daryoga qarab jo'nashdi. Havo sof, hammayoq ko'ngilli, yamyashil o'tlar ko'kargan, parrandalar sayragan, keng daryo suvi to'lib, ko'm-ko'k tusda jimillab oqar edi. Ota-bola daryo yoqalab borib, bir chinorning tagiga yetib to'xtashdi. Chol o'g'liga:

— Ana endi, o'g'lim, shu joyda baliq ovini boshlaymiz, — dedi.

Chol to'rni yozib, suvga tashladi. Birozdan so'ng tortib edi, hech narsa chiqmadi. Yana tashladi. Bir vaqt chol to'rni tortgan edi, to'r vazminlashib qolibdi, torta olmadi: "Sohibjon, kel, bolam, ikkimiz tortaylik!" dedi.

Sohibjon kelib, otasiga ko'maklashdi, ammo ota-bola ham tortib ololmadi. Shunda chol to'xtadi, peshonasidagi terni artib:

— Uh! Charchadim. To'rga juda katta nahang baliq tushibdi, — dedi.

To'rning bir uchini chinorga bog'ladi.

— Sen bir uchini ushlab turgin, men borib yordamga bir-ikkita odam aytib kelayin, — deb to'rning uchini Sohibjonga ushlatib qo'yib, qishloqqa qarab jo'nadi.

Sohibjon daryoning qirg'og'idagi o'tlarni, daraxtlarni, suvning o'ynab oqishini tomosha qilib o'tirar edi. Bir vaqt suvda to'rning ichida bir narsa qimirlaganday bo'ldi. Qarasa, to'rda bitta baliqning bolasi ikki ko'ziga yosh olib, Sohibjonning yuziga termulib, yolvorganday



bo'lib turibdi. Sohibjon uni ko'rib, rahmi keldi. Bu ham menga o'xshagan bola ekan-da, buning ham ota-onasi bordir, keladi, deb yo'lga intizor bo'lib o'tirgandir. Kel, shu baliqni qo'yib yuboray, xursand bo'lib ketsin, deb to'rning ipini qirqib yuboribdi. Baliqcha to'rdan qutuldi, shodligidan Sohibjonning qarshisida aylanib, o'ynab-o'ynab, keyin ko'zdan g'oyib bo'lib ketdi. Bir vaqt ikkita odamni ergashtirib chol yetib keldi. Qarasa, to'r yo'q. Sohibjondan:

— To'r qani? — deb so'radi. Sohibjon:

— E, ota, baliq juda katta baliqqa o'xshaydi, to'rni tortqilab-tortqilab, uzib ketdi, — dedi.

Cholning tarvuzi qo'lidan tushdi. Kelgan kishilar:

— E, chol! Yolg'iz o'g'il olp bo'ladi, olp bo'lmasa, qolp bo'ladi, deyishar edi. Oltmishga kirganingda yig'lab-siqtab topgan o'g'ling, endi senga dastyorlik qiladigan vaqtida, olplik qilmay, katta bir baliqni qochirib qolpli qilib o'tiribdi. Bu bolang shum qadam ekan! — deb cholga ta'na qilib, jo'nab ketishibdi. Cholning dami ichiga tushib ketdi, to uyiga kelguncha o'g'liga gapirmadi. Haligilarning gapi Sohibjonga qattiq botib ketdi. Bu kecha yotdi.

Erta bilan turib otasiga aytdi:

— E, ota! Mening qadamim yoqmadi, kecha ovingiz yurmadi. Menga ijozat bering, o'zimga munosib biror hunar o'rganayin, baxtim ochilsa, qaytib kelib sizning xizmatigingizni qilayin, — dedi.



Chol-kampirning unamaganiga qo'ymay, ulardan oq fotihani oldi, bir xaltada non-u talqon olib, "Yo huv, yo manhu!" deb qishloqdan chiqib ketdi. Chol bilan kampir: "Xudo peshonangni ochsin! Olgin, oldirmagin! Sog' borib, salomat qaytgin!" deb duo qilib ko'zlaridan yoshini oqizib qola berdi.

Sohibjon yo'l yurdi, yo'l yursa ham mo'l yurdi, necha qishloqdan, cho'llardan, ko'llardan o'tdi. Bir joyga borib, charchab, dam olgani o'tirdi. Shu zamon bir tomondan yoshi qirqlarga borgan bir yo'lovchi kelib, Sohibjonning oldida to'xtadi va unga:

— Ma, bolam! Yosh ekansan! Qayerga ketyapsan? — dedi. Sohibjon:

— E, mulla aka! Men safarga ketyapman, — dedi.

Yo'lovchi:

— Ha, bo'lmasa, ikkovimiz birga bo'laylik, men ham safarga ketyapman, — dedi. Sohibjon dilida bu begona odam qanday odam ekan, bir sinab ko'raychi, deb:

— E, mulla aka! Men bir o'tirsam, uch kecha-yu uch kunduz o'tirib qolaman. Unda qanday bo'ladi? — dedi. Shunda yo'lovchi:

— Ha-ha! Sening safaring uzoq safar ekan, — deb yo'lga qarab ketaverdi.

Sohibjon damini olib, yana yo'lga ravona bo'ldi. Yo'l yurdi, yo'l yursa ham mo'l yurdi. Charchaganda yana bir joyga borib, damini olib



o'tirdi. Shunda yana bir yo'lovchi kelib qoldi. U Sohibjonni ko'rib:

— Ha, uka! Senga yo'l bo'lsin? — dedi. Sohibjon:

— Yo'l bo'lg'ay! Safarga ketyapman, — dedi.

Yo'lovchi aytdi:

— Men ham safarga chiqib edim. Bo'lmasa, ikkovimiz hamroh bo'laylik!

Sohibjon aytdi:

— Aka! Men bir o'tirsam, yetti kecha-yu yetti kunduz o'tirib qolaman. Unda nima bo'ladi? — dedi. Yo'lovchi Sohibjonga boshdan-oyoq tikilib qo'ydi-da:

— E, uka! Sening safaring uzoq safar ekan! Yo'limdan qolmayin, — deb jo'nab qoldi.

Sohibjon damini olib, o'zini rostlab, xaltasini yelkasiga ilib, yana yo'lga tushdi. Yo'l yurdi, yo'l yursa ham mo'l yurdi. Borib bir joyda ikki ayrilish ko'cha boshidan chiqib qoldi. Shu yerda dam olay deb o'tirdi. Shunda narigi ko'chadan bir yosh yigit kelib qolib:

— Assalomu alaykum! Ha, oshna! Yo'l bo'lsin? — dedi. Sohibjon:

— Vaalaykum assalom! Safarga! — dedi. Yosh yigit:

— Oshna, men ham safarga chiqqan edim. Hamroh bo'laylik! — dedi.

Sohibjon aytdi:

— E, oshna! Men bir o'tirsam, qirq kecha-yu qirq kunduz o'tirib qolaman. Unda nima bo'ladi? Siz yo'ldan qolasiz-da!



Yo'lovchi yigit aytdi:

— Ha, mayli, oshna! Men ham o'tirsam, sizdan kam o'tirmayman.

Sohibjon dilida o'ylab: "Bu yigitcha qaynasa qoni qo'shiladigan ko'rinadi. Mayli, shu bilan hamroh bo'lsam, bo'layin", deb:

— Bo'pti, oshna! Hamroh bo'lamiz, — debdi va ikkalalari dam olib gaplashib o'tirishdi. Bular bir-birining otini so'rashdi. Sohibjon:

— Mening otim Sohibjon. Sizning otingiz nima? — dedi. Bola:

— Mening otim Ahmadjon. Sizning yoshingiz— chi? — dedi. Sohibjon:

— Yoshim o'n oltida, sizniki—chi? — dedi.

Ahmadjon:

— Mening yoshim o'n beshda.

— Bo'lmasa ikkovimiz aka-uka bo'laylik, — dedi. Sohibjon aka, Ahmadjon uka bo'ldi. Sohibjon xaltasidan bitta nonni olib, o'rtasidan teppa-teng bo'ldi. Bir bo'lagini Ahmadjonga berib, "Nima topsak, o'rtada baham ko'ramiz", deb so'zlashdi. Nonning yarmini u, yarmini bu yedi. Shu bilan ikkovlari yo'lga ravona bo'lishdi.

Bular yurib-yurib bir mamlakatga yetib borishdi. Shaharni aylanib yurishganda bozorda bir odam: "Ho, xaloyiq! Eshitmadim dema! Shahrimizning katta boyi madrasa quradi. Yer o'ygani, loy qilgani, g'isht quygani, devol urgani, yog'och chopgani, torn yopgani odam



kerak. Xohlaganlar boraversin!" deb jar chaqiryapti.

Sohibjon Ahmadjonga qarab:

— Uka! Biz ham o'sha joyga borsak, ishlasak.

Ham kunimiz o'tadi, ham biror hunar o'rganib olamiz, — dedi. Bu gap Ahmadjonga ma'qul bo'ldi. Ikkisi borib, boy solayotgan madrasaga ishga kirishdi. Bular ishboshiga:

— Bizga o'zimizga munosib ketmon va belkurak bering, birimiz loy qilamiz, birimiz g'isht quyamiz, — deyishdi. Ishboshi bularga ketmon bilan belkurak berdi. Bular:

— Bu asboblar bizga kichkinalik qiladi. Bizga kattaroq ketmon va belkurak qildirib bering, — dedi. Ishboshi temirchiga aytib, kattaroq ketmon va belkurak qildirib berdi. Sohibjon bilan Ahmadjon yer qazib, loy qilib, g'isht quygani kirishdi. Ikkisi o'nta azamat yigitning ishini qildi. Oradan bir oy o'tdi, bozor kuni keldi. Ahmadjon:

— Aka, bugun ishboshidan pul olib, bir bozorni tomosha qilib chiqmaymizmi? — dedi. Ikkovlari ishboshidan pul olib, bozorga yurdi.

Bozorda hamma narsa bor, ho'l-quruq mevalarni sotib olib yeb, chiqib ketishdi. Bularning ishtahasiga bozor odami hayron qoldi. Aka-ukalar yana bir qancha ishlab, ko'p odamning ishini qilishadi.

Bularning dong'i hamma yoqqa ketadi, Qoraxon podshoga borib yetadi. Qoraxon podsho hayron qolib:



– Bu qanday azamat yigitlar ekan, chaqirib bir gaplashay, – dedi. Qoraxon podsho yigitlarga odam yubordi. Podshoning odamlari otlarini minib, ikki kun yo'l yurib, bu joyga yetib kelishdi va yigitlarga:

– Sizlar azamat yigitlar ekansiz, bizning podshohimiz sizlarni ko'rib, bir gaplashishni istaydi. Borsalaring, podshoh bilan gaplashsalar, xizmat qilib ko'nglini olsalar, davlat egasi bo'lsalar, qanday bo'larkan – dedi. Aka-uka "Borsakmi, bormasakmi?" deb maslahatlashishdi.

Borishga qaror qilib yo'lga tushishdi. Borib Qoraxon podshoga duch kelishdi. Podsho:

– Sizlar azamat yigitlar ekansiz. Bir go'zal qizim bor. Uch shart qo'yaman, agar bajarsangiz, ikkingizdan biringizga qizimni beraman, yana biringizni davlatga ega qilaman, – dedi. Yigitlar:

– Ayting shartingizni! – deyishdi.

Podsho aytdi:

– Mening bog'imda bitta ajdarho paydo bo'lib qoldi. Har yeganda bitta bo'yi yetgan qizni yeydi.

Endigi navbat mening qizimga yetdi. Hozir qizim bog'da, ajdarning yeyishini kutib o'tiribdi. Birinchi shartim – o'sha ajdarni o'ldirasiz. O'sha bog'da bir tup olmurut bor. Olmurut har yili meva qiladi, ammo pishay deganda bir dev kelib yeb ketadi.



Ikkinchi shartim – o'sha devni o'ldirish. Uchinchi shartim shuki, mening shahrimga suv kelmaydi. Borib daryodan suv chiqarib berasizlar.

Yigitlar podshoning qo'ygan shartlarini bajarishga rozi bo'lishdi. Bolalar podshoga:

– Bizga ochilsa qirq gaz, yopilsa bir gaz bo'ladigan qilich; uzunligi qirq qarich, eni ham qirq qarich keladigan ketmon bilan belkurak qildirib berasiz, – deyishdi. Podsho bu narsalarni yasashni temirchi ustasiga buyurdi. Temirchi ustalar narsalarni darrov yasab berishdi. Yigitlar qilichni ko'tarib podshoning bog'iga borishdi. Ajdarni qaysi birimiz o'ldiramiz deb, maslahatlashishdi. Sohibjon:

"Men o'ldiraman!" dedi. Ahmadjon: "Yo'q, aka! Xizmat kichkinadan bo'ladi. Men o'ldiraman!" deb unamay, qilichni ko'tarib, bog'ga kirib ketib qoldi. Borib ajdarga ro'para bo'ldi. Ajdar Ahmadjonni ko'rib qahri kelib, bir damiga tortdi. Ahmadjon bir tebranib qo'ydi. Ajdar yana damiga tortdi, Ahmadjon yana bir tebranib qo'ydi. Oxiri ajdar g'azab bilan damiga qattiq tortdi. Ahmadjon qilichini yozib, miltiqning o'qiday borib, ajdarning og'zidan kirib, ikkiga yorib dumidan chiqdi. Ajdar o'ldi. Ajdarga tutqun bo'lib, o'limini kutib, ko'zidan yoshlari tizilib o'tirgan podshoning qizi ozod bo'ldi.

Bu xabar birpasda shaharga tarqaldi. Hamma joyda xursandchilik, to'y ustiga to'y boshlanib ketdi. Hamma bu yigitlarni duo qildi.



Sohibjon bilan Ahmadjon ketmon va belkurakni olib daryoga borishdi. Borishsa, shaharga suv chiqaramiz, deb qancha yuz odam kuyib-pishib ishlayapti, suvning chiqishidan hech umidlari yo'q. Bular odamlarga:

— E, xaloyiq! Ajdar o'ldi, shahar shodlikka to'ldi. Boringlar, shodliklaringni qilinglar. Suvni biz o'zimiz chiqaramiz, — deyishdi.

Odamlar bulardan xursand bo'lib, ketgani ketdi, ketmagani bularning ishini tomosha qilgani qolishdi.

Aka-ukalar necha daraxtni kesib, daryoga sepoya tashlab, shox bosishdi. Shoxlarning ustidan ketmon-u belkurak bilan chimlarni qirqib tashlab, daryoni bo'g'ib suvni chiqarishdi. Suv oqib borib, Qoraxon podshoning shahriga kirdi. Podsho bu ishni ko'rib:

— Barakalla, azamatlar! Endi uchinchi shartni ham bajarsalaring to'y-u tomoshani boshlaymiz, — dedi.

Sohibjon olmurutning tagidan chuqur qazib, unga tushib, olmurutning pishish, devning kelish vaqtini kutib yotaveribdi. Olmurut pishdi. Bitta katta bahaybat dev kelib, olmurutni yeyishga kirishdi. Shunda Sohibjon chuqurdan chiqdi.

Qilichini yozib borib, devni chopib o'ldirdi. Podsho xursand bo'lib, yigitlarga ofarin aytib, peshonalaridan o'pdi:

— Endi qizimni qaysilaring olishlaringni ayting— lar, — dedi. Sohibjon:



– Xizmatning ko‘pini Ahmadjon qildi. U olsin! – dedi. Ahmadjon aytdi:

– Yo‘q, podshohim! Yosh xizmatda, katta izzatda. Sohibjon mendan katta, u olsin! – dedi.

Qizni Sohibjon oladigan bo‘ldi. Podsho shaharda to‘yni e‘lon qilib, boshlab yubordi. Karnay-surnaylar chalindi, mol-qo‘ylar so‘yilib, xalqqa osh-non tortildi, uloq, kurash, o‘yin-kulgi qizib ketdi. To‘y qirq kecha-yu qirq kunduz davom etib tugadi.

Bir kuni kechasi Ahmadjon:

– Aka, men bugun eshikka chiqib yotaman, yangam menga eshikka joy qilib bersin, – dedi.

Sohibjon: "Uyda yota bergin!" dedi. Ahmadjon unamadi. Eshikka joy soldirib yotdi. Kechasi el uxlagan vaqti edi. Uchta to‘tiqush uchib kelib, hovlidagi chinorga qo‘ndi. To‘tilardan bin aytdi:

To‘tiyo, to‘tiyo!

Labbay, to‘tiyo!

Men nima bo‘lsam-u,

Bir yaxshi ot bo‘lsam.

Bir g‘ishtning ustida o‘ynasam,

Bozorga chiqsam,

Kimga yarashur?

*Podshohning kuyovi Sohibjonga
yarashur.*

Olsa-yu o‘lsa.

Kim eshitib aytsa,

Tizzasidan tosh bo‘lsin!!!

Ikkinchi to‘ti aytdi:



*To'tiyo, to'tiyo!
Labbay, to'tiyo!
Men nima bo'lsam?
Bir yaxshi qush bo'lsam.
Bozorga chiqsam,
Kimga yarashur?
Podshohning kuyovi Sohibjonga
yarashur.
Olsa-yu o'lsa,
Kim eshitib aytsa.
Belbog'idan tosh bo'lsin!!!*

Uchinchi to'ti aytdi:

*To'tiyo, to'tiyo! Labbay, to'tiyo!
Men nima bo'lsam?
Bir ajdarho bo'lsam-u
Shamol, bo'ron, to'polon bilan kelsam.
Tuynukdan tushsam-u
Sohibjon bilan xotinini yeb chiqib
ketsam!!! —*

dedi-yu pastga qaradi. Pastdagi Ahmadjonga ko'zi tushdi-da, qah-qah urib kulib yubordi. To'tilar uchib ketishdi. Ahmadjon bularning gapini eshitdi. Erta bilan Ahmadjon va Sohibjon nonushta qilib bozorga chiqishdi. Bozorda birov ajoyib bir ot ushlab turibdi:

*Kimga yarashur
Podshohning kuyovi Sohibjonga
yarashur.*

Sohibjon otni ko'rib, ishqiboz bo'lib qoldi. Sotib olishga xaridor bo'ldi. Ahmadjon aytdi:



— E, aka! Men oldin bu otni tekshirib ko'rayin. Menga yoqsa, so'ng olasiz, — dedi. Sohibjon "Mayli, uka!" dedi.

Ahmadjon otning beliga uzugini tekkizgan edi, otning beli shart uzilib ketdi. Sohibjon ichidan achinib qo'ydi. Bular bozorda yurgan edi. Birov bir qush ko'tarib yuribdi.

*Kimga yarashur,
Podshohning kuyovi Sohibjonga
yarashur.*

Sohibjon qushni ko'rib, sotib olish uchun xaridor bo'ldi. Ahmadjon aytdi:

— E aka! Bu qush menga yoqsa olasizmi? — dedi. "Ha olaman!" dedi Sohibjon.

Ahmadjon qushni qo'lga olib, uzugini bo'yniga tegizgan edi, qushning bo'yni uzilib tushdi. Buni ko'rib, Sohibjon bir achinib qo'ydi. Bular bozorni ko'rib uylariga qaytib kelishdi.

Kechasi Ahmadjon aytdi:

— Aka! Men bugun o'choqning oldida yotaman, — dedi. Sohibjon:

— O'choqning oldida nima qilasan, o'z o'rningda yota bersang-chi! — dedi. Ahmadjon:

— Mayli, men bu kecha shu yerda yotayin, — deb o'choqning oldiga joy soldirib yotdi. Qilichini yozib, tuynukka tikka qilib qo'ydi. Kechasi el uxlagan choq edi. Birdan shamol, bo'ron,



to‘polon bilan bir ajdar kelib, tuynukka o‘zini urdi-yu qilichga tegib ikki bo‘linib o‘lib qoldi.

Shunda ajdarning bir tomchi qoni borib, podshoning qizining betiga tom-di. Ahmadjon yugurib borib doka ro‘molini oldi, yetti qavat qilib buklab, kelin oyisining yuziga qo‘yib, haligi qonni artayotgan edi, Sohijjon uyg‘onib, o‘rnidan turib, g‘alva qilib ketdi:

– Podshoning qizini olgin desam olmading! Bu nima qilgan ishing? Kechadan beri joyingni boshqa yerga soldirishing bejiz emas ekan. Sen mening uylanganimdan norozi ekansan! – dedi. Ahmadjon:

– E, aka! Gap unday emas. Men juda roziman. Boshqa gap bor. Erta bilan aytaman, – dedi.

Bular tinchib yotib uxlashdi. Ertasi tong otdi. Kelin dasturxonni yozib, choy-nonni keltirdi. Nonushta qilayotib, Sohijjon yana gap ochib qoldi:

– Xotinni sen ol desam, olmading. Mana endi rashk qilyapsan! – dedi. Ahmadjon aytdi:

– Aka! Rashk qilganim yo‘q. Endi gapirmasam bo‘lmaydi. Kechasi men hovliga chiqib yotganimda chinorga uchta to‘ti kelib qo‘nib, bir-biri bilan gaplashdi. Biri aytdi:

To‘tiyo, to‘tiyo!

Labbay, to‘tiyo!

Men kim bo‘isam?

Yaxshi bir ot bo‘lsam,

Bitta toshning ustida o‘ynasam.



*Bozorga chiqsam,
Kimga yarashur?
Podshohning kuyovi Sohijbonga
yarashur.
Otsa-yu o'lsa!
Kim aytsa,
Tizzasidan tosh bo'lsin! —*

degan edi Ahmadjonning tizzasidan pasti tosh bo'lib qoldi. Buni ko'rib, Sohijjon bilan xotini hayron bo'lib qolishdi. Ahmadjon: "Ikkinchi to'ti..." deb gap boshlagan edi, Sohijjon: "Gapirma! gapirma!" deb to'xtatdi. Ahmadjon aytdi:

— Bo'lar ish bo'ldi. Endi u yog'ini ham ayta qolay! — deb ikkinchi to'tining gapini aytgan edi, belidan buyog'i tosh bo'lib qoldi. Uchinchi to'tining gapini aytgan edi, hamma yog'i dumaloq tosh bo'lib qoldi. Er-xotin yig'lashib, endi nima qilamiz, deb toshni ko'tarib, ko'chaga chiqishgan edi, hassa tayangan bir mo'ysafid odam kelib qoldi.

— Ha, bolalarim! Nimaga yig'laysizlar? — dedi.

Sohijjon cholga bo'lgan voqeani aytdi. Chol Xizr edi. "Toshni yerga qo'y", dedi. Sohijjon yerga qo'ydi. Xizr hassasi bilan bir turtgan edi, tosh yana Ahmadjon bo'lib qoldi. Ahmadjon bir chuchkurdi-da, "Qattiq uxlab qolibman", deb o'rnidan turdi.

Bular juda xursand bo'lishdi. Shunda Ahmadjon aytdi:



— Aka! Sizniyam ota-onangiz bordir, mening ham ota-onam bor. Ular bizga intizor bo'lib, yo'limizda ko'zlari to'rt bo'lib o'tirishgandir. Endi ota-onamizning oldiga borsak, — dedi. Bu gap Sohibjonga ham ma'qul bo'ldi. Bular podshoning oldiga borib unga arz qilishdi.

— E, podshoh! Biz sizning ko'p tuzingizni ichdik, oz xizimatingizni qildik. Bizning ham ota-onamiz bor. Ularning xizmatini qilish bizga ham farz, ham qarz. Ular bizga intizor bo'lib o'tirishgandir. Bergan tuzingizga rozi bo'lib, javob bersangiz! Ota-onamizning xizmatiga borsak! — deyishdi.

Podsho o'ylab qarasa, ularning gapi to'g'ri. Podsho ularga ijozat berdi. Shunda Sohibjon:

— Qizingiz men bilan birga ketadimi, qoladimi? — dedi. Podsho:

— Er qayerda bo'lsa, xotin ham o'sha yerda bo'ladi, — dedi.

Podsho ularga qirq xachirga mol-u dunyo va yo'l ozig'ini ortib berib:

— Sizlarga oq yo'l! O'z yurtlaringga sog'-salomat boringlar. Bizni ham unutmanglar! — dedi. Shahar odamlari ularni karnay-surnay bilan jo'natib, xayrlashib qoldi.

Ular yo'l yurishdi, yo'l yurishsa ham mo'l yurishdi. Bir kuni bir daryoning bo'yiga yetib borishdi. Shunda Ahmadjon aytdi:

— Aka! Endi men sizlar bilan xayrlashib, boshqa yoqqa ketaman. Siz boshda nima ahd qilgan edingiz? — dedi. Sohibjon:



– Nima topsak, o'rtada teppa-teng ko'ramiz, degan edim, – dedi. Sohibjon:

– Bo'lmasa, mayli, narsalarni bo'laylik. Mol-dunyoning ko'pini sen ol, xotin menga qolsin, – dedi. Ahmadjon:

– Yo'q, aka, mol-dunyoni ham, xotinni ham teppa-teng bo'lamiz. Yarmi sizniki, yarmi meniki, – dedi. Sohibjon:

– Xotinni qanday qilib bo'lamiz? – dedi.

Ahmadjon:

– Xotinni chinorga bog'laymiz, arra bilan arralab, teng bo'lamiz, xohlaysiz yuqorisini olasiz, xohlaysiz pastini olasiz, – deb xotinni chinorgabog'ladi. Arrani qo'lga olib, arralay boshladi. Endi arra tekkanda xotin "dod!" deb qichqirib yubordi. Shunda xotinning og'zidan mushtday laxta qon otilib chiqib ketdi. Ahmadjon arrani tashlab yugurib borib, qonni oyog'i bilan tepkilab, ezib tashladi. Qaytib kelib, Sohibjonga aytdi:

– Aka! Men kechasi xotiningizning betiga dokani qo'yib artayotganimda shu qonni olib tashlamoqchi bo'lgan edim. Siz yo'l bermagan edingiz. Mana endi xotiningiz zarardan musaffo bo'ldi. Xotiningiz va bu mol-dunyolar sizga bo'lsin. Siz bu narsalarni ota-onangizga olib borib, ularni rozi qiling. Mendan rozi bo'ling. Men bir vaqtlar siz to'rdan chiqarib, ozod qilib yuborgan baliq bo'laman, – deb akasini quchoqlab bir o'pdi-da, "Xayr endi!" deb cho'lp etib o'zini suvga tashlab, g'oyib bo'ldi.



Sohibjon baliq tushgan suvning betidan jimilagan halqa-halqa to'liqlar yoyilib, bilinmay ketguncha ko'zini uzolmay turib qoldi. Keyin suvdan ko'zini oldi. Baliqning qilgan yaxshiliklaridan xursand bo'lib, undan ajralganiga afsuslanib, xotini bilan qishloqqa kirib bordi. Borsa ota-onasi Sohibjon uchun qon yig'lab, bag'rini zaxga berib yotishgan ekan. Sohibjon kirib borgach, ikkalasining ko'zlari yalt etib ochilib, o'g'illarini quchoqlab, o'pib qaytadan dunyoga kelganday bo'lishdi. Sohibjon bo'lib o'tgan hamma voqeani gapirib berdi.

— Mana bu kelingiz, mana bu mol-dunyo esa sizlarga olib kelgan sovg'alarim, — dedi.

Chol bilan kampir yugurib borishib, kelinlarini quchoqlab o'pishdi. Qayerga o'tkazishni bilmay shoshilishdi. Ota-ona o'g'il va kelin bilan topishib, rohatda kun o'tkazib, hammalari murod-maqsadlariga yetishdi.

BIR XUMCHA OLTIN

O'tgan zamonda bir aqlli chol bor ekan. Cholning oldinma-keyin tug'ilgan uch o'g'li bor ekan, o'g'illarining kattasi yigirma yoshda, o'rtanchasi o'n sakkiz yoshda va kichkinasi o'n olti yoshda ekan. Kunlardan bir kuni chol kasal bo'libdi, kasali kundan-kunga og'irlashibdi, cholning kasaliga tajribali tabiblarning ham, azayimxon mullalarning ham dori-davosi, damnafasi ta'sir qilmabdi. Chol endi o'lar ekanman, deb dunyodan ko'ngil uzibdi va bolalarini chaqirib ularga insofli, vijdonli bo'lishni, halol



kasb bilan kun kechirishni, birovning molidan hazar qilishni va yana bir qancha vasiyatlarini qilibdi-da, ularga chiqib ketish uchun ruxsat beribdi, keyin ularni bir-bir chaqirib, hammasiga bir sirni aytibdi.

Avval katta o'g'lini chaqirib:

– O'g'lim, bog'dagi olmaning tagiga bekitib qo'ygan bir xumcha oltinim bor, bu darddan mening qutulishim qiyin. Ukalarim ham yosh, ular hali pul nimaligini bilmaydi, sen katta yigit bo'lib qolding, har narsaga aqling yetadi, shu xumchadagi oltinni olib, ukalarim katta bo'lib qo'lidan ish kelguncha ularga yordam qilib tur. Mening o'rnimga ularga ota bo'l, – debdi.

Cholning katta o'g'li otasidan minnatdor bo'lib chiqib ketibdi va o'zicha:

– Otam ukalarimga qaraganda meni ko'proq yaxshi ko'rar ekanlar bu sirni yolg'iz menga aytdilar, – deb xursand bo'libdi.

Chol o'rtancha o'g'lini chaqirib:

– O'g'lim, bog'dagi olmaning tagiga bekitib qo'ygan bir xumcha oltinim bor. Akang katta, uning qo'lidan ish keladi, u endi o'z nonini topib yeydi, ukang hozir kichkina, u pulning nimaligini bilmaydi, sen shu oltinni olgin, akang bilan ukangga yordam qilib tur, akangning so'zidan chiqma, uni mening o'rnimda ko'r, hurmat qil, ukangga yaxshi tarbiya beringlar, uni o'qitinglar, – deb uni ham chiqarib yuboribdi. Bu ham: "Otam meni akamdan ham, ukamdan ham yaxshi ko'rar ekanlar, bekitgan



dunyolarini faqat menga aytdilar", deb xursand bo'libdi.

Chol eng keyin kenjatoyini chaqirib:

— Bolam mening dardim yomon. Bog'dagi olmaning tagiga ko'mib qo'yilgan bir xumcha oltin bor. Akalaring endi o'z nonini topib yeyishi mumkin, endi ularning qo'lidan ish keladi, ularga qaraganda sen hali yoshsan, hozircha sening qo'lingdan ish kelmaydi, shu pulni sen olgin, akalaringga yordam qilib turgin, ularning gapidan chiqma, o'qigin, ahil bo'lib yashanglar! — deb unga ham ruxsat beribdi. U ham: "Otam akalarimga qaraganda meni ko'proq yaxshi ko'rar ekanlar, bu sirni ularga aytmasdan yolg'iz menga aytdilar", deb xursand bo'lib, otasining oldidan chiqib ketibdi. Oradan ikki kun o'tgach, chol o'libdi. Uni ko'mishibdi. Oradan bir hafta o'tgach, katta o'g'il o'rtanchasini chaqirib, undan:

— Nima uchun xafa ko'rinasan, bir narsa bo'ldimi yo bir joying og'riydimi? — deb o'smoqchilab so'rabdi. O'rtancha esa:

— Hech narsa bo'lgani yo'q, otamizning o'limlari uchun faqat men emas siz ham xafasizda, — debdi. Akasi ukasidan:

— Otam o'lish oldidan meni chaqirib bog'dagi olma tagiga ko'mib qo'yilgan bir xumcha oltin bor, sen shu oltinni ol, degan edilar, kaviyab qarasam, oltinlar yo'q. Mabodo dadam senga ham aytgan bo'lsalar shu oltinni sen oldingmi? — deb so'rabdi.



— Haqiqatan dadam menga ham aytgan edilar, men ham kavlab hamma yoqni titib yubordim, yo‘q. Aka men sizga to‘g‘risini aytayotirman, — deb javob berdi o‘rtanchasi.

— Unday bo‘lsa, kenjaga ham aytgan bo‘lsalar kerak. Bor, ukangni chaqirib kel, — debdi.

Mehmonxonaga o‘rtanchasi bilan kenja oldinma-ketin kirib kelibdilar, kattasi ularga o‘tirishni buyuribdi. Kenjadan olma tagida ko‘milgan xumchani so‘rabdi. Kenja ham o‘rtanchaga o‘xshab, dadasi unga ham aytganini, u ham borib kavlab topolmaganini aytibdi. Katta o‘g‘il o‘ylab turib:

— Yo‘q, ukalarim, otam bizni aldamagan, shu pulni uchalamizdan birimiz olganmiz. Agar sizlar iqror bo‘lmasanglar qoziga boramiz, u albatta topib beradi. Ertagacha sizlarga muhlat - o‘ylab ko‘ringlar, — debdi va uchovlari tarqalishibdi.

Ertasi kun ertalab uchovlari qozixonaga qarab yurishibdi. Shu shaharda tajribali bir qozi bor ekan. Aka-ukalar shu qozining oldiga kiribdilar, unga ta‘zim qilib turibdilar, qozi ularga joy ko‘rsatib, o‘tirish uchun ruxsat bergach, o‘tirishibdi. Qozi keluvchilarga qarab:

— Kelinglar, bolalarim, qanday xizmat bilan keldinglar? Marhamat, xizmatlaringga tayyorman, — deb muloyimlik bilan murojaat qilibdi.

Kattasi o‘rnidan turib:



– Iltifotingiz uchun rahmat, arzimagan bir janjal bilan oldingizga kelgan edik. Mumkin bo'lsa aytar edik, – deb qoziga ta'zim qilibdi.

Qozi ishora qilgach, kattasi:

– Biz uchalamiz tug'ishgan aka-ukalarmiz, shu shaharning falon mahallasida turamiz. Bundan olti kun muqaddam otamiz vafot etdilar, o'limlaridan bir kun burun bog'imizning bir joyiga ko'milgan bir xumcha oltin to'g'risida har birimizni alohida- alohida ogohlantirdilar. U kishining vafotlaridan keyin har birimiz shu joyni borib kavlab pulni topa olmadik. Otamiz bizni aldamasalar kerak. Pulni shu uchalamizdan birimiz olganmiz, lekin hozircha iqror bo'lmasdan turibmiz. Sizning o'tkir tajribangiz shu narsani olgan odamni iqror qildirar, deb ishonib keldik, – deb so'zini tamom qilib o'tiribdi.

Qozi bolalarning oldiga dasturxon yozdirib, har xil noz-u ne'matlar qo'ydiribdi va ovqatga taklif qilibdi. O'zi bularga bir hikoya aytmoqchi bo'libdi.

– Ilgari zamonda, – deb so'z boshlabdi qozi, – bir yigit, bir qiz bilan gaplashib yurar ekan. Bular bir maktabda o'qib yurgan davrda bir-birlariga muhabbat qo'ygan, maktabni bitirgandan keyin ham aloqani uzmay tez-tez ko'rishib turishgan, ikkalasi turmush qurishmoqchi bo'lgan ekan. Yigit qiznikiga sovcilar yuborgan, qizning ota-onasi qizini bu yigitga bermasdan boshqa bir yigitga bermoqchi



bo'lgan. To'y yaqinlashgach, qiz yigitning oldiga kelib:

– Meni kechirasiz, taqdirimiz qo'shilmagan ekan, otam bilan onam rozi bo'lmagach, men bilan sizning qo'limizdan nima ham kelar edi. Shu urf-odat, qoida va qonunlarga bo'ysunmasdan ilojimiz bormi, bir narsa deb qarshilik qilsak ikkalamizni ham toshbo'ron qilishadi. Bizlardan keyin balki o'z erkiga o'zi egalik qiladigan zamonlar ham kelar, men siz bilan xayrlashgani keldim, – degan ekan.

Yigit qizga:

– Gapingiz to'g'ri, lekin mening sizdan bir iltimosim bor, agar shu iltimosimni bajarishga va'da bersangiz aytaman va shundan keyin siz bilan xayrlashaman, bo'lmasa o'zingiz bilasiz, – debdi. Qiz:

– Ayting, agar qo'limdan kelsa, albatta bajaraman, – debdi. Yigit:

– Nikoh kuni kechasi to'yingizning hamma marosimi o'tgach, mening oldimga bir kelasiz, shunda siz bilan xayrlashaman, – debdi. Qiz ham "Xo'p", deb va'da beribdi.

To'y bo'lib, qizni nikohdan keyin kuyovnikiga olib ketishibdi, kelinni o'sha vaqtning urf-odatlarini bilan yasatilgan uyga olib kelishib to'y marosimini ado etishgach, uyni chet kishilardan xoli qilib, kuyovni kirgizishib, boshqalar tarqalishibdi.



Kuyov kelinning oldiga kelib, ikkalasi gaplashib o'tirganda kelin xayol surib turgan ekan, kuyov kelindan:

— Nega siz xafa ko'rinasiz, biz ikkalamiz uchun bugun shodlik kuni-ku? — deb xafalik sababini so'rabdi.

Gaplashib yurgan yigit bilan ikkalasining o'rtasidagi yoshlik vaqtdan do'stlikni, otasi qizni u yigitga bermasdan hozirgi kuyovga berganini, bundan bir hafta ilgari shu yigitning oldiga xayrlashgani borganini va nihoyat yigit undan shu bugun kechasi xayirlashish uchun va'da olganini, so'zining ustidan chiqolmaganini, va'daga xilof qilganini kelin eriga aytibdi va "Agar menga ishonsangiz shu yigit bilan xayrlashib kelish uchun ruxsat bersangiz", deb eridan iltimos qilibdi.

Kuyov:

— Agar va'da bergan bo'lsangiz borib keling, — deb ruxsat beribdi.

Qiz shu zamon o'rnidan turib yigitning hovlisiga qarab yuribdi. Qiz yigitning oldiga kelgach, yigit hayron bo'lib:

— Qanday qilib eringizdan ruxsat so'radingiz, u sizga qanday qilib ishondi? — debdi.

Qiz eriga butun voqeaning rostini aytganini, shundan keyin eri ruxsat berganini aytibdi. Yigit qizning yuziga tikilib turib:

— Eringiz sizga ishonib mening oldimga yuborgan bo'lsa, mayli, xayr, eringizning mardligi meni o'z niyatimdan qaytishga majbur



qildi, yaxshi boring, qo'sha-qaringlar, sizlarga baxt-saodat tilayman, — deb ochiq yuz bilan xayrlashibdi.

Qiz yigit oldidan xayrlashib chiqib kuyovnikiga qarab yurarkan, o'g'rilar qo'liga tushibdi. O'g'rilar qizdan nima uchun bunday kech bo'lganda ko'chada yurishining sababini so'raganda, qiz ularga voqeani aytib beribdi va yigit bilan xayrlashib eri oldiga qaytib kelayotganini aytibdi.

O'g'rilar:

— Eringiz ham, gaplashib yurgan yigitingiz ham zo'r mardlik ko'rsatganliklari uchun biz ham sizga nisbatan bir mardlik qilaylik, eringizning hovlisi qaysi mahallada, bizdan keyin boshqa o'g'rilarga uchramasligingiz uchun biz sizni eltib qo'yaylik, — deb qizni erinikiga keltirib qo'yishibdi.

Shu yerda qozi hikoyasini to'xtatibdi: "Shulardan qaysi birlari mard ekan?" deb so'rabdi qozi. Kattasi: "Gaplashib yurgan yigit mard ekan, chunki qiz uning oldiga ikki marta kelibdi, yigit vijdonli bo'lgani uchun qizni qaytargan", debdi. O'rtanchasi: "Kuyov mard ekan, sinamagan bir qizning gapiga ishonib, unga ruxsat beribdi", debdi. Kenja: "O'g'rilar mard ekan, bular vaqti kelganda bir pul uchun odam o'ldirishdan ham qaytmaydi-yu, molning o'zi o'z oyog'i bilan bularning oldiga kelganda, kelinning kiyimlarini olish u yoqda tursin, uni o'z uyiga eltib qo'yishibdi", debdi.



Qozi turib: "Mana janjal ham hal bo'ldi, o'g'rini mudofaa qilgan kishi o'g'ri. Kenjatoy, xumchadagi oltinni akalaringiz bilan bo'lib oling, otangizning vasiyatlariga muvofiq bularga yordam ham qilishingiz kerak", debdi.

Kenjatoy rozi bo'libdi, ular qozining usta tajribasiga hayron bo'lib, xursand bo'lib chiqib ketibdilar.

SHERZOD VA GULSHOD

O'tgan zamonda bir shaharda Hurshod degan podshoh o'tgan ekan. O'nta xotin olgan ekan-u, lekin hech farzand ko'rmagan ekan. Hurshod farzand ko'rish uchun yana bir marta uylanishni ixtiyor qilibdi. Shahar ulamolarini chaqirib, shu to'g'rida maslahat qilibdi. Ulamolar ham podshoning so'zini ma'qullab fотиha beribdi. Qirq kecha-yu qirq kunduz to'y-tomosha qilib uylanibdi. Ikki oydan keyin oqsoch podsho oldiga kelib, xotini homilador bo'lganligini aytibdi. Hurshod xursand bo'lganidan oqsochga bir hovuch tilla berib jo'natibdi. Podsho vazirlari va saroy ahllarini chaqirib, tug'ilajak farzand sharafiga uch kecha-yu uch kunduz to'y-tomosha, uloq beribdi. Kunlardan bir kuni lashkarlarini olib ovga ketibdi. Ov qilib yurganda to'qaydan bir sher chiqibdi. Hurshod sherni ko'rib lashkarlariga:

— Baxtimizga ovimiz o'ngidan keldi. Hammangiz kamand tashlab shu sherni tiriklayin tutinglar. Kimda—kim shu sherni ushlay olmay,



oldidan o'tkazib qochirib yuborsa, jazolayman, — debdi.

Podshoning o'zi ham lashkarlari qatorida turib kamandning bir uchini ushlabdi. Lashkarlar kamand tutib sherni o'rtaga olibdilar. Bechora shero'rtada nima qilishini bilmay, jon talvasasida yugurib borib, kamandning bir uchini ushlab turgan Hurshod podshoni bir urib ag'darib, qochib ketibdi.

Askarlariga: "Agar qochirsangiz jazolayman" degan Hurshod podsho nima qilishini bilmay g'azab bilan otiga minib, sherni quvlab ketibdi. Lashkarlari bir qancha vaqt kutib, podsho qaytib kelmagandan keyin orqasidan qidirib ketibdilar. Bir qancha yo'l yurib, bir tog'li joyda to'xtab, g'orning og'zida bir narsaning qimirlaganini ko'rishibdi. Ot choptirib g'orga borib qarasalar, Hurshod podsho bir sher bilan olishib yotgan emish. Sher lashkarlarning kelayotganini ko'rib g'or ichiga kirib ketibdi. Lashkarlar podsho yoniga kelib qarasalar, shohning badanlari tirnalgan, o'zi holdan ketib yotibdi. Lashkarlari Hurshodni shaharga olib kelibdi. Podshoning holi og'irlashib vazir ulamolarini chaqirib: "Men endi dunyodan o'tayotibman. Qarigan chog'imda xudo menga farzand bergan edi. Falokat mening hayotimni barbod qilib, shu quvonchli kunni ko'ra olmay ketyapman. Mamlakat, toj-u taxtimni vaqtincha o'ng qo'l vazirim Nodirbekka topshiraman. Ey do'stlarim, farzandim dunyoga kelgandan keyin yaxshi tarbiya qilinglar.



Balogʻatga yetgandan keyin oʻgʻil boʻlsa oʻrnimga shoh qilinglar, qiz boʻlsa malika boʻlsin. Xotinimni oʻksitmanglar", deb vasiyat qilib jon beribdi.

Kunlar, oylar oʻtib Malikaning tugʻish vaqti yaqinlashib qolibdi. Toj-u taxtga ega boʻlgan Nodirbekning koʻngliga qora niyat tushibdi. Unga kayf-u safolar, toj-u taxtlar qoʻlidan ketayotgandek boʻlib koʻrinibdi. Vazirini chaqirib:

— Ey vazir, marhum shohimiz xotining oy kuni yaqinlashibdi. Tugʻilgan bola balogʻatga yetgandan keyin, albatta, bu taxt-u baxtlar sen bilan mening qoʻlimdan ketadi. Qanday boʻlsa ham bir ilojini qilib xotinni yoʻqotish lozim, — debdi.

Nodirbekning qora maqsadlariga vazir ham qoʻshilib Hurshod podshoning homilador xotinini yoʻqotish chorasiga kirishibdilar.

Vazir zindonga borib mahbuslarga:

— Ikki kundan keyin oʻrmonzorga borasiz. U yerga bir xotinni olib borishadi. Shu xotinni oʻldirsangiz zindondan ozod boʻlasiz, — debdi.

Mahbuslar rozi boʻlishibdi. Ikki kundan keyin mahbuslarni zindondan olib chiqib, qoʻllariga pichoq berib oʻrmonga yuborishibdi. Makkor vazir xotinning yoniga kiribdi, hol—ahvol soʻragandan soʻng:

— Bugun sizni bir sayohat qildirib kelmoqchimiz. Marhum shohimiz sizni tez-tez sayohat qildirib turishni vasiyat qilgan edi. Agar



qarshilik qilmasangiz bir tomosha qildirsak, – debdi. Xotin juda xursand bo‘lib, aravaga chiqib o‘tiribdi. Vazir xotinni o‘rmonzorga olib borib: "Shu yerda biroz damingizni olib turing, men ov qilib kelay" deb uni yolg‘iz qoldirib ketibdi. Shu vaqt mahbuslarning ba‘zilari xotinni o‘ldirishga botinmay, achinib chetlashibdi. Bir nechasi vazirdan qo‘rqib xotinni pichoqlabdi. Xotinning dod-voyiga qaramay qornini yoribdi. Vazir kelib xotinning o‘lganiga xursand bo‘lib, mahbuslarning hammasini ozod qilibdi.

Mahbuslardan biri daraxt orqasiga berkinib olgan ekan. Hamma ketgandan keyin qip-qizil qonga belanib yotgan xotin oldiga kelib qarasa, xotinning yonida bir bola yig‘lab yotibdi. Mahbus bolani onasiga emizdiribdi. Bola yig‘idan to‘xtab onasi bag‘rida uxlab qolibdi. Mahbus Nodirbekning zulmini ko‘rib xotinga qattiq achinibdi. Bo‘lgan voqeani tasvirlab bir qog‘ozga yozibdi. Bir lattaga o‘rab, bolaning bo‘yniga taqib ketibdi. Mahbus ketishi bilan o‘rmondan bir sher chiqib kelibdi.

Qonga belanib yotgan xotin yoniga kelibdi-da, bolani tumshug‘i bilan itarib yuborib xotinni yeya boshlabdi. Yana orqasidan bir sher chiqib kelib qarasa, xotinning yonida bir bola yotibdi. Bu ona sher bolani o‘z bolalari yoniga olib boribdi. Urg‘ochi sher o‘z bolalarini qanday boqqan bo‘lsa, bu bolani ham shunday yaxshi tarbiyalabdi. Bola katta bo‘lib yura boshlabdi. Bir kuni sher bolani yelkasiga mindirib yurganda



bir to‘da karvonlar uchrabdi. Karvondagilar sher ustidagi odam bolasini ko‘rib hayron qolib, sherni tutmoqchi bo‘lishibdi. Karvondagilar kamand tashlab sherni o‘rtaga olib bolani olmoqchi bo‘lishibdi. Bola qo‘rqib sherga chirmashibdi. Sher ham bolani berishni istamay olishibdi. Oxiri karvondagilar sherni bog‘lab, bolani ajratib olishibdi. Bolani o‘z boshliqlari Saidkarvonga olib kelib berishibdi. Saidkarvon bolaning bo‘ynidagi xatni o‘qib, bo‘lgan voqeani anglabdi. Bu sirni hech kimga aytmabdi.

Shu kundan boshlab bolani Sherzod deb atabdilar. Said Sherzodni farzand qilib olib, shaharga kelibdi. Sherzod Saidkarvonning oilasida yaxshi tarbiyalanib yetti yoshga to‘libdi. To‘rt yil o‘qib oq-qorani taniydigan bo‘libdi. Sevib o‘ynaydigan o‘yini qilichbozlik, urush o‘yini bo‘libdi. Saidkarvon o‘g‘liga jang qilish hunarini o‘rgatibdi. Sherzod katta bo‘lgandan keyin shu shaharning nomi chiqqan qahramonlari qatoriga kiribdi. Hatto o‘rgatgan ustozlari ham Sherzodning hunarini ko‘rib qoyil qolishibdi. Bir kuni shu shahar podshohi Saidkarvon bilan Sherzodni o‘z saroyiga chaqiribdi. Podsho ularni yaxshi qabul qilib, Sherzodni o‘ziga lashkarboshi qilmoqchi bo‘lganligini aytibdi. Bu taklifni Sherzod ham qabul qilibdi. Shu bilan Sherzod lashkarboshi bo‘lib yaxshi xizmat qila boshlabdi. Kunlardan bir kuni Sherzod o‘z lashkarlari bilan ovga chiqibdi. Ov qilib yurganda o‘rmonzordan bir sher chiqib bular tomon kela boshlabdi.



Sherzod sher bilan yolg'iz o'zi olishmoqchi bo'lib, qilichini yalang'ochlab sher tomonga yuribdi. Sher ham pisand qilmay yaqinlashib kelaveribdi. Ikkovi bir-biriga yaqin kelib olisha boshlabdi. Sherzod qilichi bilan sherni ikkiga bo'lib tashlabdi. Qarasa, oldidan yana bir sher yerga surkalib, boshini tebratib kelaveribdi.

Sherzod uni ko'rib hayron bo'libdi. Urg'ochi sher hech qanday hujum qilmasdan ko'zidan yoshini to'kib yerga surkala-surkala kelibdi. Sherzod ham qo'lidagi qilichini qiniga solib yolg'iz o'zi sherning oldiga boribdi. Sher ham Sherzod yoniga kelib kaftini oyog'iga surkay boshlabdi. Sherzod o'zining yoshligida sher ustida yurganini eslab, sherning nima demoqchi bo'lganini fahmlab, sherning ustiga chiqib olibdi. Sher xursand bo'lib maydonni bir aylanib chiqibdi. Sherzod ham ovidan xursand bo'lib, sherni o'zi bilan birga shaharga olib ketibdi. Saidkarvon o'g'lining bu ishini ko'rib juda xursand bo'libdi. Saidkarvon hamma lashkarlarini o'z oldiga chaqiribdi. Sherzod ham kelibdi.

Saidkarvon hammaning oldida Sherzodning sarguzashtini gapirib beribdi. So'zining oxirida "Mana shu sher seni boqib o'stirgan onang bo'ladi. Biz seni shu sherdan olib ketgan edik. Shuning uchun seni Sherzod deb atagandik", deb Sherzodning bolalik vaqtida bo'yniga osib qo'yilgan xatni uning qo'lga beribdi. Sherzod xatni o'qigandan keyin, o'rnidan turib, ona



sherni quchoqlab yig'labdi. Keyin otasi Saidkarvonni quchoqlab rahmat aytibdi. Sher ham Sherzodning yuziga yuzini surkab erkalanibdi.

Sherning bunday qilishi "O'g'lim, nega onangni o'ldirganlardan o'chingni olmaysan?", degandek bo'libdi.

Sherzod kechasi uxlab tush ko'ribdi. Tushida o'z onasi Sherzodga qarab "Bolam, bergan sutimga rozi emasman", debdi. Sherzod cho'chib uyg'onibdi. Irg'ib o'rnidan turib podshoning roziligi bilan askarlarini to'plabdi. Askarlarga bosh bo'lib Nodirbekka qarshi yurish qilibdi. Bir necha kun yo'l yurib shaharga kelibdi. Nodirshoh Sherzodga elchi yuboribdi. Sherzod kelgan elchiga:

— Nodirshoh yaxshilik bilan toj-u taxtini topshirsin, bo'lmasa Jang qilib taxtini olaman, — debdi.

Elchi Nodirshohga Sherzodning maqsadini kelib aytibdi. Nodirshoh askarlarini to'plab Jang boshlabdi. Uzoq vaqt Jang bo'libdi.

Oxiri Sherzod Nodirshohni asir olibdi. Sherzod Nodirshohning oldiga kelib:

— Umringda gunoh qilganmisan? — debdi.

Nodirshoh Sherzodning gapiga hayron bo'libdi.

Sherzod yana:

— Mening onamni kim o'ldirgan? — debdi.

Nodirshoh indamabdi.



Shunda Sherzod cho‘ntagidan xatni olib otasi Saidkarvonga berib:

— Shu xatni xalq oldida o‘qib bering, — debdi.

Saidkarvon xatni o‘qib beribdi, undan keyin xalq Nodirshohga qarshi talpinibdi. Nodirshoh Sherzodning oyog‘iga yiqilib, gunohini kechirishni so‘rabdi. Sherzod:

— Men bugun onamni rozi qilmoqchiman, sendan o‘chimni olaman, — deb Nodirni jallodga topshiribdi. Otasi Saidkarvonni shu shaharga podsho qilib qo‘yibdi. O‘zi Saidkarvon shahriga — ona sher oldiga ketibdi.

Sherzodning g‘ayrati, botirligi boshqa mamlakatlarga ham yoyilibdi. Hatto boshqa shahar podsholari Sherzodni o‘zlariga kuyov qilmoqchi bo‘lib elchi yuborishibdi. Kunlardan bir kuni Sherzodning eng yaqin o‘rtog‘i Battalg‘ozi degan bir shohning Gulshod degan qizini maqtabdi. Sherzod buni eshitishi bilan g‘oyibona oshiq bo‘libdi. Sherzod Battalg‘ozining qizini so‘rab elchi yuborish to‘g‘risida podsho bilan maslahatlashibdi. Podsho:

— Battalg‘ozi juda kuchli podsho. Sening sevging orqasidan boshimizga ko‘p falokatlar tushishi mumkin. Hatto ko‘p shaharlardan elchilar kelganda ularning boshini kesish, jang qilish bilan javob bergan. U bilan baravar kelish qiyin, — debdi. Sherzod podshoga yalinib, jang bo‘lgan vaqtda ham o‘zining g‘olib kelishiga inontiribdi.



Shoh noiloj rozi bo'libdi. Gulshodni so'rab Battalg'oziga elchi yuboribdi. Battalg'oz kelgan elchilarning hammasini o'ldiribdi. Bu ishga shoh bilan Sherzodning g'azabi kelib, Battalshohga "Yaxshilik bilan qizing Gulshodni ber, agar bermasang, jang qilib olamiz", deb xat yozibdilar.

Battalg'oz xatni olib javob xat yozibdi. Xatda: "Mening hayvon tarbiyasini olgan odamga beradigan qizim yo'q. Jang qilishga tayyorman", debdi.

Sherzod lashkarlarini to'plab, ona sher bilan birga Battalg'ozining jang maydoniga boribdi. Sherzod sher va lashkarlarini qoldirib, otiga minib qal'a yaqiniga kelibdi. Devor yoqalab borayotganida qal'a ichidagi baland arkka ko'zi tushibdi. Ark juda chiroyli bezalgan, atrofida gullar o'sib yotardi. Gulshod ham Sherzodning ta'rifini eshitibdi. Otasining zolimligidan nohaq nobud bo'lib ketgan yigitlarga, shu qatorda Sherzodning nobud bo'lib ketishiga achinibdi. Qanday bo'lsa ham Sherzodni ko'rishni orzu qilib, kechasi bilan uxlamay o'tirgan ekan, sekin joyidan turib, sochlarini orqasiga tashlab, arkning sanoqsiz zinalaridan tushayotib, devor yonida ot ustida turgan Sherzodni ko'ribdi. Sherzod ham Gulshodni ko'rib nima deyishini bilmay, unga qarab kulibdi.

Gulshod pastga tushib devor yoniga kelibdi-da, bir chiroyli gulni uzib Sherzodga tashlabdi. Sherzod ham devor yoniga kelib, o'zining unga



oshiq bo'lib qolganligini, ismi Sherzod ekanligini aytibdi. Gulshod jangda Sherzodga yordam berishini va'da qilibdi.

Ertasi kuni tong yorishi bilan jang boshlanibdi. Bir qancha janglardan keyin Sherzod askarlari yengila boshlabdi. Shunda Sherzod birdan sherni qo'yib yuboribdi. Sher orqasidan askarlari bilan Sherzod ham jang maydoniga kiribdi. Sherzod ot ustida turib to'rt tomondan kelganni chopib tashlayveribdi. Sher esa na'ra tortib duch kelganni bo'g'ib tashlabdi. Shu payt Sherzod arkda tomosha qilib turgan Gulshodni ko'rib qo'lini ko'taribdi.

Gulshod bir piyola sharbat olib tushib, Sherzodga beribdi. Sherzod sharbatni ichishi bilan g'ayratiga g'ayrat qo'shilib, dushmanga omonlik bermay haydabdi. Oxiri Battalg'ozini yengilib taslim bo'libdi. Xalq Sherzodni podsho qilib ko'taribdi. Sherzodning yengganini Saidkarvon eshitib kelibdi. Sherzod bir necha kun to'y-tomosha qilib, Gulshodga uylanibdi. Shu bilan murod—maqsadiga yetibdi.

HASAN VA HUSAN

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, burungi zamonda xoqoni Chin degan tomonda Yu-San-Chin degan podsho o'tgan ekan. Uning yaxshi ko'rgan Yu-Chin-San degan dono vaziri bor ekan. Har ikkovining ham yoshlari anchaga borib qolgan bo'lishiga qaramay, farzandlari yo'q ekan.

Kunlarning birida podsho o'z ulamolari bilan uzoq tomonlarga ovga ketibdi. Podsho bilan vazir



ikkovlari farzandlari tug'ilganidan xabar kelmagun-cha, ovdan qaytmaslikka qaror qilishibdi. Agar ikkovlarining ham farzandlari o'g'il bo'lsa biriga Hasan, ikkinchisiga Husan deb ot qo'yib, aka-uka qilmoqchi bo'lishibdi. Ikkovi ham qiz bo'lsa, Fotima va Zuhra deb ot qo'yib, opa-singil, agar biri o'g'il, biri qiz bo'lsa, birini Tohir, birini Zuhra deb ot qo'ymoqchi bo'lishib, ahdnomaga imzo chekib, muhr bosishibdi.

Kunlar, oylar o'tibdi. Bir kuni chopar kelib podsho bilan vazirga malikalari o'g'il tug'ganligi haqida sevinchli xabar keltirib, ularni xursand qilibdi. Ahdlariga binoan podshoning o'g'liga Hasan, vazirning o'g'liga Husan deb nom qo'yishibdi. Podsho bilan vazir uylariga kelib yetti kecha-yu yetti kunduz elga to'y berishibdi.

Bolalarining tarbiyasiga alohida e'tibor berib, ularning har qaysisiga yaxshi tarbiyachi enagalar, tabiblar qo'yishibdi. Bolalarni bir-biridan ajratmas-dan tarbiya berishibdi. Hatto qaysi biri kimning farzandi ekanini ham bildirmas ekanlar. Bolalar katta bo'lgandan keyin o'qishga berishibdi. Ularga o'qish, yozish, harbiy hunar, davlatni boshqarish, dengizda suzish, duradgorlik, chinney naqqoshlik, temirchilik, qisqasi, o'sha davrda mavjud bo'lgan hamma hunarning har biridan o'qituvchi ajratib, hunar o'rgatila boshlabdi. Bu bolalar hunarlarni shunchalik qiziqib o'rganar ekanlarki, hatto o'qituvchilari ularning qaysi bir hunarni yaxshi



o'rganayotganliklari to'g'risida suhbatlashganlarida, har biri o'z hunarini yaxshi o'rganayotganini aytar ekanlar.

Bolalar o'n yetti yoshga kirganda hamma hunarlarni o'rganib bo'lib, sayohat qilishga qaror qilishibdi. Safarga katta tayyorgarlik ko'rishibdi.

Yaxshi tulpor otlarni minib, xurjunlarini qimmat-baho toshlarga to'ldirib, jangchi qurollari va kiyimlarini kiyib, yonlariga yo'ldosh ham olmay, ikkovi janub tomonga qarab jo'nashibdi. Kun yurib, oy yurib, jarlardan, qorli baland tog'lardan, cho'l-u biyobonlardan oshib, Buxoro degan shaharga kelib yetibdilar. Otlariga dam berib, o'zlari ham biroz dam olmoqchi bo'lib, shaharning kunchiqar tomonidagi bir kulbaning eshigini qoqibdilar. Chol-u kampir ularga eshik ochibdi. Hasan bilan Husan odob bilan salomlashganlaridan keyin, o'zlarining uzoq safardan kelayotganliklarini va shu yerda dam olib ketmoqchi ekanliklarini bildiribdilar. Chol kampirning farzandlari yo'q ekan. Bularning o'zlariga farzand bo'lishini iltimos qilishibdi. Aka-uka ham ularning iltimosini qabul qilib, ota va ona deydigan bo'lishibdi. O'zlarining jangchi kiyimlarini yechib qo'yib, mahalliy kiyimlar sotib olib kiyishibdi. Bir qancha vaqt shu yerda yashashibdi.

Kunlarning birida Husan ko'chaga chiqsa, odamlarning "Ana keldi", "Qoch, o'lasan", "Otadi, yashirin", degan vahimali hayqiriqlarini eshitibdi. Husanning qo'lida quroli, ustida



jangchi kiyimi yo'qligi sababli u ham o'zini pana joyga olishga majbur bo'libdi. Keyin kampirning oldiga kirib, ko'chada bo'lgan voqeani gapirib berib:

— Ona, ko'chada odamlar nimaga shuncha vahimaga tushib qochadilar? — deb so'rabdi.

Kampir bu voqeaning ularga hech taalluqli bo'lmaganidan aniq javob bermabdi. Lekin aka-uka shu bo'lgan voqeani tushuntirib berishni talab qilibdilar. Shunda kampir:

— Buxoro xoni — Usmonxonning yakka-yu yagona Mohinbonu ismli chiroyli qizi bor. U haftada bir martaba bezatilgan tuyada soqchilar bilan hammomga boradi. Yuziga yetti qavat parda tutilganiga qaramay, kimki unga qarasa, xon: "Sen nima uchun nomahram ko'zing bilan mening qizimga qaraysan?" deb shu kishini o'limga buyuradi. Shu sababli odamlar qochadilar, — debdi. Hasan bu so'zni eshitishi bilan Mohinbonuni ko'rmay oshiq-u beqaror bo'lib qolibdi. Ovqat ham yemay, bir necha kun ichida bir necha oy kasal yotgan bemordek ozib qolibdi. Akasining bunday holga tushishi Husanni ham qattiq tashvishga solibdi. Xonning saroyiga sovchi yuborishning iloji bo'lmaganligidan Husan Mohinbonu bilan qanday bo'lsa ham gaplashish yo'lini qidira boshlabdi.

Mohinbonuning Zulhijja degan o'qituvchisi borligini surishtirib bilib, uning turar joyini aniqlabdi. Bozordan bir gaz shoyi sotib olib onasiga berib, uchta xalta tiktiribdi. Har bir



xaltani qimmatbaho toshlar bilan to'ldiribdi. Bir kuni kechasi xaltalardan birini olib, shu o'qituvchisining uyiga boribdi, u derazani ochib qo'yib uxlab qolgan ekan. Husan xaltani sekin derazaning ustiga qo'yib ketibdi. O'qituvchi erta bilan deraza ustida bir xalta qimmatbaho toshlarni ko'rib hayron qolibdi. Ammo kim, nima uchun bu xaltani qo'yib ketganligini bilmabdi. Ertasi kuni sinash uchun derazani yana ochiq qoldirib uxlamay poylab yotibdi. Lekin uyqu zo'rlik qilib uxlab qolibdi. Erta bilan qarasa, yana bir xalta paydo bo'libdi.

Uchinchi kuni derazani ochiq qo'yib poylab yotibdi. Uyqusi kela boshlagandan keyin jimjilog'ini pichoq bilan kesib, yarasiga tuz sepib uyqusini qochiribdi. Yarim kechadan o'tgandan keyin, derazadan bir qo'l xaltani ichkariga uzatibdi. O'qituvchi tezlik bilan qo'lni tutib olib:

— Kimsan, menda nima arzing bor? — debdi.

Husan ichkariga kirib voqeani gapirib beribdi.

O'qituvchi:

— Ertaga tush paytida shahzoda kiyimlarini kiyib kelib, eshikni sekin ochib qaranglar. Agar qiz aylanib qarab muloyimgina "Bular kimlar, nima qilib yurishibdi?" desa, ichkariga kirib o'tiringlar. Men unga voqeani gapirib beraman. Agar "Bular kimlar, bevaqt kelibdi?" desa, yaxshisi tezroq qochib ketinglar. Bo'lmasa, sizni ham, meni ham o'ldiradi, — debdi. Husan kalavaning uchi topilganligidan xursand bo'lib, uyiga borib voqeani akasiga gapiribdi. Aka-uka



ertasi kuni o'qituvchining uyiga kelishibdi. Sekin eshikni ochib qarashibdi. Qiz ularga qayrilib qarab, bir seskanib ketibdi, muloyimgina:

— Bular kimlar, nima qilib yuribdilar, — deb so'rabdi. Eshik oldida qimirlamay turgan aka-uka qo'g'irchoqqa jon kirganday birdan qo'zg'alib ichkariga kirib o'tirishibdi. O'qituvchi bo'lgan voqeani qizga gapirib beribdi. Shunda qiz bir chuqur oh tortib:

— Meni otam ertaga arab xalifasining o'g'li Abdulmalikka to'y qilib berib yuboradi. Men qanday qilib sizga va'da qilaman, agar Husan meni akasiga olib berishni istasa, bir shartimni bajarsin. Meni ertaga karvon bilan Arabistonga olib ketayotganlarida mozor yonidan o'tamiz, o'sha vaqtda men onamning qabrini ko'rib ketishni so'rayman. Sizlar shu mozorga borib o'tirasiz. Men mozorga kirishim bilan Husan mening ust-boshimni kiyib chiqib mening o'rnimga karvon bilan ketadi. Keyin Husan o'zini qaysi yo'l bilan bo'lsa ham qutqarib oladi. Biz esa Hasan bilan mozorda qolamiz, — debdi.

Ertasi aka-uka mo'ljallangan vaqtda mozorga borib, qizning kelishini kutib o'tirishibdi.

Mohinbonu esa mozorga yaqinlashish bilan "dod" deb yig'lab yuboribdi—da, onasining yaqinda o'lganini, uning qabrini ziyorat qilib ketishi kerakligini aytibdi. Karvondagilar tuyalarini cho'ktirib kelinni tuyadan tushiribdilar.



Mohinbonuning mozorga kirib ziyorat qilishiga javob beribdilar. Mohinbonu mozorga kirishi bilan Husan uning kiyimlarini kiyib, paranjisini yopinib yig'lab-yig'lab tuyaga minib, Arabistonga ketibdi. Borgandan keyin kelinni yaxshi kutib olishibdi. Yetti kecha-yu yetti kunduz to'y berib, kuyovni keltirishibdi, shunda "kelin" onasining yaqinda o'lganligi uchun qirq kecha-yu qirq kunduz aza tutishini, aza vaqtida erkak kishi qarasa gunoh hisoblanishini aytib, qirq kunga muhlat so'rabdi.

Kuyov ham rozi bo'libdi. "Kelin" zerikib qolmasin deb, singlisi Zulayhoni yoniga qo'yibdi. Bir necha kun o'tgandan keyin Husan Zulayhoga o'z sirini ochib, undan yordam so'rabdi. Zulayho o'zining undan ajralishini istamay, u bilan birga ketmoqchi bo'lganligini aytibdi. Ikkovi qochmoqchi bo'lishibdi. Zulayho otasi va akasi oldiga borib, kelin oyisi bilan bir hafta sayohat qilib kelishga ruxsat olibdi. Otasi ularni tulpor otlarga mindirib, bir necha kanizak, bir necha soqchilar bilan sayohatga jo'natibdi. Bir qancha yo'l yurib, sayohat tayinlangan joyga yetibdilar. Xushmanzara bir joyni tanlab, chodir quribdilar. Kechasi ovqatdan keyin yotib uxlashibdi. Faqat "kelin" bilan Zulayho hamda sezgir soqchilar uxlashmabdi.

Soqchilarning uxlashini kutib ko'p vaqt poylab o'tirishibdi. Lekin soqchilar hech uxlamagandan keyin Husan chiqib ustalik bilan ularni uxlatibdi. Ikkovi ham erkaklar kiyimini kiyib,



qurollarini olib, otlariga minib "Yo Buxoro, qaydasan" deb yo'lga tushishibdi. Daryo-yu ko'llar, dasht-u cho'llar, adiru tog'lar, gulzor-u bog'lardan o'tib, eson-omon manzillariga yetibdilar.

Arab xalifasi kelin bilan qiz sayohatdan qaytib kelmaganidan keyin ularni qidirib topishga choparlar yuboribdi. Choparlar kelib ko'rib, xalifaga voqeani borib aytishibdi. Xalifaning jahli chiqib, jahonni buzgudek bo'lib, Buxoro xoniga qarshi urushga tayyorlanibdi. Lashkar to'plab yo'lga chiqibdi. Tez kun ichida Buxoroga yetib, qal'ani qamal qilib, xonga noma yuboribdi. Nomada: "Bir kecha-yu kunduz ichida Buxoro so'zsiz taslim bo'lmasa, beshikdagi boladan tortib, eng qari chollarigacha qilichdan o'tkazaman, shaharning kulini ko'kka sovuraman", deb yozibdi.

Bu voqeadan bexabar Buxoro xoni o'zicha mulohaza qilib: "Bu badnafs xalifaga xiroj Sto'lasam, qizimni bersam, yana mening taxt-u baxtinga chang solmoqchi. Nomardlarcha dorda quzg'unga yem bo'lguncha, Jang maydonida mardlarcha jang qilib o'lmoq a'lo", deb tezlik bilan lashkarlarini to'plab qarshi chiqibdi. Arab lashkarlari uzoq yo'l yurib charchaganliklariga qaramay, ko'p jang qilib chiniqqan, intizomli, berahm kishilar bo'lgani uchun Buxoroga bostirib kirib xonning saroyiga yaqinlashibdilar. Mohinbonu bu voqeani eshitib Hasan bilan Husanga qarab:



– Sizning mardligingizdan shu yerga kelgan edik, nomardligingiz tufayli mamlakatimiz qonga belanib, dushmanga oyoq osti bo'lmoqda! – debdi. Mohinbonuning bu so'zidan ta'sirlangan Hasan bilan Husan urush kiyimlarini kiyib, nayza va qilichlarini olib, otlarini minib, jang maydoniga chiqibdilar. Ko'p vaqtdan beri to'planib qolgan kuchlarini ishga solib, ustalik bilan jang qila boshlabdilar. Buxoroliklar notanish lashkarboshilarning jang maydoniga kirganlarini ko'rib qat'iy hujumga o'tibdilar. Arablarni qal'adan tashqariga suribdilar. Choparlar kelib o'z xonlaridan suyunchi olibdi. Kutilmagan g'alabadan xon juda xursand bo'libdi. Shu bilan Arab askarlari zo'rg'a qochib qutulibdi.

Jang tamom bo'lgandan keyin Buxoro xoni yasovullar boshlig'ini chaqirib, xonlikni og'ir ahvoldan qutqarishga yordam bergan ikki qahramonni topib kelishga buyuribdi. Lekin qancha qidirsalar ham topa olmabdilar. Jang maydonida ularni ko'rgan jangchi va lashkarboshilar, ular jang maydonida qanday paydo bo'lgan bo'lsalar. shunday g'oyib bo'lganliklarini aytibdilar. Shaharning hamma karvonsaroy, mehmonxona, musofirxonalarini tekshiribdilar. Hech qayerdan topa olmabdilar.

Shunda xon: "Ular kim bo'lsa ham yurtimizning kishilari emas", deb tezlik bilan topishni talab qilibdi. O'limdan qo'rqqan yasovulboshi hamma yasovullarini to'plab



qidirishga kirishibdi. Hamma joyni qidirib topa olmaganlaridan keyin yasovullarning bir keksasi faqat shaharning narigi chekkasidagi bir chol-u kampirning uyi qolganligi. lekin ularning o'g'li yo'qligini aytibdi. Yasovulboshi shu chol-kampirning uyini ham borib ko'rishni yasovullarga buyuribdi. Bu tashlandiq kulbadan quvonchli natija chiqishiga umid qilmasalar ham, buyruqni bajarishga majbur bo'lishib, yasovullardan uch kishi jo'nabdi. Borib u yerda xonning qizi Mohinbonu bilan arab xalifasining qizi Zulayho va ikki notanish pahlavon yigit o'tirganini ko'rishibdi. Bu sevinchli voqeani xonga yetkazishibdi. Xon ularni olib kelishni buyuribdi.

Ular kelgandan keyin xon: "Mening xonligimni halokatdan qutqarib qolganingiz uchun sizlardan biringiz xonlik qilishingiz lozim", debdi. Aka-uka qarshilik qilishiga qaramay, tojini Hasanga kiydiribdi. Husanni o'ng qo'l vazir, xon o'zini chap qo'l vazir, cholni esa xazinachi qilib tayinlabdi. Qirq kecha-yu qirq kunduz to'y qilib, tinch hayot kechira boshlabdilar.

Kunlarning birida aka-uka gaplashib o'tirib: "Vatanimizdan chiqib ketganimizga ko'p yillar bo'lib ketdi. Ota-onalarimizning holidan xabar ham olganimiz yo'q", deyishibdi-da, Husan borib ota-onalaridan xabar olib kelmoqchi bo'libdi. Bu xabarni eshitgan Zulayho ham: "Men sizdan ajralib qolmayman", debdi. Husanning yo'l uzoq va og'ir deyishiga qaramay, o'z so'zida mahkam



turib, Zulayho ham, kanizak va soqchilarini olib yo'lgaga chiqibdi. Bir joyda to'xtab ovqatlanishibdi. Biroz uxlagandan keyin Husan uyg'onib qarasa, Zulayhoning bilagiga bog'lab qo'yilgan Husanning oti yozilgan qimmatbaho uzukni bir zag'izg'on kelib yechayotganini ko'ribdi. Husan o'rnidan turib zag'izg'onni haydab yubormoqchi bo'lganda, zag'izg'on ro'molchani yechib olib ketibdi. Husan uning orqasidan quvlabdi. Tongotar paytida zag'izg'on bir ravotga kelib tushibdi. Husan ravotni aylanib yurib kirishga na eshik, na daricha topa olmabdi. Qarasa, bir ariq orqali ravotga suv oqib kirayotgan ekan. Husan shu ariqdan ichkariga kiribdi. Ravot ichida soch-soqoli oqargan, kiyimlari juldur bo'lib ketgan bir chol turgan emish, cholga salom beribdi Chol Husanni ko'rib hayron bo'lib:

— Ey odamzod, bu yerga qaydin kelding? — debdi. Husan:

— Men bu yerga Buxorodan keldim, — debdi.

Chol:

— Ey o'g'lim, Buxoro bu yerdan olti oylik yo'l. Bu joy esa, devlarning makoni, — deb, Husanning qanday kelganini so'rabdi.

Husan bo'lgan voqeani aytib beribdi. Chol:

— Sen zag'izg'onni emas, devni quvlabdan, quvlaganing ham yo'q, yelkasiga minib kelgansan. Sening ko'zingga shunday ko'ringan, — debdi va o'zining Eron podshosining o'g'li



Umar al-Amal Firuziy ekanini, u ham xuddi shunday qilib kelib qolganini hikoya qilibdi.

— Bitta edim, ikkita bo'ldik. Endi zerikmaymiz, insonlarcha gapirish ham esimizdan chiqmaydi, — deb xursand bo'libdi. Shunday qilib ular birga yashay boshlabdi. Endi gapni Zulayhodan eshiting.

Zulayho qarasa, yonida Husan yo'q. Biror yerga ketgandir, deb biroz kutibdi. Lekin Husan kelmaganidan keyin "Meni safarga birga olib ketishga rozi bo'lmagan edi. Shuning uchun meni yolg'iz tashlab ketgan bo'lsa kerak", deb o'ylabdi. Qarasa, Husanning jangchi kiyimlari shu yerda qolibdi, hayron bo'lib endi nima qilish kerakligini o'ylabdi. Vaqt juda qisqa bo'lganidan, tezda bir qarorga kelibdi. Husanning jangchi kiyimlarini kiyib, bir necha kunlik ovqat olib, yaxshi tulpor otini minib Husanni qidirib ketibdi. Soqchilar uyg'onib, nima hodisa bo'lganini tushunib olgunlaricha Zulayho qorong'u tunda uzoq joylarga ketib qolibdi. Soqchilar qancha bosh qotirsalar ham nima hodisa bo'lganini bila olmabdilar. Faqat Husan bilan Zulayho va bir ot yo'q, Zulayhoning kiyimlari shu yerda qolibdi. Soqchilar: "Buxoroga qaytib borsak, nima voqea bo'lganligini aytib bera olmasak, aybdor bo'lib quzg'unlarga yem bo'lgandan ko'ra, hammamiz har tomonga tarqalib ketganimiz yaxshiroq", deb maslahatlashib har tomonga tarqalib ketishibdi. Kanizaklar ham ketibdi.



Zulayho ko'p og'ir yo'llardan o'tib, Hindiston mamlakatiga boribdi. O'zini arab xalifaligidan norozi bo'lib qochib ketgan lashkarboshi – Zohir Botir Zululi deb tanishtiribdi. Bu xabarni hind shohi Radj Chandraga bildiribdilar. Hind shohi uni yoniga chaqirib olib, o'zining qarib qolganligini, o'g'li yo'qligi, faqat Radxa ismli qizigina borligini, shu qizi Radxaga uylanib o'z taxtiga o'tirishini taklif qilibdi. Zohir Botir noiloj rozi bo'libdi. Shoh yetti kecha-yu yetti kunduz to'y qilib, qizini beribdi. Toj kiydirish marosimini ham o'tkazibdi.

To'ydan keyin Zohir Botir Radxaga o'z sirini ochib, boshidan o'tgan voqeani gapirib beribdi. Agarda Husan topilsa uning bilan birga yashab, Radxani esa o'zining akasi Abdulmalikka olib berishga va'da beribdi. Har ikkisi bu gaplarni sir saqlashga ahd qilishibdi.

Kunlarning birida Husan ravotda gullarga qarab yurganida ikki zag'izg'onning quvlab kelganini va biri boshqasini o'ldirganini, ikkinchi joyda esa bir tugunchani ko'mib ketganini ko'rib qolibdi.

Husan borib tugunchani olib qarasa, o'zining Zulayhoga bergan uzugi chiqibdi. Bu voqeani cholga borib aytibdi. Chol:

– Bizning devning dushmanlari ko'p edi. Ular uni o'ldiribdilar, endi sen qutulibsan. Ketishing mumkin. Shu yaqin joyda bir daryo bor. Har uch oyda bir martaba kema keladi, – debdi. Husan devning xazinasidan bir xaltachaga qimmatbaho



toshlarni to'ldirib, uzukni ham shu xaltachaga solib, kema kelar vaqtida daryo tomonga ketibdi.

Daryo yoniga kelsa, kema kelib turgan ekan. Xaltachani kemaga qo'yib, chol bilan xayrlashib kelish uchun qaytibdi. Kema kelganini aytib, choldan oq yo'l tilashini so'rabdi. Shu vaqtda chol: "Yana bir o'zim qolaman, endi qanday qilib turaman?" deb yuragi yorilib o'lib qolibdi. Cholning o'ligini ko'mmasdan qoldirib ketish insofdan emas, deb cholni ko'mishga kirishibdi.

Cholni ko'ngandan keyin daryo yoniga borsa, kema ketib qolibdi. Kemachilar bir emas, bir yarim soatgacha kutib, oxiri kelmaganidan keyin ketib qolgan ekan. Husan endi qay yerga borishini, nima qilishini bilmay, daryo yonidagi bir tosh ustida o'tirganicha qolaveribdi.

Zohir Botir davlat ishining hamma sohalari bilan birma-bir tanishibdi. Kunlarning birida o'tkinchi kemalardan tushgan xirojlarni tekshirmoqchi bo'lib, kemalar to'xtaydigan joyga boribdi. Kelgan savdo kemalarini tekshira boshlabdi. Hamma mollarni tekshiribdi. Bir xaltaning egasi topilmabdi.

Kemachilardan xaltachaning egasini so'rabdi. Kemachilar bir odam xaltani kemaga qo'yib ketganini, bir soatdan keyin kelaman deb, qaytib kelmaganini aytishibdi. Zohir Botir xaltani ochib qarab, o'zining uzugini ko'ribdi. Nima qilishini bilmay kema boshlig'ini chaqiribdi. Tezlik bilan kemani bo'shatish va uch kun muhlat ichida xaltaning egasini topib kelishni buyuribdi.



Kemachi noiloj buyruqni bajarishga majbur bo'libdi.

Kemachilar qaytib borib qarasalar, Husan hali ham shu tosh ustida o'tirgan ekan. Kemachilar yigitga: "Sen bizni shuncha ovora qilding, ahmoq", deb urib-so'kib kemaga solib olib ketishibdi, kemani mo'ljallangan vaqtda yetkazishibdi. Zohir Botir kemachiga javob berib yuborib, Husanni yuvintirib, kiyintirishni xizmatkorlariga buyuribdi.

Husaning topilganligi to'g'risida Radxaga xabar yuboribdi. Keyin bu voqeani otalariga ham bildirib, o'zlarining maqsadlarini aytishibdi. Raj Chandra avval ularning gaplariga ishonmabdi, so'ngra "Aqlaringga balli, qizlarim, sizga ofarin" deb ulardan juda xursand bo'libdi. Husanni podshoning oldiga olib kelishibdi. Zohir Botir Husanni sinamoqchi bo'lib: "Yaxshi yigit, qayerliksiz, qaysi tomonga ketayotibsiz?" debdi. Husan o'zining boshidan o'tgan voqeani aytib beribdi. Zulayho: "Agar xotiningiz topilsa, nima qilar edingiz?" debdi. Husan: "Agar meni kutgan bo'lsa, albatta, yana uning bilan o'z hayotimni bog'lar edim", debdi. Shunda Zulayho boshidagi tojini olib, toj ostidagi yashirib qo'ygan sochlarini tushirib yuboribdi. Ikkovi topishib bir-biri bilan ko'rishib, boshlaridan o'tganlarni bir-biriga gapirib berishibdi.

Ertasi kuni Husanga toj kiydirish marosimi o'tkazilibdi. Husan bo'lib o'tgan voqealarni



bayon qilib Xitoyga, Buxoroga, Arabistonga choparlar yuboribdi.

Arab xalifasi nomani olgan zamono o'g'liga Radxani so'rab sovchi yuboribdi. Bir qancha kundan keyin katta to'y-tomoshalar bo'libdi. To'yga Xitoydan, Buxorodan mehmonlar kelibdi.

To'ydan keyin to'rt mamlakat vakillari bir joyga to'planib, bundan keyin bir-birlari bilan urushmaslik hamda savdo aloqalarini yaxshilash haqida ahdnoma tuzib, muhr bosibdilar. Shu bilan hammalari murod-u maqsadlariga yetishibdi.

SUSAMBIL

Bor ekan-u yo'q ekan, och ekan-u to'q ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, qarg'a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan, o'rdak surnaychi ekan, g'oz karnaychi ekan.

O'tgan zamonda bir boy bor ekan. Uning eshagi va bir ho'kizi bor ekan. Uning yeri ko'p ekan, qarol-qo'shchilariga ekin ektirib kun o'tkazar ekan. Xo'jayinning o'g'illari ko'pincha eshakni minib yurar ekanlar. Xo'jayin eshakka yarasha egar—to'qim qildirib bergan ekan. To'qimi gajimli, juda ham kelishgan ekan. Shunday qilib, bu eshakni xo'jayin ham, xo'jayinning bolalari ham yaxshi ko'rib, suv o'rniga sharbat, o't o'rniga qora mayiz berib boqisharkan. Xayr, eshak suv o'rniga sharbat, o't o'rniga qora mayiz yeb maza qilaversin, endi gapni ho'kizdan eshiting.



Xo'jayin ho'kizni ertadan kechgacha qo'shga qo'shar ekan. Ho'kiz kechqurun qorni ochib, charchab qaytib kelsa, uning oldiga bir bog' quruq poyani tashlab qo'yar ekan. Ho'kiz bechora har kuni bir bog' quruq poyaga yo'liqib, qorni ochib, qoni qochib, rangi to'zib, ko'p abgor bo'libdi. Bir kun ishdan kelib, poyani yegisi kelmay atrofga qarasa, boyagi eshak suv o'rniga sharbat, o't o'rniga qora mayiz yeb, maza qilib yotibdi. Shunda ho'kiz uning ovqatidan yegisi kelib, eshakdan:

— Hoy o'rtoq, men ko'p och qoldim, rahming kelmaydimi? Kel, menga ham ovqatingdan ber, — debdi.

Shunda eshakning rahmi kelib, ovqatidan beribdi. Eshakning oldida har doim ovqat ortib yotar ekan. Xo'jayin erta bilan chiqib korsaki, eshakning oldida ovqati qolmabdi. "E, eshagimning ishtahasi endi ochilibdi", deb ko'p-ko'p ovqat soladigan bo'libdi.

Bir kuni xo'jayin chiqib qarasa, eshakning ovqatini hadeb ho'kiz kelib yeyayotgan emish.

— Iye, hali sening qorning to'yib, dimog'ing ko'tarilib qolibdi-ku — deb ertasi kuni ho'kizni eshakning o'rniga qo'yib, eshakni oborib ho'kizning o'rniga qo'shga qo'shibdi.

Eshak sho'rlik umrida qo'shga qo'shilmagan ekan, omochni tortishga ko'p qiynalibdi. Oxiri taqdirga tan berib, qo'shda yurishga ham ko'nikib qolibdi. Kechgacha qo'shda yurib charchab, qorni ochib uyga borsa, awalgi



ovqatlar yo'q, sharbat o'rniga bir paqir suv, mayiz o'rniga bir bog' poya.

Eshak bechora nochor yeyishga tushibdi. Xayr, shunday qilib, xo'jayin eshakni kuzgacha toza ham qo'shga qo'shibdi. Kuz bo'lganda esa unga yuk ortib, uzoq-uzoq yerlarga boradigan bo'libdi.

Bir kuni xo'jayin eshakni minib bozorga boribdi. Bozordan bir qop tuz sotib olibdi. Tuzni eshakka ortib, ustiga o'zi minib, yo'lda ketayotlsa, birdan havo aynib, yomg'ir yog'a boshlabdi. Hash-pash deguncha darrov yo'llar loy bo'lib ketibdi. Eshak bechora ustida tuz, uning ustiga xo'jayin mingan, boz ustiga yuklar yomg'irda vazminlashgan, yomg'irdan junlari ivib, yo'lda arang yurib kelar ekan. Noinsof xo'jayin loaqal eshakning oyog'idagi taqasini ham yangilatib qo'ymagan ekan. Taqasi siyqalanib qolgani uchun eshak loyda toyilib, turtinib borar ekan. Ustidagi og'ir yuki bosib, darmoni qurib, buning ustiga xo'jayin:

— Tez-tez yurmaysanmi? — deb qo'lidagi xalacho'pi bilan bo'yniga niqtabdi, "xix-xix" deb, ikki oyog'i bilan qorniga tepibdi. Eshak shu azob bilan borayotib yo'lda bir buzuq ko'priikka kelib qolibdi. Bechora eshak toyilib-toyilib ko'prikning ustiga chiqqanida oyog'i toyib, ko'prikning teshigiga kirib qolibdi, ustidan xo'jayin chalqanchasiga ag'anab ketibdi. Shunda xo'jayinning qahri kelib, chayonday zahri kelib, ko'prikning tagidan bir so'yilni tortib olib,



o'lganning ustiga tepgan deganday: "Meni ag'anatadigan senmisan", deb bechora eshakni toza uribdi. Eshakning oyog'ini qisgan, o'zini yuk bosgan, buning ustiga kaltakning achchig'i. Eshak bo'ynini yerga solib, boshini loyga qo'yib, ko'zidan yoshini oqizib yotib qolibdi. Shunda uch-to'rt yo'lovchi yetib kelibdi.

Eshakning ahvolini ko'rib, yo'lovchilarning rahmi kelibdi. Bitta yo'lovchi:

— Hoy, noinsof. Eshakning ahvoliga qarasangchi, uni urib nima qilasan? Ustidagi yukini ol, bo'lmasa o'lib qoladi, — debdi. Keyin yo'lovchilar kelib, biri yukning ustidagi arg'amchini qirqibdi, biri tuzni ag'anatibdi, biri eshakning belidan ko'tarib, yana biri dumidan ushlab, ko'prikdan chiqarib olibdi. Shundan keyin xo'jayin tuzni ortib yana yo'lga tushibdi. Eshak bechora shuncha azob bilan qorni ochib uyga zo'rg'a yetib boribdi.

Borgandan keyin uydagilar: "Xo'jayin yomg'irda ivib kelibdilar, ko'p azoblanibdilar", deb uni qo'llab-quvvatlab, issiq uyga olib kirib ketishibdi. Eshakni esa ochiq havoga bog'lab qo'yishibdi. Xo'jayin o'choqqa qo'llarini toblab, isinib, yog'li palovni yeb maza qilibdi. Eshakka bo'lsa, "boyagi-boyagi, boyxo'janing tayog'i" deganday bir bog' quruq poyani tashlashibdi.

Eshakning juda xo'rliqi kelib, shu ahvolda yuraverishga rozi bo'lgisi kelmabdi. "Endi nima qilsam bo'lar ekan? — deb o'ylabdi. — Men shu xo'jayinning qo'lida tokay ezilaman, axir,



xo'jayinnikidan chiqib ketsam, ochdan o'lamanmi? Kel-e, shu yerdan boshimni olib ketayin!" debdi. "Endi qayoqqa borsam ekan?" deb o'ylabdi.

Eshak yoshligida onasidan: "Susambil degan mamlakat bor ekan, u joyda o'tning bo'lig'i, suvning tinig'i mo'l ekan. Unda birov bilan birovning ishi ham yo'q, azob-uqubat ham yo'q, ovqat mo'l, qorning doim to'yib yuradi", degan gapni eshitgan ekan. Onasi bechora ko'p orzu qilsa ham, Susambilga borolmay o'lib ketgan ekan.

Eshak o'ylab-o'ylab shu Susambilni topmoqchi bo'libdi. O'rnidan turib, chiranib tortib, boshvog'ini uzib, osmonga qarab bir hangrab olibdi. Keyin xo'jayinning tashqi hovlisi bilan xayrlashib, yo'lga tushibdi.

Bir odamning bir kam qirqta tovug'i, bitta xo'rozi bor ekan. Makiyonlar har kuni bir kam qirqta tuxum qilib berar ekanlar. Biroq egasi juda xasis odam ekan. Tovuqlarga loaqal uch kunda bir marta ham don sochib qo'ymas ekan. Tovuqlar hovlida xashaklarni va go'nglarni titib, shundan ovqat topib, qorin to'yg'azar ekanlar.

Bir kuni tovuqlar qo'shnisining hovlisida donlab yurganda uning xotini uy obrezida oqshoq yuvib, qozonga solibdi. Obrezning chetiga to'rt-beshta oqshoq to'kilib qolibdi. Buni xo'roz ko'rgan ekan, sekin kirib, haligi donlarni yeya boshlabdi. Shunda qo'shnisining xotini ko'rib,



"kisht-kisht, qirilgurlar, kisht", deb otashkurakni otib yuboribdi.

Otashkurak xo'rozga tegib, uni bir necha marotaba yumalatib yuboribdi. Otashkurakning zarbidan xo'roz ko'p alam tortib, bir chekkaga borib yig'labdi. Xo'rliги kelib: "Xo'jayin har kuni bir kam qirqta tuxum olsa, loaqal, bitta tuxumning puliga don olib sochmasa; uning eshigi yoniga borsak, o'zi ham, xotini ham "kisht-kisht" deb haydasa, boz ustiga qo'shnilaridan ham kaltak yesang! Menga nima azob! Kel, shu yerda yurgandan ko'ra dalalarga chiqib ketib, o'sha yerda o'zimcha tirikchilik qilsam, nima bo'ladi?" debdi.

O'rnidan turibdi va "qu-qu-qu" deb qichqiribdi. Keyin "pir" etib devorga qo'nibdi, undan uchib ko'chaga tushibdi-yu, dalaga qarab ketaveribdi.

Xo'roz dala yo'lida borayotgan ekan, uch ko'chaning boshiga borib qolibdi. Uch ko'chaning biridan boyagi eshak, ikkinchisidan xo'roz chiqib kelibdi. Xo'roz eshakka qarab:

— Assalomu alaykum, eshakvoy! — debdi. Eshak:

— Vaalaykum assalom, xo'rozvoy, — debdi.

Xo'roz:

— Sizga yo'l bo'lsin? — deb eshakdan so'rabdi.

Eshak:

— Susambilga, — debdi. Xo'roz:

— Susambil qanday joy? — debdi. Eshak:



— Susambil — o‘tning bo‘lig‘i, suvning tinig‘i, unda azob-uqubat yo‘q, maza qilib yurasan, — debdi. Xo‘roz:

— Men ham borsam bo‘ladimi? — deb so‘rabdi.

Eshak:

— Xayr, bitta edim, sen bilan ikkita bo‘lamiz, yuraver! — debdi. Ikkovi boshidan o‘tganlarini bir- biriga gapirib ketaveribdi.

Endi boyagi ho‘kizga kelaylik. Xo‘jayini uni ho‘kizlar bilan urishtirib yurar ekan. Ho‘kiz juda urishqoq bo‘lib, hamma joyga dong‘i ketgan ekan.

Bir kuni ho‘kiz urishtirish bo‘lib qolibdi. Shunda bu ho‘kiz yetti-sakkiz ho‘kizni qochiribdi. Endi bitta juda urishqoq ho‘kiz qolibdi. Xo‘jayin ho‘kizini bu ho‘kiz bilan ertasiga urishtirmoqchi bo‘libdi. Tongda xo‘jayin:

— Endi ho‘kizni urishtirishga boraman. Shoxini yog‘lab qo‘yay! — deb molxonaga chiqsa, ho‘kizning ikki ko‘zi yumuq, hadeb uxlayapti. Tushida katta bir yig‘in emish. Ho‘kizni xo‘jayini yig‘inga olib kirsam, haligi ho‘kiz buni yig‘indan quvib chiqarish uchun hamla qilib, yugurib qolibdi. Shunda buning achchig‘i chiqib, kelayotgan ho‘kizga hujum qilib uni bir suzibdi. Shunda ho‘kiz shoxini yog‘layotgan xo‘jayinni suzib yuboribdi. Xo‘jayinning yog‘ kosasi bir tarafga, o‘zi ikkinchi tarafga uchib tushibdi.



Xo'jayin hushidan ketibdi, hushiga kelgandan so'ng:

— Hali meni suzadigan senmisan?! — deb ho'kizni chunon uribdiki, qavarib chiqmagan joyi qolmabdi. Shunda ho'kiz yotib yig'labdi, xo'rliqi kelibdi: "Men xo'jayinga shuncha ishlarni qilib, qancha ho'kizlar bilan urishib, ularni yengib, pul yutib bersam, u esa shugina hazilimni ko'tarmay meni o'larcha ursa, bu menga qanday xo'rlik?!" debdi va: "Kel-e, men tokay xo'rlik tortaman, shu xo'jayinnikidan ketsam, nima bo'lar edi, ketaman!" deb o'rnidan turibdi, bir chiranib boshvoqni uzib, yo'lga tushibdi, yurib-yurib bir joyga borsa, boyagi eshak ko'rinibdi. Shunda ho'kiz eshakni chaqirib, orqasidan yuguribdi. Orqasiga qarasa, uzoqdan bir ho'kiz uni to'xtovsiz chaqirib kelyapti.

Eshak to'xtab turibdi, ho'kiz yetib kelibdi. Qarasa, o'zining sherigi ekan. Eshak:

— Ha, ho'kizvoy, nima qilib yuribsan? — debdi.

Ho'kiz aytibdi:

— Sendan keyin xo'jayin meni ham toza azobladi. Men ham "bor-e" deb kelaverdim. Sen qayoqqa ketyapsan?

Eshak:

— Men Susambilga ketyapman, — debdi. Ho'kiz:

— Susambil qanday joy? — debdi. Eshak aytibdi:



— Susambil o'tning bo'lig'i, suvning tinig'i, unda azob-uqubat yo'q, maza qilib yurasan!

Ho'kiz:

— Bo'lmasa men ham borsam bo'ladimi? — debdi. Eshak:

— Kelganing yaxshi bo'libdi. Ikkita edik, uchta bo'ldik. Yuraver! — debdi.

Ho'kiz, eshak, xo'roz uchovi boshidan o'tganlarini bir-biriga gapirishib, hasratlashib ketaverishib-di. Necha kun yo'l yurib, cho'l-u biyobonga yetishibdi.

Cho'lda hech kim yo'q ekan. Bir joyda ikkita kalamush turar ekan. Cho'lda oziq-ovqat kamligidan, ozgina ovqat topish uchun ko'p joylarga borib, ko'p yerlarni qazir ekanlar. Shunda qorin to'yar-to'ymas ozgina ovqat topishar ekan. Borabora cho'lda ovqat topilmay qolibdi. Bir kuni ikkala kalamush yeydigan ovqati yo'q, qorni ochiqib, endi nima qilamiz deb, uyasining og'ziga chiqib shumshayib o'tirishganda, uzoqdan haligi eshak, ho'kiz va xo'rozlar ko'rinishibdi. Biri aytibdi:

— Shu ko'ringanlar yo'lovchi bo'ladi. Yur, ulardan ovqat olaylik. Zora rahmi kelib, biror narsa tashlab ketishsa, — debdi.

Ikkalasi yo'lning ustiga chiqib turibdi. Ko'ringan hayvonlar ham yetib kelishibdi. Shunda kalamush ulardan ovqat tilabdi. Eshak to'xtab:

— Ey birodarlar, biz ham sizlarga o'xshab ochqolganlardanmiz. Agar ovqat kerak bo'lsa, biz



bilan birga yuraveringlar, – debdi. Kalamush eshakdan:

– Qayerga ketyapsizlar? – deb so‘rabdi. Eshak:

– Biz Susambilga ketyapmiz, – debdi.

– Susambil qanday joy? – deb so‘rabdi kalamush.

– Susambilni aslo so‘rama! Susambil o‘tning bo‘lig‘i, suvning tinig‘i, unda azob–uqubat yo‘q, maza qilib yurasan! – debdi eshak.

– Bo‘lmasa biz ham boraylik, – deyishibdi kalamushlar.

– Uchta edik, beshta bo‘ldik, yuraveringlar, – debdi eshak. Mana endi bular beshovi boshlaridan o‘tgan sarguzashtlarini bir-biriga gapirishib, Susambilga ketaveribdilar.

O‘sha cho‘lda bir gala ari bor ekan. Ular ham ovqat yo‘qligidan och qolib, nima qilarini bilmay, osmonda g‘o‘ng‘illab uchib ketayotgan ekanlar, birdan haligi Susambilga ketayotgan besh jonivorga yo‘liqibdilar.

Arilar bularni ko‘rib: "Uh, mana ovqatning konidan chiqdik, keragini olib qol!" deb chaqqani kirishibdi. Shunda eshak aytibdiki:

– Ey ukalar, sizlar ham bizga o‘xshab och qolib qiynalganga o‘xshaysizlar. Bizning tanamizda shira qolgani yo‘q. So‘rganlaring bilan hech narsa chiqmaydi. Shiramizni xo‘jayinlarimiz so‘rib olgan.

Agar ovqat kerak bo‘lsa, biz bilan yuraveringlar! – debdi.



Shunda arilar bularning ahvolini ko'rib, bular ham bizga o'xshagan och qolganlardan ekan, deb qayoqqa ketishayotganini so'rabdi.

– Biz Susambilga ketyapmiz, – deyishibdi.

– Susambil qanday joy? – deb so'rabdi arilar.

– Susambil o'tning bo'lig'i, suvning tinig'i, unda azob-uqubat yo'q, maza qilib yurasiz, – deyishibdi.

– Bo'lmasa biz ham boraylik, – debdi arilar.

– Mayli, beshta edik, ko'p bo'ldik, – debdilar.

Shunda bular hammasi: "Susambil, qaydasan?" deb boshidan o'tganlarini gaplashib, hasratlashib ketaveribdilar. Yo'lda ketayotib: "Qachon Susambilga yetamiz?" deb, yuraklari jig'illab, goho-goho eshakdan: "Yana bir gapirib bering. Susambil qanday joy o'zi?!" deb so'rashar ekan.

Eshak ham Susambilni maqtab, ularning ko'nglini ko'tarar ekan. Bular:

– Susambilga borsak unday qilamiz, bunday qilamiz! – deb o'zlaricha shirin-shirin xayollar surib borishar ekan.

Bular yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi. Oxiri dimog'lariga Susambilning xushbo'y shabadasi urilibdi. Susambilga ham yetib kelishibdi.

Susambil juda ham keng, bepoyon bir joy ekan. Havosi juda toza, narigi yoqda ulkan tog' bo'lib, uning shabadasi doim g'irillab kelib turar ekan. Yerda ko'm-ko'k maysalar, bedalar yashnab yotibdi. Bir yoqda bug'doy, arpalar; bir yoqda



govun-tarvuzlar, bir taraf keta-ketguncha bog' unda uzum, anjir, o'rik, shaftoli va turli-tuman mevalar g'arq pishgan. Ariqlarda oppoq sutday suvlar sharqiraydi. Borganlarning bag'riga shamol tegibdi.

Shunda bu bechoralar juda ham xursand bo'lib ketishibdi. Xursandlikdan ba'zilar yig'lab olishibdi. Ular ko'p och qolishgan ekan. Har qaysisi istagan ovqatini yeb, qornini to'yg'azib, vaqtlarini xushlashib, so'ngra salqin bir joyga kelib dam olishibdi. Yo'l azobi - go'r azobi, deganday, ko'p charchab qolishgan ekan, shu salqin joyda yotib uzoqqina uxlashibdi.

Uyqudan turib qo'l-betlarini yuvib, yana xohlagan ovqatlarini yebdilar. Shu bilan bular Susambilga kelib ko'p rohatlanib qolishibdi. Susambilning bir tomoni baland tog' bo'lib, unda kiyik deysizmi, ishqilib ko'p jonivorlar yashar ekan. Tog'ning bir joyida esa bir to'da bo'ri turar ekan.

Bir kuni bo'rilarining podshosi ularni to'plab, bazm qilib, ichkilik ichib, kabob qilib yeb o'tirgan ekan. Shunda bo'rilarining podshosi uzoqdan haligi eshak bilan ho'kizni ko'rib qolibdi:

— Uh, bizga barra kabob topildi, huv ana, o'tlab yuribdi. Uch-to'rtta bo'lib borib shularni olib kelinglar, kabob qilib yeymiz, — debdi.

Bo'rilarining ichida bitta hovliqmasi bor ekan, u turib aytibdi:



— Shugina narsaga uch-to'rt kishining nima keragi bor? Bitta o'zim borib olib kelaman! — debdi.

Bo'rilarning ichida yana bitta hovliqmasi bor ekan. Haligi bo'rining gapini eshitib, shartta o'rnidan turib:

— Hov, nima deyapsan o'zing? Men turganda sen qayoqqa borasan? O'tir joyingda! Men o'zim borib olib kelaman! — debdi. Bunga u bo'rining achchig'i kelibdi:

— Meni pisand qilmayapsan, sendan nima kamligim bor?! — deb bir-ikki daf qilibdi. Shu yerda ikkovi olishib ketibdi.

Shunda bo'rilarning podshosi turib:

Hoy muttahamlar, urishmanglar! Bor, ikkoving borib olib kel! — debdi. Shu bilan ikkovi chopqillashib ketishibdi. Bular ketayotganlarida bizning susambilliklarimiz o'tlab yurishgan ekan.

Bir vaqt ho'kiz yerdagi ko'katni yeb, og'zini to'ldirib, boshini ko'tarib, o'tni chaynab, tog' tomonga qarab, uzoqdan chopib kelayotgan ikkita bo'riga ko'zi tushibdi. Shunda ho'kizning yuragi shuvullab ketibdi. U qo'rqib og'zidagi o'tini yerga tashlab, sheriklarini chaqiribdi. Sheriklari ham bo'rilarni ko'rishibdi. "Endi nima qilamiz? Qochamizmi, turamizmi?" deb maslahatlashibdilar.

Eshak:

— Qochsak, quvib yetib oladi, yaxshisi qochmaymiz, — debdi. Ho'kiz aytibdi:



— Basharti oldimizga kelsa, nima qilamiz?
Shunda xo‘roz:

— Men daraxtning tepasiga uchib chiqib ketaman, — debdi. Kalamushlar:

— Biz yerni kavlab, kirib ketamiz, — debdilar.

Eshak:

— Hangrab turaveraman, — debdi. Arilar:

— Biz ro‘para kelganini chaqib, hamma yog‘ini shishirib tashlaymiz! — debdilar. Ho‘kizga arilarning gapi juda ham yoqib tushibdi:

— Bo‘lmasa sizlar jon boricha chaqinglar. Qolganlarini menga qo‘yib beringlar! — debdi. Bular maslahatni bir qilib turaverishibdi. Bir zumda bo‘rilar yetib kelibdilar. Bo‘rining haligi hovliqmasi sherigiga:

— Huv anavini sen ko‘tar! Mana buni men ko‘taraman, — deb ho‘kizga qarab yuguribdi.

Shunda ho‘kiz orqasiga qaytib turib, bo‘riga qarab yugurib borib bir suzganda, bo‘ri "dod" deb yetti dumalab tushibdi. Buni ko‘rib sherigi yugurib kelgan ekan, ho‘kiz uni ham qattiq suzib tashlabdi.

Kalamushlar qo‘rqanlaridan yerni kavlab kirib ketishga urinibdi. Yer toshloq, qattiq ekan, ular kavlab kirolmabdilar, bir zumda allaqancha joyni o‘yib yuboribdilar.

Xo‘roz bo‘lsa daraxtga chiqib olib, hadeb "qu-qu-qu" deb qichqiraveribdi.

Arilar har ikkala bo‘riga yopishib chaqaverishibdi-chaqaverishibdi, bir zumda do‘mbira qilib



shishirib tashlashibdi. Bo'rilar shunda ham qochmay, jonholatda kelib, ho'kizga yopishibdilar.

Ho'kiz ularni suzaverib, a'zoyi badanini yara qilib tashlabdi. Eshak bo'lsa nariroqda bor ovozi bilan hangrab, nari borib-beri kelib turaveribdi.

Bir vaqt bo'rilar olishib-olishib charchashibdi. Qarasa, ho'kiz bilan arilar o'ldirib qo'yadigan. Shunda dastlab haligi hovliqma bo'ri qochishga tushibdi, orqasidan bunisi ergashibdi. Bular shu qochganicha podshoning oldiga yetib borishibdi. Bu bo'rilarining hamma yog'i yorilgan, qonlari oqqan, ari chaqqan yuzlari shishib, ko'zlari ko'rinmaydigan bir ahvolda ekan. Podsho va sheriklari bularning ahvolini ko'rib, rangi o'chib, qoni qochib, iyaklari qaltirab, ko'zlari yaltirab qolibdi. Podsho:

– Sizlarga nima bo'ldi? – deb so'rabdi.

– Ey taqsir, bular barra kabob emas, boshga kelgan balo ekan! – deyishibdi.

– Ha, nima bo'ldi? – desa, bo'rining biri:

– Bular bizning jonimizga qasd qilib kelgan ekan. Bularning ichida munkar–nakiri, uning bir juft go'rkovi ham bor ekan. Munkarnakir gurzisi bilan bir urganda, agar sher bo'lsa ham, necha dumalab ketadi, – debdi.

Bo'rining yana biri:

– Ey mahmadona! Sen tek tur! O'zim gapiraman. Bularning ichida azroil ham bor ekan.



Jonni olish uchun nayzasini suqsa, a'zoyi badaning achishib, shishib ketar ekan, — debdi.

Endi bunisi:

— He, sen bilmaysan! Bular go'rkovi bilan kelgan ekan. Hali biz o'lmay turib, har birimizga yettitadan go'r qazib qo'yishibdi, — debdi.

Unisi aytibdi:

— Sen ko'rmabsan! Bular so'fisi bilan kelgan ekan. Hali biz o'lmay turib, daraxtning tepasiga chiqib, hadeb odamlarni janozaga chaqiryapti.

Unisi:

— Lekin bularning ichida bir kattasi bor ekan. Unisi eshoni bo'lsa kerak. Bizga yaqinlashmadi, lekin nariroqda turib ish o'rgatib, bularga baqirib turdi. Agar unisi ham kelganda, biz mutlaqo o'lar edik, — debdi.

Bo'rilar bularning aft-angorini ko'rib, gaplarini eshitib, qo'rqib vasvasaga tushibdilar. Podsho:

— Endi" nima qilamiz? — debdi. Haligilar:

— Ey taqsir, agar baloga duchor bo'laylik, kunimiz bitibdi, o'laylik desangiz, turaveramiz. Bo'lmasa qochamiz. Bular bizning orqamizdan quvsa, hali zamon yetib keladi, — debdi.

Buni eshitib bo'rilarning podshosi yana qo'rqibdi.

— Bo'lmasa turinglar, jo'naymiz, — debdi.

Shunda hamma bo'rilar, bu joyga kelmay, har yoqda tirqirab yurganlarini ham topib kelib, Susambil tog'ini tashlab qochib, yetti tog'ning narigi yog'iga o'tib ketishibdi.



Susambilliklar endi tamom erkinlikka chiqib, og‘zi oshga tegib, sal kunda semirib ketibdilar. Ular goho xo‘jayinlarinikida ko‘rgan kunlari esga tushsa, o‘kinib, bu yerdagi rohatlarni ko‘rib sevinib, Susambilning ovini ovlab, dovini dovlab, maza qilib yuraverishibdi. Shu bilan murod-maqсадlariga yetishibdi.

DONO QIZ BILAN BOY

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, o‘tgan zamonda bir chol bilan o‘n ikki yoshli qizi yolg‘iz yashashar ekan. Ularning bisotida bitta tuya, bitta ot va bitta eshak bor ekan.

Chol o‘rmondan o‘tin terib kelib, ularni sotib tirikchilik qilar ekan. Qiz esa uy ishi bilan band bo‘lar ekan. Chol odatdagidek, tuyaga o‘tin yuklab bozorga boribdi. Uning yoniga semiz bir boy kelib:

– O‘tinni necha puldan sotyapsiz? – deb so‘rabdi. Chol:

– Uch tangadan, – deb javob beribdi. Boy:

– Senga o‘n tanga beraman, shartim shuki, o‘tinni uyga olib borib berasan, – debdi.

Chol behad xursand bo‘lib, boyning uyigacha olib borib berishga rozi bo‘libdi. Chol boynikiga borgach, o‘tinni ag‘darib, pulni olib, endi ketmoqchi bo‘lib turgan ekan, boy:

– Tuyani ham bog‘la! – deb baqiribdi. Chol hayron bo‘lib:

– Tuya meniki-ku, – desa, boy:



— Men o'tinni tuya bilan birga sotib olganman, bo'lmasa, sen ahmoqqa o'n tanga berarmidim, — deb o'dag'aylabdi.

Shundan keyin ular tortishib qolibdilar, ish qozigacha boribdi. Qozi:

— Sen o'tinni boricha sotdingmi? — deb so'rabdi.

Chol:

— Ha, — deb javob beribdi.

— Unday bo'lsa, tuya ham boyniki. O'tinni shu turishicha sotish kerak emas edi, — debdi qozi.

— Axir, tuyaning o'zi uch yuz tanga turadi—ku! —deb qolaveribdi chol.

Shunday qilib chol noiloj tuyani boynikida qoldirib kelibdi.

Boshqa kuni chol o'tinlarni otiga yuklab, bozorga olib chiqibdi. Yana o'sha boy kelib, o'tinning narxini so'rabdi. Chol, "uch tanga" deb aytsa, boy "shundayligicha uyga olib borib bersang, o'n tanga beraman", debdi. O'tgan voqea yodidan chiqib ketgan chol, yana rozi bo'libdi.

Boynikiga borgach, boy, "men oti bilan baho qilganman" deb turib olibdi. Chol otni ham tashlab ketishga majbur bo'libdi. Chol xafa bo'lib o'z uyiga qaytibdi va bo'lgan voqealarni qiziga aytib beribdi.

Keyingi kuni chol eshakka o'tin yuklab bozorga ketayotsa, qizi to'xtatibdi va:



— Ota, menga ruxsat bersangiz. O'tinlarni men olib borib sotsam, — debdi.

Chol rozi bo'libdi. Qiz otasini uyda qoldirib, bozor tomon yo'l olibdi. Yana o'sha semiz boy kelib, o'tinlarga xaridor bo'libdi. Qiz o'tinlarning bahosini "uch tanga" desa, boy yana "shu turishida uyga eltib bersang, o'n tanga beraman" debdi.

Qiz ko'nmabdi. "Faqat o'tin haqini bersangiz bo'ladi", deb turib olibdi.

Qiz o'tinlarni to'kibdi va uning haqini so'rabdi. Boy qizga pulni berayotganida, qiz uning qo'lini ham pul bilan ushlab olibdi va "biz va'dani shunday qilganmiz" deb qo'yib yubormabdi. Janjal, ur-sur boshlanibdi, hech kim ularning tortishuvini ajrata olmabdi. Qoziga ham borishibdi. Lekin qiz o'z aytganida turib olibdi. Oxiri qiz boyga:

— Ellik tilla tanga bersangiz qutulasiz, ozodsiz, — debdi.

Boy rozi bo'lib, qizga ellik tanga beribdi. Lekin bu boyga juda alam qilibdi va turli yo'llarni axtara boshlabdi. O'ylab—o'ylab qizga, kimki yolg'onni do'ndirib ishlatsa, ellik tilladan garov o'ynashni taklif qilibdi. Qiz rozi bo'libdi. Yolg'on gapirishni oldin boy boshlabdi:

— Bir vaqtlar men bug'doy ekkam edim, shunday serhosil bo'ldiki, tuya, ot, eshaklar bug'doy poyasiga kirishsa, ko'rinmay qolar edi. U yerga kirgan hayvonlar qaytib chiqmas edi. Bir kuni bug'doyni yanchib, xotinga non



qildirdim. Nonni sindirib, endi tishlagan edim. "Be-e-e" degan echki ovozi eshitilib, birin-ketin semiz, katta echkilar tusha boshladilar. Ketidan tuya, otlar ham chiqib kelaverdilar.

Qiz:

— Ha, dunyoda bunaqa voqealar ko‘p uchrab turadi, — debdi va u ham o‘z hikoyasini boshlabdi:

— Bir kuni qishlog‘imizning o‘rtasiga bir dona paxtaning chigitini ekdim. Paxta yetilib, ochilganida besh yuz xotinni chaqirib terdirdim. Terilgan paxtani sotdim. Uning puliga qirqta tuya sotib olib, ularni yaxshilab bezadim. Ikki akam bilan Buxoroga jo‘natdim. Uch yil ulardan hech qanday xabar bo‘lmadi. Yaqinda ularning o‘ldirilganliklarini eshitdim. Sizning ustingizdagi to‘n — mening katta akamning to‘ni. U bu to‘nini Buxoroga kiyib ketgan edi. Demak, siz mening akalarimni o‘ldirgan ekansiz, ularning tuyalarini esa o‘zlashtirgansiz!

Semiz boy o‘ylanib, tang holatga tushib qolibdi. Agar qizning bu hikoyasi bo‘yicha ayblansa, u — jinoyatchi, odam o‘ldirgan bo‘lib chiqadi. Agar bu gaplarni noto‘g‘ri, yolg‘on desa, garovga binoan, ellik tilla tanga berishi kerak bo‘ladi. Boy o‘ylab-o‘ylab, oxiri qizga ellik tilla tangani beribdi. Boy qizga qarab:

— Butun hayotim davomida birinchi marta bunday qo‘lga tushishim, — debdi va qizga tuya bilan otni ham qaytarib beribdi.



Qiz xursand bo'lib, tuya, ot va eshaklarni yetaklab, pullarni tuyaga ortib, o'z uyiga qaytib kelibdi.

PODSHO BILAN IKKI XOTIN

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir podsho bor ekan. U birinchi xotining ustiga o'z vazirining qizini xotinlikka olibdi. Vazirning qizi juda zahar ekan. U hadeganda kundoshi bilan urishaverib, hech kun bermas ekan.

Bir kuni ularning urishib turganlari ustiga podsho kelib qolibdi. Ayb kichik xotinida ekan, shunga qaramay, podsho unga tegmabdi. Aybsiz bo'lsa ham, katta xotinini tutib olib, rosa kaltaklabdi. Kichik xotin kundoshidan qutilish payiga tushibdi.

— Xotiningni o'ldirmasang, men senga xotin bo'lmayman, — deb turib olibdi kichik xotini.

Podsho nima qilishini bilmay, vaziridan maslahat so'rabdi. Vazir:

— Podshohim, "yana urishganlarningning ustidan chiqqudek bo'lsam, ikkovingga ham jazo beraman" deng, xizmatkorlaringizga esa, katta xotiningizni qorga ko'mishga, kichik xotiningizni unga ko'mishga buyruq bering. Shunda katta xotiningiz qor tagida, sovuqda qotib o'ladi, siz qutulasiz, — deb maslahat beribdi.

Podsho bir kuni yana xotinlarining urishayotgani ustidan chiqib, xizmatkorlariga:

— Olib boring, birini qorga, birini unga ko'ming, — deb buyruq beribdi.



Xizmatkorlar podshoning buyrug'ini bajo keltirib, katta xotinini qorga, kichik xotinini unga ko'mib qo'yishibdi. Bir ozdan keyin ochib qarasalar, un tagiga ko'milgan vazirning qizi o'lib qolgan, qor tagiga ko'milgan katta xotin o'lmay qolgan ekan.

YOQMA – PISHARSAN, QAZMA – TUSHARSAN

Qadim zamonda bir saxovatli odam bo'lgan ekan. U odam hamisha elga osh-non ulashar va el xizmatini qilar ekan. Dasht-sahrolarga borsa, qo'y boqishga yordam berar, daryoga borsa baliqlarga non-go'sht tashlab o'tar ekan.

Uning bir o'g'li bor ekan. Otasi o'lib ro'zg'or shu bolaning boshiga tushibdi. Bola beva qolgan onasi bilan kun kechira boshlabdi.

Kunlardan bir kuni bir savdogar xalqqa kelib:

– Kim mening bir kunlik xizmatimni bajarsa, olti oy boqaman va ro'zg'origa olti oylik ovqatini beraman, – debdi.

Savdogarning gapini eshitgan bola ham bir kun xizmat qilib, olti oylik ovqat va haqini olishga orzumand bo'libdi.

Savdogar ham bolani o'zi bilan birga olib ketibdi. Bolani olti oy boqibdi, olti oylik haqini, oziq-ovqatlarni ham ro'zg'origa beribdi va uni chaqirib shunday debdi:

– Endi kelishganimizdek, olti oy yeb-ichding, dam olding, haqingni ham olding, endi bir kunlik xizmatimni joyiga qo'yan, – debdi.



– Ma'qul, – debdi bola ham.

Savdogar qirq tuya, qirq to'rva, qirq xurjun olibdi-da, bolani bir tuyaga mindirib, o'zi bir tuyaga minib yo'lga tushishibdi. Tongdan yo'lga chiqib yarim tungacha yo'l bosib, bir quduq oldiga kelib to'xtabdilar.

Savdogar bolaga qarab:

– Endi seni shu quduqqa tushiraman, qirq xurjun bilan qirq to'rvani ham yuboraman.

Qo'lingga nima ilinsa, shu xurjun va to'rvalarga solib, menga yuboraverasan, – debdi.

– Xo'p, – debdi bola.

Savdogar bolaning beliga ikki yuz gazlik arqonni bog'lab quduqqa tushiraveribdi, bola ham hali yetarman, hali yetarman deb tushaveribdi. Oxiri bolaning oyog'i yerga tegibdi. Savdogar xurjunni ham, to'rvani ham quduqqa tashlabdi.

Bola qo'liga ilingan narsalarning nima ekanligini o'zi ham bilmay-ko'rmay, to'rvalarni, keyin xurjunlarni ham to'ldirib yuqoriga yuboraveribdi.

Bir vaqt bola qarasa, na xurjun, na to'rva qolib-di, na yuqoridan arqon tushibdi. Shunday qilib, savdogar bolani quduqda qoldirib, o'zi oltin-kumush, gavhar-marvaridlarni olib ketib qolgan ekan.

Bola savdogarning hiylasini sezibdi-da, "taqdir shu ekan-da" deb, bir necha kechani o'tkazibdi. Bolani o'lim vahimasi bosib kelaveribdi. U yoq-



bu yoqlarda yotgan odam kallalarini ko'rib qo'rqibdi.

Bola xafa bo'lib, boshini yerga solib o'tirsa, vag'ur-vug'ur ovoz kela boshlabdi. Bola: "Bu ne ovoz?" deb boshini ko'tarib qarasa, oldida bir yigit turganmish.

– Do'stim, yur izimdan, – debdi yigit.

Bola yigitning orqasidan boraveribdi. Yigit bolani bir daryoga olib borib, bir qayiqqa o'tqazibdi va:

– Qayiqqa desang, shu yoqqa olib boraman, – debdi.

– Men o'z elimga borishni istayman, – debdi bola. Yigit qayiqni hayday turib, bolaga:

– Endi ko'zingni yum, och desam, ochasan, – debdi. Bola ko'zini yumibdi va yigit "och" deganda, ochgan ekan, u o'zini daryo qirg'og'ida ko'ribdi.

– Endi, xayr, – debdi yigit.

– To'xta, sen kim bo'lasan, menga buncha yaxshilik qilgan? – deb so'rabdi.

– Men sening ko'p non-tuzingni yeganman.

Otang menga turli narsalar keltirib berar edi, endi shuning xizmatini bajardim. Xayr, – debdi-da, yigit bir baliq suratiga kirib, daryoga cho'kib ketibdi.

Bola otasi tufayli qaytgan yaxshilikka xursand bo'lib, uyiga yo'l olibdi. Kelib qarasa, uyda na non, na bir chaqa pul bor ekan. Bola "yonimda non puli bormi, yo'qmi", deb qarasa, cho'ntagidan gavharlar to'kilaveribdi. Qarab



tomosha qilgudek, bir fursatda ro'zg'or yaxshilanib ketibdi.

Kunlardan bir kuni yana o'sha savdogar murid istab:

– Kimki bir kun xizmat qilib bersa, olti oylik haqini oladi, – deb jar solib kelibdi.

Bola o'ylabdi: "Agar men bormasam, boshqasi borar, o'lib ketar yo omon qolar, kel, bu qotilning joyini topdirib qo'yay" debdi-da, savdogarning yoniga borib:

– Men boraman, – debdi.

Savdogar bolani o'zi bilan birga olib ketib, olti oy rosa izzatda tutibdi. Olti oy o'tgandan keyin avvalgi gapini takrorlab:

– Endi xizmatga! – debdi.

Bola savdogar bilan o'sha tanish quduq bo'yiga boribdi. Savdogar yana bolaning beliga arqonni bog'layotgan ekan, bola:

– Xo'jam, avval bu quduqning ichiga qanday tushishimni o'zingiz bir ko'rsatib bering, – debdi.

– Ey, shuni ham bilmagan anqov bo'lasanmi, mana qarab tur, – deb savdogar o'zining beliga arqonni bog'lab quduqqa ozgina tushgan ekan, bola arqonni kesib yuboribdi-da:

– Endi shu makon ham go'ring, ham do'zaxing bo'lsin, – debdi.

Tuyalarni ham qo'yib yuboribdi. O'zi esa qutilganiga shukur qilib eliga qaytib kelibdi va to'ylar qilib, uylanib, bola-chaqali bo'lib, yaxshi yashab, murod-maqsadiga yetibdi.



DUSHMANNING KATTA—KICHIGI BO'LMAS

O'tgan zamonda Yasar mamlakati podshosiga qarashli cho'llardan bir guruh karvon o'tib kelayotgan ekan. Jaziramada holdan toygan kishilar kechki salqinda bir oz dam olmoqchi bo'lib to'xtashibdi. Cho'lda sichqonlar ko'p ekan. Shu kuni sichqonlarning malikasi o'rtoqlari bilan karvon to'xtagan joyda o'ynab yurgan ekan. Sichqonlar tuyalar va ularga ortilgan mollarni ko'rib qiziqib qolishibdi. Sichqonlar malikasi ancha o'jar ekan, u savatlar orasiga kirib, nimalar borligini o'z ko'zi bilan ko'rmoqchi bo'libdi. U dugonalarining, "Ehtiyot bo'l, savatga chiqma", deganiga quloq solmabdi va savatda qamalib qolibdi.

Ertalab karvon sichqon-malikani ham olib yo'lida ketaveribdi. Voqeadan xabardor bo'lgan sichqonlar qayg'urib, bir yerga yig'ilishibdi va maslahat qilib, Yasar mamlakatining podshosiga noma yuboribdilar. Unda: "Ey ulug' shoh, sizning shahringizga kelgan karvonda bizning malikamiz ham birga kelgan, shuni ozod etsangiz", deyilgan ekan. Yasar podshosi bu nomani o'qib, g'azablanibdi:

— Bor, podshohingga ayt, karvon orasidan sichqon qidirib yurish mendek podshoga yarashmaydi. Qo'lidan kelganini qilsin!

Sichqon vakillari xafa qaytishibdi. Ularning podshosi hamma sichqonlarni yig'ib:



— Yasar mamlakati podshosining xazinasidagi hamma oltin-kumush — la'l-javohirlarni tashib xazinamizga keltiringlar! — deb farmon beribdi.

Barcha sichqonlar yer tagidan lahmcha kavlab, Yasar podshosi boyliklarining hammasini o'z xazinalariga to'plashibdi. Undan keyin sichqonlar podshosi:

— Yasar podshosi omboridagi g'allalarni ham quritinglar! — debdi.

Podsho omboridagi g'allalarni ham sichqonlar tashib bitirishibdi.

Sichqonlar podshosi yo'l chetiga chiqib tursa, bir o'tinchi yigit o'tib ketayotgan ekan. Sichqon yigitni to'xtatib:

— Ey yigit, o'n ming askar yig'. O'zing ularga lashkarboshi bo'lasan. Yasar podshosi bilan jang qilamiz. Xazinamizdan istaganingcha tilla, kumush olib xarajat qilaver! — debdi.

O'tinchi ham ancha aqlli, dono yigit bo'lib, "Aqlim bor-u, pulim yo'q", deb yurganlardan biri ekan. U sichqonning taklifiga rozi bo'lib, shaharlardan kambag'allarni yig'ibdi, pulni ayamay xarajat qilib, o'n ming lashkar tuzibdi. Ularni ot, kiyim, qurol-aslahalar bilan ta'minlabdi. Sichqonlar askarlarni ko'rib, xursandliklaridan o'yinga tushib ketishibdi. Podsho esa ularga:

— To'xtanglar, to'ydan ilgari nog'ora chalmanglar! Hali urushda kim yengib chiqadi, noma'lum. Jangga yaxshi tayyorlanish kerak,



hushyorlikni qo'ldan bermanglar! — deb sichqonlarni ogohlantiribdi.

Shundan so'ng sichqonlar podshosi Yasar podshosiga noma yuborib, urush e'lon qilibdi. Yasar podshosi nomani o'qib, qah-qah urib kulibdi. Keyin bu noma ta'sir qilib:

— Endi kunimiz sichqonlar bilan jang qilishga qoldimi? — debdi. — Qancha podsholarni yengib qoyil qildik. Sichqonlar bilan urushish bizga or-nomus emasmi? Sichqonlar kim-u, biz kim? — deb podsho mo'ylabini burab xayol suribdi.

Podsho yana o'z-o'ziga, "Balki sichqonlarning ajali yetib, qirilib, yer yuzidan yo'qolib ketish vaqti yetgandir, bu vazifani biz bajarishimiz kerakdir", debdi. Keyin vazirga:

— Qani, urushga hozirlaninglar! — deb farmon beribdi.

Jangga tayyorlanish uchun pul zarur, xazinachini chaqirishsa, u dod solib kelibdi.

— Ha, nima bo'ldi? — deb so'rabdi podsho.

— Taqsir, falokat ro'y berdi, — deb xazinachi yig'labdi. Podsho:

— Gapir, nima bo'ldi? — desa, xazinachi:

— Xazinada bir tanga ham qolmabdi! — debdi.

Podsho g'azablanib vazirlari bilan yugurganicha xazinaga kirsam, haqiqatan hech vaqo yo'qmish. Podsho:

— G'alladan sotib, urush anjomlarini taxt qilinglar! — deb farmon beribdi.



Omborchilar ham yig'lab kelishibdi. Omborda ham bir qadoq g'alla qolmagan ekan.

Yasar podshosi bu ahvolni ko'rib xazinachi va omborchilarni jazoga buyuribdi. Podsho lashkarlarini Jang maydoniga yuboribdi. Har ikki tomon Jang maydoniga yetib kelibdi va erta saharda urush boshlanibdi. Biroq kechasi lashkarlar uxlab yotganida sichqonlar kelib, Yasar podshosi lashkarlari otlarining egarjabduqlarini va boshqa narsalarini yirtib, teshib, tilka-pora qilib tashlashibdi.

Yasar lashkarlari ertalab jangga kirmoqchi bo'lib, shoshilib otlarini egarlamoqchi bo'lishibdi, lekin qo'llaridan hech narsa kelmabdi. Lashkarlar vahimaga tushib, to'rt tomonga zir yugurishibdi.

Bu fursatdan foydalangan sichqonlar tomonidagi lashkarlar hujum boshlab, Yasar podshosining askarlarini yengibdi.

Dushman taslim bo'libdi. Yasar mamlakatiga o'tinchi yigit podsho bo'libdi. Shundan buyon el orasida "Dushmanning katta-kichigi bo'lmas", degan naql yurar ekan.





MUNDARIJA

XURSHID BILAN LAYLO.....	3
HAR KIMNING BOLASI O'ZIGA SHIRIN	14
ERKAJON	15
DEHQON, QOZI VA TADBIRLI AYOL	21
AYOLSIZ UYNI KO'R, QARO YERNI KO'R.....	25
DONO ZULAYHO.....	28
PUFAKVOY	32
O'TINCHI YIGIT BILAN SHER.....	37
JOHIL PODSHO VA ABU ALI	39
SOHIBJON BILAN AHMADJON	48
BIR XUMCHA OLTIN	66
SHERZOD VA GULSHOD.....	74
HASAN VA HUSAN.....	83
SUSAMBIL	98
DONO QIZ BILAN BOY	114
PODSHO BILAN IKKI XOTIN	118
YOQMA – PISHARSAN, QAZMA – TUSHARSAN	119
DUSHMANNING KATTA–KICHIGI BO'LMAS.....	123

O'zbek xalq ertaklari

Hurshid bilan Laylo

ertaklar

Toshkent — «Adabiyot uchqunlari» — 2018

Bosh muharrir: Salima Boltaboyeva

Korrektor: Alisher Sultanov

Rassom: Shuxrat Adilov

Bosishga 28.08.2018 ruxsat etildi. Bichimi 84x108 $\frac{1}{32}$.

«School» garniturası. Ofset qog'ozı. Ofset bosma usuli.

Shartli bosma tabog'i 4.25. Nashr bosma tabog'i 4.0.

Adadi 3000. Buyurtma 100.

OOO «OSIYO TANGIR PRINT» bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent sh. A. Raxmat 12a. Tel.: 226-67-55.



ISBN 978-9943-3-3



9 789943 525733